

624.2

R 26



10 11 12 13 14 15 16 17 18

19 20 21 22 23 24 25 26 27  
28 29 30 31 32 33 34 35 36  
37 38 39 40 41 42 43 44 45  
46 47 48 49 50 51 52 53 54  
55 56 57 58 59 60 61 62 63  
64 65 66 67 68 69 70 71 72  
73 74 75 76 77 78 79 80 81  
82 83 84 85 86 87 88 89 90  
91 92 93 94 95 96 97 98 99  
100 101 102 103 104 105 106 107 108  
109 110 111 112 113 114 115 116 117  
118 119 120 121 122 123 124 125 126  
127 128 129 130 131 132 133 134 135  
136 137 138 139 140 141 142 143 144  
145 146 147 148 149 150 151 152 153  
154 155 156 157 158 159 160 161 162  
163 164 165 166 167 168 169 170 171  
172 173 174 175 176 177 178 179 180  
181 182 183 184 185 186 187 188 189  
190 191 192 193 194 195 196 197 198  
199 200 201 202 203 204 205 206 207  
208 209 210 211 212 213 214 215 216  
217 218 219 220 221 222 223 224 225  
226 227 228 229 230 231 232 233 234  
235 236 237 238 239 240 241 242 243  
244 245 246 247 248 249 250 251 252  
253 254 255 256 257 258 259 260 261  
262 263 264 265 266 267 268 269 270  
271 272 273 274 275 276 277 278 279  
280 281 282 283 284 285 286 287 288  
289 290 291 292 293 294 295 296 297  
298 299 300 301 302 303 304 305 306  
307 308 309 310 311 312 313 314 315  
316 317 318 319 320 321 322 323 324  
325 326 327 328 329 330 331 332 333  
334 335 336 337 338 339 340 341 342  
343 344 345 346 347 348 349 350 351  
352 353 354 355 356 357 358 359 360  
361 362 363 364 365 366 367 368 369  
370 371 372 373 374 375 376 377 378  
379 380 381 382 383 384 385 386 387  
388 389 390 391 392 393 394 395 396  
397 398 399 400 401 402 403 404 405  
406 407 408 409 410 411 412 413 414  
415 416 417 418 419 420 421 422 423  
424 425 426 427 428 429 430 431 432  
433 434 435 436 437 438 439 440 441  
442 443 444 445 446 447 448 449 449

10 11 12 13 14 15 16 17 18

19 20 21 22 23 24 25 26 27

28 29 30 31 32 33 34 35 36

37 38 39 40 41 42 43 44 45

46 47 48 49 50 51 52 53 54

55 56 57 58 59 60 61 62 63

64 65 66 67 68 69 70 71 72

73 74 75 76 77 78 79 80 81

82 83 84 85 86 87 88 89 90

91 92 93 94 95 96 97 98 99

100 101 102 103 104 105 106 107 108

109 110 111 112 113 114 115 116 117

118 119 120 121 122 123 124 125 126

127 128 129 130 131 132 133 134 135

136 137 138 139 140 141 142 143 144

145 146 147 148 149 150 151 152 153

154 155 156 157 158 159 160 161 162

163 164 165 166 167 168 169 170 171

172 173 174 175 176 177 178 179 180

181 182 183 184 185 186 187 188 189

190 191 192 193 194 195 196 197 198

199 200 201 202 203 204 205 206 207

208 209 210 211 212 213 214 215 216

217 218 219 220 221 222 223 224 225

226 227 228 229 230 231 232 233 234

235 236 237 238 239 240 241 242 243

244 245 246 247 248 249 250 251 252

253 254 255 256 257 258 259 260 261

262 263 264 265 266 267 268 269 270

271 272 273 274 275 276 277 278 279

280 281 282 283 284 285 286 287 288

289 290 291 292 293 294 295 296 297

298 299 300 301 302 303 304 305 306

307 308 309 310 311 312 313 314 315

316 317 318 319 320 321 322 323 324

325 326 327 328 329 330 331 332 333

334 335 336 337 338 339 340 341 342

343 344 345 346 347 348 349 350 351

352 353 354 355 356 357 358 359 360

361 362 363 364 365 366 367 368 369

370 371 372 373 374 375 376 377 378

379 380 381 382 383 384 385 386 387

388 389 390 391 392 393 394 395 396

397 398 399 400 401 402 403 404 405

406 407 408 409 410 411 412 413 414

415 416 417 418 419 420 421 422 423

424 425 426 427 428 429 430 431 432

433 434 435 436 437 438 439 440 441

442 443 444 445 446 447 448 449 449

450 451 452 453 454 455 456 457 458

459 460 461 462 463 464 465 466 467

468 469 470 471 472 473 474 475 476

477 478 479 480 481 482 483 484 485

486 487 488 489 490 491 492 493 494

495 496 497 498 499 500 501 502 503

504 505 506 507 508 509 510 511 512

513 514 515 516 517 518 519 520 521

522 523 524 525 526 527 528 529 530

531 532 533 534 535 536 537 538 539

540 541 542 543 544 545 546 547 548

549 550 551 552 553 554 555 556 557

558 559 560 561 562 563 564 565 566

567 568 569 570 571 572 573 574 575

576 577 578 579 580 581 582 583 584

585 586 587 588 589 590 591 592 593

594 595 596 597 598 599 600 601 602

603 604 605 606 607 608 609 610 611

612 613 614 615 616 617 618 619 620

621 622 623 624 625 626 627 628 629

630 631 632 633 634 635 636 637 638

639 640 641 642 643 644 645 646 647

648 649 650 651 652 653 654 655 656

657 658 659 660 661 662 663 664 665

666 667 668 669 670 671 672 673 674

675 676 677 678 679 680 681 682 683

684 685 686 687 688 689 690 691 692

693 694 695 696 697 698 699 700 701

702 703 704 705 706 707 708 709 710

711 712 713 714 715 716 717 718 719

720 721 722 723 724 725 726 727 728

729 730 731 732 733 734 735 736 737

738 739 740 741 742 743 744 745 746

747 748 749 750 751 752 753 754 755

756 757 758 759 760 761 762 763 764

765 766 767 768 769 770 771 772 773

774 775 776 777 778 779 780 781 782

783 784 785 786 787 788 789 790 791

792 793 794 795 796 797 798 799 800

801 802 803 804 805 806 807 808 809

810 811 812 813 814 815 816 817 818

819 820 821 822 823 824 825 826 827

828 829 830 831 832 833 834 835 836

837 838 839 840 841 842 843 844 845

846 847 848 849 850 851 852 853 854

855 856 857 858 859 860 861 862 863

866 867 868 869 870 871 872 873 874

875 876 877 878 879 880 881 882 883

886 887 888 889 890 891 892 893 894

895 896 897 898 899 900 901 902 903

904 905 906 907 908 909 910 911 912

913 914 915 916 917 918 919 920 921

922 923 924 925 926 927 928 929 930

931 932 933 934 935 936 937 938 939

940 941 942 943 944 945 946 947 948

949 950 951 952 953 954 955 956 957

958 959 960 961 962 963 964 965 966

967 968 969 970 971 972 973 974 975

976 977 978 979 980 981 982 983 984

985 986 987 988 989 990 991 992 993

994 995 996 997 998 999 1000 1001 1002

1003 1004 1005 1006 1007 1008 1009 10010 10011

10012 10013 10014 10015 10016 10017 10018 10019 10020

10021 10022 10023 10024 10025 10026 10027 10028 10029

10030 10031 10032 10033 10034 10035 10036 10037 10038

10039 10040 10041 10042 10043 10044 10045 10046 10047

10048 10049 10050 10051 10052 10053 10054 10055 10056

10057 10058 10059 10060 10061 10062 10063 10064 10065

10066 10067 10068 10069 10070 10071 10072 10073 10074

10075 10076 10077 10078 10079 10080 10081 10082 10083

10084 10085 10086 10087 10088 10089 10090 10091 10092

10093 10094 10095 10096 10097 10098 10099 100100 100101

100102 100103 100104 100105 100106 100107 100108 100109 100110

100111 100112 100113 100114 100115 100116 100117 100118 100119

100120 100121 100122 100123 100124 100125 100126 100127 100128

100129 100130 100131 100132 100133 100134 100135 100136 100137

100138 100139 100140 100141 100142 100143 100144 100145 100146

100147 100148 100149 100150 100151 100152 100153 100154 100155

100156 100157 100158 100159 100160 100161 100162 100163 100164

100165 100166 100167 100168 100169 100170 100171 100172 100173

100174 100175 100176 100177 100178 100179 100180 100181 100182

</

624.2/8  
R 26


«O'zbekiston temir yo'llari» DATK  
Toshkent temir yo'l muhandislari instituti

Raupov Ch.S.

## TEMIRBETON KONSTRUKTSIYALARINI LOYIHALSHNING ILMIY ASOSLARI

5A340603—“Ko'priklar va transport tonnellaridan foydalanish”  
mutaxassisligidagi 1-bosqich magistratura talabalari uchun  
o'quv qo'llanma

Qism I



Toshkent – 2013

624.21.012.45.001.6(07)<sup>v</sup>

UDK 624.21.072.012.4.04

Temirbeton konstruktsiyalarni loyihalshning ilmiy asoslari. O'quv qo'llanma. **Ch.S.Raupov.** ToshTYMI, T.: 2013, 88 bet.

O'quv qo'llanmada qurilishda ishlataladigan beton va po'lat armaturalarning sinflanishi, ularning fizik-mexanik tavsiflari, normativ va hisobiy qarshiliklari, temirbetonning mohiyati va uning xossalari, bino va inshootlarga ta'sir etadigan yuk va ta'sirlar, oldindan zo'riqqan temirbeton konstruktsiyalar, ularni tayyorlash usullari, temirbeton konstruktsiyalarni loyihalash asoslari va ularning kuchlanganlik holati va hisoblash usullari, chegaradan (loyihadan) tashqaridagi yuk va ta'sirlar ostidagi temirbeton konstruktsiyalar to'g'risida asosiy ma'lumotlar keltirilgan.

Qo'llanmaning hamma bo'limlarida amaliy ahamiyatga ega bo'lgan, murakkabligi har xil darajadagi masalalarni echish misollari keltirilgan.

O'quv qo'llanma 5A340603—«Ko'priklar va transport tonnellaridan foydalanish» mutaxassisligi talabalari uchun mo'ljallangan.

Rasmlar – 21; jadvallar – 4; adabiyotlar – 16.

**Taqrizchilar:** A.O.Eshonxo'jaev – t.f.d., prof. (TAYI);  
E.M. Maxamatov – t.f.n., dot. (ToshTYMI).

O'quv qo'llanma «Ko'priklar va tonnellar» kafedrasi majlisida ma'qullangan va institut o'quv-uslubiy kengashi tomonidan tasdiqlangan.



## Kirish

Mazkur o‘quv qo‘llanmani yozishdan maqsad talabalarga temirbeton konstruksiyalarni hisoblash va loyihalashning zamonaviy usullarini o‘rganishda yordamlashishdan iboratdir. “Temirbeton konstruksiyalarni loyihalashning ilmiy asoslari” fani muhandisni shakllantiradigan, tejamkor va mustahkam elementlar yaratish ustida ish olib boradigan fanlardan biri bo‘lib, uning asoslarini chuqur o‘zlashtirmoq har qanday binokor muhandis uchun ham qarz, ham farzdir.

Mustahkamlik, bikrlik hamda ko‘pga chidamlilik qurilish konstruksiyalariga qo‘yiladigan asosiy talablardir. Binokor–muhandis konstruksiyaning shunday echimini topishi kerakki, bunda konstruksiya ham yuqoridaq talablarga javob bersin, ham tejamli bo‘lsin. Bu esa masalani optimal loyihalash muammosiga olib keladi. Temirbeton konstruksiyalarni loyihalash nazariyasi tatbiqiylar bo‘lganligi sababli matematika, nazariy mexanika, materiallar qarshiligi, qurilish mexanikasi singari asosiy tabiiy fanlarning qonun-qoidalariga asoslanadi.

Hayot va qurilish tajribasi shuni ko‘rsatdiki, hozirgi zamon kapital qurilishining asosini temirbeton konstruksiyalar tashkil etadi. Demak, binokorlar oldida temirbeton konstruksiyalarining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilash, buyumlarning tannarxini arzonlashtirishdek muhim vazifa turibdi. Bu vazifani ijobiy hal etish uchun temirbeton konstruksiyalarga daxldor bo‘lgan nazariy va amaliy bilimlarni chuqur o‘rganish talab etiladi [15].

Qurilishda materiallar hamda elektr energiya sarfini kamaytirish, zavodlarda tayyorlangan konstruksiya va detallarning iqtisodiy samaradorligi, sifatini oshirish, yangi va mahalliy materiallar asosida tayyorlangan progressiv konstruksiyalarni keng ko‘lamda ishlatish mo‘ljallangan. Bu masalalarni xal etilishi konstruktiv echimlarni asosli ravishda tanlash, hamda hisoblashning hozirgi zamon usullaridan foydalanish yo‘li bilan temirbeton konstruksiyalardan foydalanishni rivojlantirish va takomillashtirishga yordam beradi [1, 2, 7 – 9, 11].

Yuqoridaq masalalarni hal qilishda muhandislar va qurilish mutaxassislari o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shishlari lozim. Ular asosiy hisoblash sxemalari, qurilish konstruksiyalari elementlarining ishlash sharoiti va ularning kuchlanganlik hamda deformatsiyalangan holatlarining xarakteri xaqidagi ma’lumotlarni mukammal bilishlari, turli materiallarning texnik xossalalarini aniq tasavvur qilishlari, asosiy konstruktiv echimlarni to‘g‘ri tanlay olishlari uchun hozirgi me’yoriy texnik hujjatlardan xabardor bo‘lishlari zarur.

Materiallarni to‘g‘ri tanlashga konstruksiyalarning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari, ularning ishonchiligi, uzoqqa chidamliligi va boshqalar bog‘liq bo‘ladi. Loyihachi materiallar bahosini, ularni ishslash va tashishni, materiallarning ijobiyligi va salbiy xossalalarini, hamda «Asosiy qurilish materiallardan tejamli foydalanishning texnik qoidalari» ga amal qilishni hisobga olishi lozim.

Yuqoridagi fikrlarga qaramay, bugungi kunda eng nozik masala – beton masalasidir. Gap shundaki, O‘zbekistonning iqlim sharoitida qator o‘ta noxush ta’sir ko‘rsatadigan omillar mavjud. Tabiiy jarayonlar sement tarkibiga jiddiy ta’sir ko‘rsatib, avtotransport tomonidan chiqarilayotgan karbonat angidrid gazi esa betonning kislota tufayli zanglashi (chirishi) ga sabab bo‘ladi. Betonga bu kabi ko‘rsatilgan fizik-kimyoviy ta’sirlar uning jadal emirilishiga olib keladi [15]. Sementbeton emirilishi jarayonini sekinlashtirish uchun, u quyidagi xossalarga ega bo‘lishi lozim: agressiv (tajovuzkor) reagentlar uchun qarshilik ko‘rsata olish, yuzasining pishiqligi va mustahkamligi, yoriqlarga yuqori bardoshlik, shuningdek sovuqqa va turli-tuman deformatsiyalarga nisbatan bardoshlik. Barcha keltirilgan xossalarga sof klinkerli sementlarni ulardan foydalanish hamda sement toshining maksimal zinchilik, suyuqlik kira oladigan oraliqlarni qoldirmay, materialning o‘zida kapillyar-uzlukli pufakchalar hosil qilgan holdagi tuzilmasini shakllantirish hisobiga ega bo‘lish mumkin [15].

Betondan foydalanish muddatini uzaytirish va sement toshining suyuqlik kira olmaydigan tuzilmasini shakllantirish maqsadida sement qorishmalarini tayyorlash texnologiyasida maxsus qo‘srimcha – superplastifikatorlarni qo’llash talab etilib, ular havoni o‘ziga jalb etib, sementning qotish jarayonini sekinlashtirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, beton yuqori chastotali vibratsiyani qo’llagan holda yotqizilishi (zichlantirilishi) lozim.

Yuqori mustahkamlikka ega bo‘lgan betonni tayyorlash texnologiyasining o‘ta muhim elementlaridan biri – mikrokremniy tuproqli to‘ldirgichlardan foydalanish hisoblanadi. Mikrokremniy tuproqdan yuqori mustahkamlikka ega bo‘lgan beton olishda faol foydalanilib, butun dunyodagi qurilish ishlarida ko‘pdan beri ishlatilib kelinadi. Mikrokremniy tuproqdan betonning tarkibiy qismi sifatida osmono‘par binolar qurilishida birinchi bo‘lib amerikaliklar foydalana boshlaganlar. Bu holda binoning barcha kommunikatsiya inshootlari asosiy qismi yotqizilgan monolit betondan tayyorlangan [10].

Endi bevosita transport inshootlari konstruksiyalari qurilishiga o‘tamiz. Beton tayyorlashda beton uzellarining o‘zida inshootlarining pishiqligi va holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan ko‘plab omillar qo‘srimcha ravishda

yuzaga keladi. Bunday omillarga: beton qorishmasi tarkibiy qismlarini noaniq dozalash, joyning iflosligi va changlanganligi, betonni tayyorlash joyidan qurilish joyiga tashish yo'lining uzoqligi (beton tarkibiga uning qotish jarayonini sekinlashtiradigan maxsus qorishmalar qo'shilmag'an bo'lsa, tashish davomida beton sifati ancha yomonlashib, bu qotish rejimining buzilishiga sabab bo'ladi). SHuning uchun betonni tayyorlash, tashish, yotqizish va uning qotishi bilan bog'liq barcha texnologiya bosqichlarida nazorat ta'minlanishi shart.

Transport qurilishi uchun o'ta muhim, materialshunoslik kabi tarmoq fani yutuqlari qurilish materiallari tarmog'i bosib o'tgan butun taraqqiyot yo'lini aks ettiradi. Bu yo'lda asosiy transport qurilishlari, shuningdek qurilish industriyasi oldida qo'yilgan hamda tarmoq muayyan taraqqiyot davriga xos ruhda hal etilgan vazifalar alohida, yodda qoladigan bosqich bo'lib qoldi [10].

Mavzular bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari orasida qurilish materiallari texnologiyalari, transport qurilishi uchun mo'ljallangan buyumlar ishlab chiqarish uslub va uskunalar, energiyaning tejash jarayonlari muhim o'rinni tutadi.

Yig'ma temirbetondan qurilish sohasida tobora ko'proq e'tibor yuqori darajada mustahkam va uzoq muddat xizmat qiladigan betondan yasalgan konstruksiyalarga berilmoxda. 1960 yillardan boshlab ushbu muammo ustida ko'plab tadqiqotchilar ish olib borayaptilar. QKMITI (ЦНИИС, Москва) tomonidan Cement ITI bilan birgalikda olib borilgan tadqiqotlar natijasida B90 sinfli beton olinib, B140 gacha bo'lgan beton yaratish bo'yicha ishlar amalga oshirildi. O'ta mustahkam beton olish uchun quyidagilar zarur bo'ldi: 700...900 markali sementlarni qo'llash; fraksiyalangan yuvilgan to'ldirgich va qo'shimchalardan foydalanish – qotish jarayonini tezlashtiruvchi vositalarni qo'llash; beton qorishmasini vibroaralashdirish usuli bilan tayyorlash; qattiq beton aralashmalarini qo'llash; buyumlarga zichlashning kuch va vibratsion usullarini birga qo'llash; konstruksiyalarni bug'dan izolyasiyalovchi qatlam bilan qoplash yoki uni suv muhitida qotirishga o'tish bilan betonning optimal qotish sharoitlari yordamida shakl berish [10].

Betonning, shu jumladan kompleks qo'shimchalar qo'shilgan betonning sovuqbardoshligi doimo mutaxassislar diqqat e'tiborida bo'lib kelgan. Normal namlikda qotgan, yoshi 28 kundan ko'p beton ustida qurilish ob'ektlaridan birida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, betonli namunalar siklli tarzda muzlatib, eritilganidan so'ng sinalayotgan namunalarning standart metodika bo'yicha sinovi o'tkazilganida, o'z ekvivalentlariga, shuningdek egizak-namunalariga nisbatan mustahkamligi

qo'shimcha ravishda ortgan. Siklli tarzda muzlatib, eritishdan keyingi mustahkamlikning qo'shimcha ortishini gipotetik tarzda quyi alyuminatli sementlar va yuzani faollashtiruvchi moddalar (YuFM – ПАВ) ni qo'llash bilan bog'liq tuzilma hosil qilish jarayonlarining o'ziga xosligi bilan izohlash mumkin [16].

Beton texnologiyasi sohasida beton tuzilmasini shakllantirish istiqbolli yo'naliш hisoblanib, u betonning chidamliligini ancha oshirish hamda uning fizik-texnik xossalariни yaxshilash imkonini beradi [Moskva, Бетон и железобетон, 1987, №7]. Ayniqsa, betonlarni gidrofob (suv yuqtirmaydigan) gaz ajratadigan tipli oligomerlar bilan modifikatsiyalash (o'zgartirish) yaxshi samara beradi. Ular betonning mayda teshikli tuzilmasiga ega bo'lish, hamda sement toshining tirkish va kapillyarlarining ichki yuzasini mozaikasimon gidrofoblash imkonini beradi. Qattiq organik birikmalar (QOB) yordamida modifikatsiyalash sovuqqa va chirishga chidamli betonlar olish imkonini beradi.

Superplastifikatorlar betonning S/Ts (W/C) nisbatini hamda karbonat kislota gaziga nisbatan diffuzion o'tkazuvchanligini pasaytiradi. Yarimfunksional ta'sir ko'rsatadigan modifikatorlarni (YaFM - ПФМ) qo'llash ham maqsadga muvofiq. Ular asosiy xossalarni kuchaytirib, qorishmadagi noxush samaralarni kamaytirishga olib keladi.

Armatura va armaturalash texnologiyasi qurilish materiallari masalalari orasida alohida o'rinn tutadi. Transport qurilishidagi ekspluatatsion yuk ostida temirbeton konstruksiyalari ishlashining noyobligi (o'ziga xosligi) ularni armaturalashning o'ziga xos xususiyatlarida namoyon bo'ladi.

Oldindan zo'riqtirilgan temirbeton konstruksiyalarni armatura ishlarini kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishni qo'llagan holda yalpi ishlab chiqarishga o'tishda konstruksiyalarning samaradorligini belgilab beradigan asosiy omillardan biri – texnologiya jarayonlarining ishonchligi hisoblanadi. Armaturalash jarayoniga ko'plab tasodifiy omillar ta'sir ko'rsatadi: boshlang'ich ishlatiladigan materiallar xossalaring o'zgarib turishi, texnologiya rejimlarini amalga oshirishdagi noaniqliklar, uskunalarining barqaror ishlamasligi va h.k. Ana shunday nosozliklardan biri armatura taranglanganida uning uzilib ketishidir. Armaturaning bir jinsliligini simni mustahkamlik chegarasiga ko'ra saralash hamda guruhli tarzda taranglanayotgan simlarning notejis taranglanishi sabablarini bartaraf etish yo'li bilan oshirish mumkin [10].

Armaturalashning yangi turlariga ham katta e'tibor qaratilgan. Misol uchun, yangi kompozit materiali po'lat fibrobeton (tarkibidagi metall tolalari – fibralar betartib (xaotik tarzda) joylashgan beton) oddiy betonga nisbatan yaxshilangan fizik-mexanik xossalarga ega. Masalan, uning o'q

bo‘ylab cho‘zishga mustahkamligi 1,5...1,7 marta, egilishdagi cho‘zilishga mustahkamligi – 2...3 marta, zarbli qovushqoqligi – 8...10 marta ortadi [10]. Siqilishdagi mustahkamligi, edirilish va chidamlilik xususiyatlari ortadi. Po‘lat fibrobeton korroziyaga qarshi yuqori darajada chidamlilik xususiyatlariga ega. Po‘lat fibrobeton konstruksiyalar qo‘llanishi yo‘liga to‘g‘onoq bo‘lib turgan omillardan biri, uzoq vaqt davomida fibraning sanoat miqyosida ishlab chiqarilmaganligidir. Hozirgi paytga kelib «Xareks» tipidagi fibra ishlab chiqarish bo‘yicha ikki liniya Kurgan ko‘prik metall konstruksiyalari zavodida (RF) ishlab turibdi. Po‘lat fibrobeton transport inshootlari konstruksiyalarida yaxshi samara bilan ishlatilishi mumkin. Chet elda po‘lat fibrobeton bilan birga shuningdek shisha fibrobeton ham qo‘llaniladi. 1997 yili “Ittifoqyo‘lloyiha” (Soyuzdorproekt - Союздорпроект) ilk marotaba eksperimental shisha fibrobeton karniz bloklari konstruksiyasini ishlab chiqib, ulardan Yaroslavskiy shossesi orqali o‘tgan MKAD (RF) yo‘l o‘tkazgichini qayta tiklashda foydalanildi [10]. Eksperimental tadqiqotlar va shisha fibrobetonni tajriba tariqasida qo‘llash shuni ko‘rsatdiki, ko‘priksozlikda ushbu material echilmaydigan opalubka, karniz bloklari va ba’zi boshqa konstruksiyalarda etarli darajada samarali ravishda qo‘llash uchun yuqori mustahkamlik xossalariiga ega ekan.

# I BOB. QURILISHDA ISHLATILADIGAN BETON VA PO'LAT ARMATURANING FIZIK-MEXANIK TAVSIFLARI

## 1.1. Betonning fizik-mexanik xossalari va uning konstruksiyalarda qo'llanishi

*Qurilish konstruksiyalari* deb o'Ichamlari mustahkamlikka, ustivorlikka, chidamlilikka, yoriqbardoshlikka va deformatsiyaga hisoblash yo'li bilan topiladigan, hamda har xil yuk va ta'sirlarni qabul qilishga mo'ljallangan bino va inshootlar va ularning qismlariga (qo'zg'aladigan va qo'zg'almaydigan) aytiladi [1, 2, 8, 9, 11].

Qurilish konstruksiyalari po'lat, alyuminiy, beton, temirbeton, tosh, plastmassa, polimer tolali material va boshqalardan tayyorlanadi.

Transport qurilishida betonli, temirbetonli va metall konstruksiyalar qo'llaniladi. Metall konstruksiyalardan inshootlarning katta oraliqlarida, har xil vazifani bajaruvchi katta oraliqli binolarning sinchi va tomlarida foydaniladi. Beton va temirbeton konstruksiyalar kam tanqisligi, yuqori mustahkamli, uzoqqa chidamliligi, olovbardoshligi, suv o'tkazmasligi va har xil shakldagi elementlarni tayyorlash mumkinligi, hamda foydalanish chiqimlarning kam talab qilganligi uchun qurilishda etakchi o'rinni egallaydi. Materiallarni to'g'ri tanlash va ularni qo'llashga konstruksiyalarning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari, ularning ishonchliligi, uzoqqa chidamliligi va boshqalar bog'liq bo'ladi. Loyihachi materiallar bahosini, ularni ishlash va tashishni, materiallarning ijobiy va salbiy xossalari, hamda «Asosiy qurilish materiallaridan tejamli foydalanishning texnik qoidalari» ga amal qilishni hisobga olishi lozim.

*Betonning sinflanishi* [12–14]. Bog'lovchi, to'ldiruvchi va suv aralashmasining qotishidan hosil bo'lgan sun'iy tosh beton deb ataladi. Beton quyidagi belgilari bo'yicha sinflanadi: vazifasi bo'yicha – konstruktiv va maxsus; bog'lovchisi bo'yicha – sementli, silikatli, shlakli, gipsli; to'ldiruvchisi bo'yicha – zich, g'ovakli va maxsus to'ldiruvchili; strukturasi bo'yicha – zich, katta g'ovakli, g'ovakli, yacheykali. Yuqoridagi belgilari qarab beton quyidagi turlarga bo'linadi: og'ir, engil, maydadonali, zo'riquvchi, yacheykali va b.

*Og'ir beton* – bu zich strukturali beton bo'lib, sementli bog'lovchi, katta va mayda zich to'ldiruvchilardan tashkil topgan. U qurilishda eng ko'p tarqalgan beton bo'lib, asosan yuk ko'taruvchi konstruksiyalarda ishlatiladi.

*Engil beton* (sementli bog'lovchi va g'ovak to'ldiruvchilardan tashkil topgan) bino va inshootlarning yuk ko'taruvchi va ko'tarmaydigan

konstruksiyalarida ishlataladi. *Yacheykali beton* yuk ko'tarmaydigan konstruksiyalarda, katta g'ovakli – faqat betonli konstruksiyalarda (masalan, drenajlar va gidrotexnik inshootlar filtrlari), maydadonali beton esa yig'ma konstruksiyalarni choclarini to'ldirish uchun va armotsementli konstruksiyalarda ishlataladi.

Beton anizotrop material bo'lib, uning mustahkamligi quyidagi omillarga bog'liq: tarkibi, bog'lovchi va to'ldiruvchining xili, suv va sementning nisbati (W/C), tayyorlash usuli, qotish sharoiti, betonning yoshi, namunalarning shakli va o'lchamlari.

Beton qorishmasida W/C qancha kichik bo'lsa, betonning mustahkamligi shuncha yuqori bo'ladi, sement kam sarflanadi.

**Betonning mustahkamlik sinflari va beton markalari** [12–14]. Betonning siqilish mustahkamligi sinflapi B harfi bilan belgilanib, miqdor jihatidan betonning 0,95 ta'minlanganlik darajasida siqilishga bo'lgan kubik mustahkamligi teng bo'ladi. Betonning mustahkamlik bo'yicha sinflari yoki me'yoriy qarshiliklari nazorat qilinadigan tavsif hisoblanadi. Bu tavsif beton buyumning ishchi chizmasida qayd etiladi, buyumni tayyorlashda unga qat'iy amal qilish zaruriy talab hisoblanadi.

Beton prizmalarining siqilish  $R_{bn}$  va cho'zilish  $R_{btm}$  bo'yicha me'yoriy qarshiliklari (tajriba yo'li bilan aniqlanmasa) kubik mustahkamligi orqali aniqlanadi. Betonning mustahkamligiga baho beradigan asosiy ko'rsatkich uning kubik mustahkamligidir.

Betonning siqilish mustahkamligi bo'yicha sinfi (B) beton kublarni sinash yo'li bilan aniqlanadi. Kubning qirralari 15 sm dan bo'lib, 28 sutka mobaynida  $20 \pm 2^{\circ}\text{C}$  haroratda, havo namligi 95% dan kam bo'lmagan sharoitda saqlangandan keyin sinaladi.

Beton va temirbeton konstruksiyalar uchun og'ir betonning siqilishga bo'lgan mustahkamligi bo'yicha quyidagi sinflar ko'zda tutilgan: B3,5; B5; B7,5; B10; B12,5; B15; B20; B25; B30; B35; B40; B45; B50; B55; B60.

Og'ir betondan ishlanadigan temirbeton konstruksiyalarida sinfi B7,5 dan past bo'lgan betonlarni qo'llash ruxsat etilmaydi. Takroriy yuklar ta'sir etadigan konstruksiyalarda sinfi B15 dan yuqori bo'lgan betonlar qo'llaniladi. Siqiluvchi temirbeton elementlari B15 dan kam bo'lmagan betonlardan va katta yuk ostida bo'ladigan konstruksiyalarda esa (masalan, qo'p qavatli binolarning quyi qavat ustunlarida) sinfi B25 dan kam bo'lmagan betonlar qo'llash tavsiya etiladi.

Zo'riqtirilgan beton uchun B20...60 bo'lgan beton sinflari qabul qilinadi. Hisob ishlarida betonning prizma mustahkamligi ishlataladi. Bu mustahkamlik kubik mustahkamligining 72...77 % ini tashkil etadi:  $R_b =$

0,75R.

*Betonning bo'ylama cho'zilish mustahkamligi* bo'yicha sinfi B<sub>t</sub> ko'pgina inshootlarda (masalan, gidrotexnika inshootlarida) beton mustahkamligining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Betonning cho'zilishdagi mustahkamligi siqilishdagiga nisbatan 10...20 marta kam bo'lib, quyidagi empirik formula yordamida aniqlanadi [12–14]:

$$R_{bt} = 0,5\sqrt[3]{R^2}. \quad (1.1)$$

Bo'ylama cho'zilish mustahkamligi bo'yicha betonning quyidagi sinflari belgilangan: B<sub>t</sub>0,8; B<sub>t</sub>1,2; B<sub>t</sub>1,6; B<sub>t</sub>2; B<sub>t</sub>2,4; B<sub>t</sub>2,8; B<sub>t</sub>3,2. Beton sinfi konstruksiyaning vazifasi va ishlash sharoitiga bog'liq holda texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida belgilanadi.

Betonning qirqilishdagli mustahkamligi  $R_{sh} = 2R_{bt}$ , yorilishdagli mustahkamligi  $(1,5...2)R_{bt}$ , ko'p sonli takroriy yuklanishlar-dagi mustahkamligi  $R_r = (0,95...0,5)R_{bt}$  bo'ladi.

Shunday qilib, turli xil quch ta'siri ostida betonning mexanik mustahkamligi taxminan quyidagi qiymatlarga ega [12–14]:

kubiklarni siqqanda	R;
prizmalarni siqqanda	(0,70...0,80)R;
o'q bo'ylab cho'zilishda	(0,05...0,10)R;
egilishdagli cho'zilishda	(0,10...0,18)R;
sof qirqilishda	(0,15...0,30)R;
yorilishda	(0,10...0,20)R.

Betonning sovuqbardoshlik bo'yicha markasi deganda, suv shimdirilgan betonni navbatma-navbat muzlatib eritganda beton namunalari bardosh beradigan sikllar soni tushuniladi. Og'ir beton uchun sovuqbardoshlik bo'yicha quyidagi markalar belgilangan: F50; F75; F100; F150; F200; F300; F400; F500.

Suv o'tkazmaslik bo'yicha beton markasi sinalayotgan namunadan suv sizib o'tishi kuzatilmaydigan bosimni ifodalaydi. Suv o'tkazmaslik markalari – W2; W4; W6; W8; W10; W12, bunga mos qeladigan suv bosimlari – 0,2; 0,4; 0,6; 0,8; 1,0; 1,2 MPa. Zo'riqtirilgan beton uchun W12 dan kam bo'lmasligi kerak.

Zichlik bo'yicha beton markasi uning quritilgan holatdagi o'rtacha zichligini ifodalaydi. Engil betonlarning zichlik bo'yicha markasi D800 dan D2000 ga qadar har 100 oraliqda o'zgarib boradi. Zichligi 2000...2200 kg/m<sup>3</sup> bo'lgan betonlar o'rta vaznli, 2200 kg/m<sup>3</sup>) dan ortiq bo'lganlari esa og'ir betonlarga kiradi.

*Me'yoriy qarshiliklar* [12–14]. Beton bir jinsli bo'lmasligi va turli

xil omillarning ta'sir etishi natijasida xossalari keng miyosda o'zgaruvchan bo'ladi, lekin shunga qaramay, hisob ishlarida ma'lum darajada ishonarli bo'lgan mustahkamlik ko'rsatkichlaridan foydalanishga to'g'ri keladi.

Betonning me'yoriy kubik mustahkamligi (me'yoriy qarshilik) deganda quyidagi formuladan aniqlanadigan miqdor tushuniladi:

$$R_n = R_m(1-1,64V), \quad (1.2)$$

bu erda  $R_m$  – betonning o'rtacha statistik mustahkamlig'i;  $V$  – beton mustahkamligining o'zgaruvchanlik koeffitsienti bo'lib, og'ir va engil betonlar uchun o'rtacha 0,135 ni tashkil etadi.

**Betonning hisobiq qarshiliklari** [12–14]. Chegaraviy holatlarning birinchi guruhi uchun beriladigan betonning hisobiq qarshiliklari  $R_b$  va  $R_{bt}$  ning ishonchlilik darajasi 0,997 ga teng. Ularning qiymatlari me'yoriy qarshiliklarni ishonchlilik koeffitsientiga bo'lish orqali aniqlanadi:

siqilish uchun  $R_b = R_{bn}/\gamma_{bc}$ ;

cho'zilish uchun  $R_{bt} = R_{btn}/\gamma_{bt}$ ,

bu erda  $\gamma_{bc}$  va  $\gamma_{bt}$  betonning siqilish va cho'zilishdagi ishonchlilik koeffitsientlari. Betonning siqilishdagi mustahkamligi bo'yicha sinfini belgilashda  $\gamma_{bc} = 1,3$ , cho'zilish bo'yicha esa  $\gamma_{bt} = 1,5$  olinadi.

Lozim bo'lgan hollarda betonning hisobiq qarshiligi ish sharoiti koeffitsienti  $\gamma_{bi}$  ga ko'paytiriladi. Mazkur koeffitsient elementning ishlash sharoiti, ish bosqichlari, kesim o'lchamlari va boshqa omillarga qarab birdan katta yoki kichik bo'lishi mumkin.

Ko'p karra takrorlanuvchi yuklar betonning hisobiq qarshiliklari  $R_b$  va  $R_{bt}$  ish sharoiti koeffitsienti  $\gamma_{bi} < 1$  ga ko'paytiriladi.  $\gamma_{bi}$  ning qiymati kuchlanishlar siklini nosimmetrik koeffitsienti  $\rho_b = \sigma_{b,min}/\sigma_{b,max}$  hamda betonning turi va namligiga bog'liq holda aniqlanadi. Konstruksiyani uzoq muddatli yuk ta'siriga hisoblashda, agar beton mustahkamligining oshib borishini ta'minlovchi sharoit mavjud bo'lmasa (masalan, atrof muhit namligi 75% dan yuqori bo'lsa), u holda og'ir betonning hisobiq qarshiligi  $\gamma_{b2} = 0,9$  ga qo'paytiriladi. Ko'tarma kran, shamol, zilzila, portlash singari qisqa muddatli yuklar ta'sir etsa,  $\gamma_{b2} = 1,1$  olinadi.


Chegaraviy holatlarni ikkinchi guruhi uchun betonning hisobiq qarshiligi ko'pincha miqdor jihatidan me'yoriy qarshiliklarga teng bo'ladi:  $R_{b,ser} = R_{bn}$  va  $R_{bt,ser} = R_{btn}$ . Chunki betonning siqilishi  $\gamma_{bc}$  va cho'zilishi  $\gamma_{bt}$  dagi ishonchlilik koeffitsienti birga teng deb olinadi, betonning ish sharoiti koeffitsienti esa faqat quyidagi hollardagina hisobga olinadi:

- ko'p karrali takroriy yuklar ta'siri ostida bo'lgan temirbeton

- elementlarni yoriqlar hosil bo'lishiga hisoblashda ( $R_{bt,ser} = R_{btn}, \gamma_{b4}$ );
- og'ma yoriqlar paydo bo'lishiga hisoblashda ( $R_{bt,ser} = R_{btn}, \gamma_{b4}$ ).
- Ko'p karrali takroriy yuklar ta'siri ostida bo'lgan temirbeton elementlarni og'ma yoriqlar paydo bo'lishiga hisoblashda ikkita ish sharoiti koeffitsienti e'tiborga olinadi ( $R_{bt,ser} = \gamma_{bl}, \gamma_{b4} = R_{bm}$ ).

**Beton deformatsiyasi** [1, 2, 7, 8, 9, 11]. Materialning deformatsiyasiga baho berishda ikkita miqdordan: normal kuchlanish  $\sigma$  va nisbiy deformatsiya  $\varepsilon$  dan foydalanamiz (1.1-rasm). Umumiyl holda betonning to'liq deformatsiyasi elastik va plastik qismlardan tashkil topadi:  $\varepsilon_b = \varepsilon_{el} + \varepsilon_{pl}$ , bu erda  $\varepsilon_{el}$  – elastik deformatsiya;  $\varepsilon_{pl}$  – plastik deformatsiya. Betonning ko'p karrali yuklanishi va yukdan bo'shalishi holatida  $\varepsilon_{ep}$  – yuk to'liq olingandan so'ng elastik qaytish deformatsiyasi (1.1-rasm).

**Beton deformatsiyalari moduli.** Materiallar qarshiligi fanidan ma'lumki, elastiklik chegarasida kuchlanish  $\sigma$  bilan nisbiy deformatsiya orasidagi bog'lanish chiziqli qonuniyatga ega. Chiziqli bog'lanish hisob ishlariada katta qulaylik yaratadi. Biroq, beton bir jinsli material bo'limganligi sababli  $\sigma$  bilan  $\varepsilon$  orasidagi bog'lanish chiziqli emas (1.1-rasm). Grafikni boshlang'ich qismidagina  $\sigma - \varepsilon$  bog'lanish chiziqli xarakterga ega; kuchlanish ortgan sari egri chiziq to'g'ri chiziqdan uzoqlasha boradi. Bu hol temirbeton konstruksiyalarini loyihalashda ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi.



1.1-rasm. Betonning "kuchlanish – deformatsiya" umumiyl diagrammasi

Betonning siqilishidagi boshlang'ich elastiklik moduli (kuch bir zumda quyilgan hol uchun) quyidagicha ifodalanadi:

$$E_b = \tan \alpha_o = \sigma_b / \varepsilon_{el} \quad (1.3)$$

Egri chiziqqa o'tkazilgan urinma yoki kesuvchi bilan gorizontal o'q orasidagi burchak tangensi  $\tan \alpha$  materialning deformatsiya modulini ifodalaydi.

Cho'zilishda ham siqilishda ham kuchlanish-deformatsiya diagrammasi egri chiziqli ekanligi ma'lum. Betonning siqilish va cho'zilishdagi boshlang'ich elastiklik modullari bir-biridan kam farq qiladi, shu boisdan amalda ularni bir xil olish mumkin (1.1-rasm).

B20 – B50 sinfli oddiy betonning elastiklik moduli 27000...39000 MPa oralig'ida bo'ladi, bu po'latning elastiklik modulidan 5...8 marotaba kam.

Beton uchun Puasson koeffitsientining boshlang'ich qiymati  $\nu = 0,2$  bo'lib, bu qiymat kuchlanish ortishi bilan ortib boradi. Betonnig siljish moduli  $G = E_b/2(1+\nu)$  ga yoki  $0,4 E_b$  ga teng.

Xulosa qilib aytganda, betonning deformatsiyasi, bir tomondan, betoning tarkibiga, mustahkamligi va zichligiga, to'ldiruvchilar va sementning elastik-plastik xossalariiga, boshqa tomondan, kuchlanish holatlariga, yukning qiymati va davomiyligi hamda iqlim sharoitiga bog'liqdir.

**Beton deformatsiyasining chegaraviy qiymatlari** [12–14]. Betonning sinishi oldidan sodir bo'lgan deformatsiya miqdori chegaraviy deformatsiya deyiladi. Ular betonning mustahkamligiga, tarkibiga va yukning qo'yilish muddatiga bog'liq bo'ladi. Mustahkamlik oshishi bilan u kamayadi, yukning qo'yilish muddati oshishi bilan esa u ham oshadi. Tajribalar asosida betonning chegaraviy siqilish deformatsiyasi  $\varepsilon_{bu} = (0,8...3) \cdot 10^{-3}$ . Hisoblashlarda  $\varepsilon_{bru} = 2 \cdot 10^{-3}$ , yukning uzoq ta'sir etishida esa  $2,5 \cdot 10^{-3}$  qabul qilinadi. Betonning chegaraviy cho'zilishi 10...20 marta siqilishidan kichik va u o'rtacha  $-1,5 \cdot 10^{-3}$  qabul qilinadi.

**Betonning kirishishi va tob tashlashi. Kuchlanishlar kamayishi (relaksatsiyasi).** Betonning muhim xossalardan biri uning hajmiy o'zgarishidir. Bunday o'zgarish sementning suv bilan birikishi chog'ida ro'y beradigan fizik-kimyoviy jarayonlar, betondagi namlikning o'zgarishi (havoda qotganda namning bug'lanishi, suvda qotganda namlikning ortishi), qotish jarayonida o'zidan issiqlik ajralishi, tashqi muhit haroratining o'zgarishi va, nihoyat, tashqi yuklarning ta'siri natijasida vujudga keladi.

Beton hajmining o'zgarishga olib keladigan sabablardan biri – kirishishdir (usadka). Kirishishning miqdori  $\varepsilon_{sl}$  sement turi, beton tarkibi, uni yotqizish sharoiti, muhitning namligi va harorati kabi omillarga bog'liq bo'lib, o'rtacha qiymati kirishishda  $0,3 \text{ mm/m}$  va bo'rtishda  $0,10 \text{ mm/m}$  atrofida bo'ladi. Beton armaturalansa, uning kirishishi ham, bo'rtishi ham kamayadi.

Kirishish deformatsiyasi vaqt o'tgan sari kamaya boradi. Ayni paytda

uzoq muddat davom etishi mumkin. Kirishish sirtdan boshlanib, beton qurigan sari ichkarilab boradi. Quyosh nurlari ta'sirida beton tez qurisa (Markaziy Osiyo sharoitida aynan shunday bo'ladi), uning sirtida yoriqlar paydo bo'ladi.

Betonga uzoq vaqt mobaynida yuk yoki kuchlanish (shu jumladan harorat, cho'kish va boshqalardan hosil bo'lgan kuchlanish) lar ta'sir etganda, vujudga keladigan noelastik deformatsiya tob tashlash (polzuchest) deb ataladi. Uzoq vaqt davomida vujudga kelgan tob tashlash deformatsiyalari qisqa muddatli kuchlar deformatsiyasidan bir necha marta katta bo'lishi mumkin. Betonning tob tashlashi katta amaliy ahamiyatga ega, shuning uchun ham konstruksiyalarni hisoblash va loyihalashda u albatta e'tiborga olinadi.

Betonning tob tashlashi chiziqli yoki chiziqsiz bo'lishi mumkin. Chiziqli tob tashlashda kuchlanish bilan deformatsiya orasidagi bog'lanishni chiziqli deb qaralsa bo'ladi. Bunday bog'lanish siuvchi kuchlanish uncha qatta bo'limgan hollarda, masalan  $\sigma_b \leq 0,5R_b$ , chegarasida uchraydi. Kuchlanish kattaroq bo'lgan hollarda tob tashlash deformatsiyasi chiziqsiz bo'ladi: bunda deformatsiya kuchlanishga qaraganda tezroq o'sib boradi.

Betonning chiziqli tob tashlashi vaqt o'tishi bilan kirishishiga o'xshab so'nib boradi. Yuqori darajadagi kuchlanishlarda (chiziqsiz tob tashlash) yuqorida aytilgan hodisalardan tashqari betonda mikroyoriqlar paydo bo'ladi va o'sib boradi. Bu hol qaytmas jarayon hisoblanib, deformatsiyaning tez o'sib borishiga olib keladi.

Betonning kirishishiga ta'sir etgan omillar tob tashlash miqdori va rivojiga ham ta'sir etadi. Tajribalarning ko'rsatishicha, beton tarkibida sement va suv miqdorini oshirilishi uning kirishishi va tob tashlashini kuchaytiradi. Elastiklik moduli katta bo'lgan to'ldirgichlar ishlatsila, muhit namligi oshirilib, harorat pasaytirilsa, konstruksiya hajmi (ko'ndalang kesim o'lchamlari) kattalashtirilsa, betonning kirishishi va tob tashlashi kamayadi.

Betonning tob tashlashiga kuchlanish holati, kuchlanish miqdori, yuklanish vaqtidagi uning yoshi va boshqalar ta'sir etadi. Tob tashlash hodisasi bilan kuchlanishlar relaksatsiyasi (kamayishi) tushunchasi orasidagi uzviy bog'lanish bor. Betonning boshlang'ich deformatsiyasi o'zgarmas bo'lib, vaqt o'tishi bilan undagi kuchlanishlarning kamayishi hodisasi **kuchlanishlar relaksatsiyasi** deb ataladi. Relaksatsiya sharti  $\varepsilon_b = \varepsilon_{el} + \varepsilon_{pl} = \text{const}$  ko'rinishida ifodalanadi. Kuchlanishlar relaksatsiyasi ham tob tashlash singari vaqt o'tishi bilan so'nib boradi.

**Betonning qotishiga va tuzilishiga quruq, issiq iqlimning ta'siri** [1, 2, 7, 8, 9, 11]. Hozirgi kunga qadar quruq? issiq iqlim sharoitida betonning

uzoqqa chidamliligi bo'yicha to'liq ilmiy asoslangan talablar ishlab chiqilmagan, asosiy e'tibor uning mustahkamligiga qaratib kelinmoqda. Yilning issiq davrlarida haroratning balandligi va nisbiy namlikning kamligi tufayli beton tarkibidan suv qochib, sementning gidrotatsiyasi to'laligicha amalga oshmaydi va beton tegishli fizik-mexanik xossalari olib ulgurmaydi. Shu sababli temirbeton konstruksiyalarini tayyorlashda betonning tarkibidagi suvni saqlash, quyosh radiatsiyasi va boshqa zararli ta'sirlardan asrash kabi turli tadbirlarni amalga oshirishga to'g'ri keladi. Quruq issiq iqlim sharoitida qurilishning sifatini oshirish maqsadida, tez quotadigan o'ta mustahkam portlandsementlar va engil g'ovakli to'ldirgichlar ishlab chiqarishni keng yo'lga qo'yish talab etiladi. Respublikamizda g'ovakli engil to'ldirgichlardan asosan keramzit, agloporit va boshqa ashyolar qo'llaniladi. Bulardan tayyorlangan betonlar qurish jarayonida suvning ma'lum qismini o'ziga shimib, namlikni ushlab turadi; harorat ko'tarilganda, uning bir qismini sarf qiladi. Natijada, sementning gidrotatsiyasi uchun normal holat vujudga keladi.

Betonda turli qatlamlarning suv yo'qotishi turlicha bo'ladi. Tashqi qatlam suvni eng ko'p yo'qotib, ichkarilagan sayin suvning yo'qolishi kamaya boradi. Shu boisdan betonni parvarishlashni asosiy vazifasi betonda suv qochishini va shu tufayli hajmiy deformatsiyalarini vujudga kelishining oldini olishdan iboratdir. Natijada, qotayotgan betondagi salbiy oqibatlarning oldini olish uchun:

- betonning ustiga namlangan yopqichlar (qamish plita, taxta shit, brezent va h.k.) yopiladi;
- beton tarkibidagi to'ldirgichlar engil – g'ovakli to'ldirgichlar bilan almashtiriladi, tez qotuvchi yuqori markali sementlar ishlatiladi, V/S qiymati kamaytiriladi va h.k.

## **1.2. Armaturalarning fizik-mexanik xossalari va ularning konstruksiyalarda qo'llanishi**

**Armaturalarning turlari.** Armaturalar sterjenli va simli armaturalarga bo'linadi. Sirtining shakliga qarab tekis va davriy profilli armaturalar bo'ladi. Davriy profilli armatura tekis armaturaga qaraganda beton bilan mustahkamroq bog'lanadi. Armaturani ishlatish usuliga qarab, u zo'riqtirilgan va oddiy armaturaga bo'linadi. Armatura konstruksiya tarkibida bajaradigan vazifasiga ko'ra ishchi va montaj armaturaga bo'linadi. Ishchi armatura hisoblash yo'li bilan, montaj armaturasi esa konstruktiv mulohazalarga ko'ra o'rnatiladi. Taqsimlovchi armatura ham shartli ravishda montaj armatura turiga qo'shiladi (1.1-jadval).

Temirbeton elementlari kamida 0,05% va ko'pi bilan 3,5% miqdorida armaturalanadi. Armaturalash foizining eng kichik miqdori, armaturelangan elementning cho'zilishga bo'lgan hisobiy qarshiligi sof beton elementning cho'zilishga bo'lgan qarshiligidan kichik bo'lmasligi kerak degan shartdan kelib chiqadi. Armaturalashning maksimal miqdori esa iqtisodiy mulohazalar va hisoblar asosida belgilanadi.

Sterjenli armatura A harfi va rim-raqami (raqam qancha katta bo'lsa, mustahkamligi shuncha yuqori bo'ladi), sovuq usulda tortilib pishitilgan simli armatura esa B harfi (вложение – cho'zish – tobora kichrayadigan qator teshiklardan o'tkazib ingichkalash) bilan belgilanadi. Asosiy mexanik tavsiflari va pishitish (puxtalash) usullariga bog'liq holda ular quyidagi sinflarga bo'linadi [1, 2, 8, 9, 11]:

Jadval 1.1

Egildigan po'lat armatura	Sterjenli	A-1, A-II, A-III, A-IV, A-V, A-VI – sinfli issiq ishlov berilgan (silliq)
		At-III, At-IV, At-V, At-VI – termik va termomexanik pishitilgan (puxtalangan)
		A-II <sub>B</sub> , A-III <sub>B</sub> – cho'zish yo'li bilan pishitilgan
Simli	B-I	sovutq holda cho'zilgan simli (oddiy silliq); Vr-I (davriy profilli)
		Yuqorimustahkamli silliq B-II sinfli va davriy profilli Bp-II sinfli
Arqon (Kanat)	7 ta simli K-7 sinfli	
		19 ta simli K-19 sinfli

Armaturaning har bir sinfiga mustahkamligi va deformatsiyalari bir xil bo'lgan, ammo kimyoviy tarkibi har xil bo'lgan po'lat mos keladi. Masalan, A-II sinfli armatura VStb (BCTб), 18G2S (18Г2С) va 10GT (10ГТ) markali po'latdan, A-III sinfli armatura 25G2S (25Г2С), 35GS (35ГС) markali po'latdan va sh.o'. sterjenli armaturalar zavoddan diametri 6...80 mm qilib chiqariladi.

A-I va A-III sinfli armatura po'lati asosan ko'ndalang va montaj (konstruktiv) armatura, hamda suv va gaz bosimi ostida ekspluatatsiya qilinadigan konstruksiyalarda esa ishchi armatura sifatida ishlatiladi. Oldindan zo'riqtirilgan konstruksiyalarda zo'riqtiriladigan armatura sifatida ko'pincha At-V, At-VI, uzunligi katta bo'lganda esa V-II, Vr-II, K-7 sinfli po'lat qo'llaniladi. Bu armaturalarni suv bosimi ostida joylashgan konstruksiyalarda qo'llash tavsiya etiladi. Yig'ma elementlarning montaj (ilgak) halqalari uchun VStZkp2 (BCTЗkp2) va VStZpsb (BCTЗпсб) markalarning A-I sinfli armaturali po'latni qo'llash tavsiya etiladi.

Oddiy armatura sifatida A-I, A-II, A-III, va Bp-I, V-I sinfli armaturalardan foydalilaniladi. Zo'riqtiriladigan armatura sifatida esa A-IV,


A-V, A-VI, At-V, At-VI, Bp-II, B-II va K-7, K-19 sinfli armaturalar ishlataladi.

Agar sterjenli armatura kuchlanish ostida zanglash (korroziya) ga nisbatan o'ta turg'un bo'lsa, uning sinfiy belgisiga «K» harfi qo'shiladi (masalan, At-IVK); agar payvandga monand bo'lsa, «C» harfi qo'shiladi (masalan, At-IVC). Agar armaturada har ikkala hususiyat mavjud bo'lsa, «CK» harflari qo'shiladi (masalan, At-VCK).

Temirbeton konstruksiyalarida davriy profilli sterjenli armaturalar keng qo'llaniladi. Armatura sirtining davriy profilli shakli, ya'ni uning g'adir-budurligi, beton bilan yopishuvini yanada oshiradi, bu esa, o'z navbatida, beton cho'zilishga ishlaganida yoriqlarning kengayishini kamaytiradi, armaturani beton bilan biriktiradigan maxsus choralar ko'rishdan xalos etadi.

Armaturalarning fizik-mexanik xossalari po'latning kimyoviy tarkibi, ishlab chiqarish va ishlov berish usullariga bog'liq. A-I, A-II, A-III sinfli yumshoq po'latlarda uglerod 0,2...0,4% ni tashkil etadi. Uglerodning miqdori oshirilsa, po'latning mustahkamligi ortib, qayishqoqligi va payvandlanuvchanligi kamayadi. Agar po'lat tarkibiga marganets va xrom qo'shilsa, uning qayishqoqligi kamaymagan holda mustahkamligi ortadi; kremniy qo'shilsa, po'latning mustahkamligi ortib, payvandlanuvchanligi yomonlashadi.

Po'latning mustahkamligini qizdirib toplash yoki oddiy cho'zish yo'li (1.2-rasm 1-egrilik) bilan oshirsa ham bo'ladi. Po'latni qizdirish yo'li bilan toblaganda, uni 800...900°C ga qadar qizdiriladi, so'ngra keskin sovutiladi; keyin yana 300...400°C ga qadar qizdirib, asta sovutiladi (4-egrilik). Buning natijasida po'lat armaturaning mustahkamligi ortadi [1, 2, 8, 9, 11].



1.2-rasm. Armatura po'latining xarakterli diagrammalari:  
2 – oqish maydonchasi mavjud; 3 va 4 – oqish maydonchasi yo'q

714508

Armaturali po'latni mexanik yo'l bilan puxtalash uni yuklash va yukdan bo'shatish (sovuj holatda uni qayta-qayta cho'zish) ga, ya'ni uni  $\sigma_u$  kuchlanishdan katta bo'lgan  $\sigma_s$  kuchlanish bilan cho'zish orqali uni mutanosiblik chegarasini oshirishga asoslangan.  $\sigma_s$  kuchlanish bilan qayta cho'zilganda, uning oquvchanlik chegarasi ko'tariladi (2-egrilik). Armaturali sterjenni ketma-ket kichrayadigan teshikdan zo'rlab sug'irish yo'li bilan ham mexanik usulda puxtalasa bo'ladi. Bunda  $\sigma_s - \varepsilon_s$  bog'lanish deyarli armatura uzilishigacha to'g'ri chiziqli bo'lib qoladi (3-egrilik) va bu uning me'yoriy qarshiligi qilib qabul qilinadi.

Po'lat armaturani 3...5 % ga cho'zilsa, uning ichki kristall tuzilishi ma'lum darajada o'zgaradi, bu o'zgarish armatura mustahkamligini oshiradi. Armatura qayta cho'zilsa, cho'zilish diagrammasi boshlang'ich diagrammadan farq qiladi (1.2-rasm).

Ma'lumki, po'latning asosiy fizik-mexanik xossalari material namunasini cho'zishga sinash jarayonida olinadigan «kuchlanish-deformatsiya» ( $\sigma - \varepsilon$ ) diagrammasida o'z aksini topadi. Bu diagrammaga ko'ra armatura po'latlari quyidagi turlarga bo'linadi:

- oqish chegarasi aniq ko'rindigan yumshoq po'latlar;
- oqish chegarasi aniq ko'rindigan o'tda toblangan po'latlar;
- deyarli uzilgunga qadar " $\sigma - \varepsilon$ " diagrammasida chiziqli bog'lanishga ega bo'lgan o'ta mustahkam po'latlar.

Po'latning asosiy mustahkamlik tavsiflari quyidagilardir:

- birinchi turdag'i po'latlar uchun oqish chegarasi  $\sigma_u$ , ya'ni elastiklik chegarasida bo'ladi (1.2-rasm, 2);
- ikkinchi va uchinchi turdag'i po'latlar uchun shartli oqish chegarasi  $\sigma_{0,2}$  bo'lib (bu kuchlanishning shunday qiymatiki, namunaning qoldiq deformatsiyasi 0,2% ni tashkil etadi), shartli elastiklik chegarasi  $\sigma_{0,2}$  bo'ladi (1.2-rasm, 4);
- po'latning vaqtinchalik qarshiligi (mustahkamlik chegarasi) –  $\sigma_{su}$ , uzilishidagi chegaraviy uzayish va h.k.

Kam uglerodli po'latlarda oqish maydonchasi mavjud bo'lib, plastikligi 20% ni ( $\varepsilon_n = 20\%$ ) tashkil etadi. Mo'l uglerodli po'latlarni plastikligi ikki marotaba kam bo'ladi. Chegaraviy uzayishi qisqa bo'lgan armaturalar mo'rt bo'lib, yuk ta'sirida birdaniga uzilishi va konstruksiya buzilishi mumkin. Plastiklik xossalari yuqori bo'lgan po'latlar temirbeton konstruksiyalarining ishlashi uchun qulay sharoit yaratadi; statik noaniq tizimlarda, shuningdek, dinamik kuchlar ta'sirida buning ahamiyati ayniqsa kattadir.

Me'yoriy hujjalarda armaturaning uzilishidagi nisbiy uzayishining eng kam miqdori beriladi. Bu qiymatlar A-I – 25%; A-II – 19%; A-III – 14%;

A-IV – A-VI – 6% ga va termik mustahkamlangan armaturalar uchun esa At-IV; At-V; At-VI nisbiy uzayishi 8,7 va 6% ga teng.

Yumshoq po'latlar (A-I, A-II, A-III) oddiy haroratda tob tashlamaydi. Yuqori uglerodli armaturalar esa betonga o'xshab tob tashlash xususiyatiga ega. O'tda toblangan armaturalarni payvandlash yaramaydi, chunki bunda armatura qiziganda mustahkamligi pasayadi.

**Armaturaning me'yoriy va hisobiy tavsiflari** [12–14]. Armaturaning me'yoriy qarshiligi  $R_{s,ser}$  sterjenli armaturalar uchun oquvchanlik chegarasining (fizik  $\sigma_u$  yoki shartli  $\sigma_{0.2}$ ), simli armaturalar uchun – uzelishdagi vaqtinchalik qarshiligi  $\sigma_u$  ning eng kichik nazorat qilinadigan qiymatiga teng qilib qabul qilinadi (ta'minlanganligi 0,95 dan kichik bo'lmasligi kerak).

Armaturaning hisobiy qarshiligi chegaraviy holatning ikkinchi guruhi uchun  $\gamma_s = 1$  da o'matilgan. Sinfi A-IV va undan yuqori bo'lgan armaturalar bilan jihozlangan temirbeton elementlarni hisoblashda  $\xi \leq \xi_R$  shart bajarilganda, quyidagi ish sharoiti koefitsienti kiritiladi:

$$\gamma_{s6} = \eta - (\eta - 1)[(2\xi/\xi_R) - 1] \leq \eta, \quad (1.4)$$

bunda  $\eta$  – A-IV sinfli armatura uchun  $\gamma_{s6}$  koefitsientning maksimal qiymati  $\eta = 1,2$ ; A-V, B-II, Bp-II, K-7 va K-19 sinflar uchun –  $\eta = 1,5$ ; A-VI sinf uchun –  $\eta = 1,1$ .

**Armaturalash usullari** [1, 2, 7, 8, 9, 11]. Temirbeton elementlari payvandlangan sim-to'r yoki karkaslar, alohida sterjenlardan to'qilgan armaturalar, bikr prokat profillar va boshqalar bilan armaturalanadi.


Payvandlangan sim to'rlar asosan plitali konstruksiyalarda ishlataladi. Ishchi armaturalarni joylashishiga qarab, ular uch xil bo'ladi: 1) bo'ylama ishchi armaturali; 2) ko'ndalang ishchi armaturali; 3) ikki yo'nalishda ham ishchi armaturali.

Standart sim to'rlar diametri 4...5 mm bo'lgan Bp-I sinfli (1.3-rasm, a, d, e) va diametri 6...8 mm bo'lgan A-III sinfli, hamda diametri 40 mm gacha bo'lgan A-I, A-II, A-III sinfli armaturalardan tayyorlanadi. Sim to'rlar yassi va o'ramli (rulonli) bo'ladi (1.3-rasm, b). O'ramli sim to'rlarning maksimal diametri 5 mm gacha bo'ladi, yassi sim to'rlarning uzunligi 9 m gacha bo'ladi.


Payvandlangan karkaslar chiziqli elementlarni (to'sin, ustun va sh. o'. ) armaturalash uchun ishlataladi. Ular yassi va fazoviy bo'ladi (1.4, a, b, d va 1.5-rasmlar).

Agar oldindan zo'riqtirilmagan ishchi armatura sifatida A-IV, A-V sinfli va termik puxtalangan armaturalar (payvandlanmaydigani) ishlatsa,


to‘qilgan karkaslar qo‘llaniladi (1.4, f, g, h-rasm).



1.3-rasm. Payvandlangan sim to‘rlar



1.4-rasm. YAssi payvandlangan karkaslar



1.5-rasm. Temirbeton elementlarining armaturasi:  
 1 – bo‘ylama armatura; 2 – xomutlar; 3 – bukma sterjenlar; 4 – montaj armatura;  
 5 – montaj ilgak; 6 – quyma detal; 7 – to‘sin; 8 – ustun

**Qurilish konstruksiyalariga qo‘yiladigan talablar.** Bino (inshoot) larga quyidagi talablar qo‘yiladi: binolar mustahkam, bikr, ustivor, uzoqqa chidamli bo‘lishi, sanitar-gigiena, olovga qarshi, iqtisodiy va arxitektura talablarini qondirishi lozim. Konstruksiyalarning uzoqqa chidamliligi uni foydalanishlik sifatlarini yo‘qotmasdan xizmat qilish muddati tushuniladi; uzoqqa xizmat qilish bo‘yicha binolar uch darajali bo‘ladi: 100 yil va undan ko‘p xizmat qiladigan binolar 1-darajali; 50 yildan ko‘p xizmat qiladiganlari 2-darajali va 20 yildan ko‘p xizmat qiladiganlari 3-darajali binolarga kiradi.

Binolar olovbardoshligi bo‘yicha 5 darajaga bo‘linadi, jumladan, I daraja eng yuqori olovbardoshlikka, V daraja esa eng kam olovbardoshlikka to‘g‘ri keladi. I, II va III darajali olovbardoshlikka tosh, beton va temirbeton binolar, IV darajali olovbardoshlikka rastvor bilan suvalgan yog‘och konstruksiyalar, V darajali olovbardoshlikka esa yog‘och konstruksiyalar kiradi.

Hamma bino va inshootlar uzoqqa chidamliligi, olovbardoshligi va foydalanishlik sifatlariga qarab kapitalligi bo‘yicha 4 sinfga bo‘linadi.

**Yuklar va ta’sirlar [12–14].** Ishlash jarayonida konstruksiya materiali turli xil ta’sirlar va turli xil yuklarni o‘ziga qabul qiladi. Ta’sirlar kuch ta’siri bilan (силовые) va kuch ta’sirisiz (несиловые) bo‘lishi mumkin.

Kuchli yuklarga, ya’ni tashqi kuch sifatida ta’sir etadigan yuklarga quyidagilar kiradi:

- foydali yuklar, ya’ni konstruksiya qabul qilishi lozim bo‘lgan yuklar

- (mashina va asbob-uskunalar vazni, texnologik materiallar hamda odamlar og'irligi kabilari);
- zilzila va dinamik kuchlar ta'sirida vujudga kelgan inersion yuklar va hokazo.

Harorat, namlik, radiatsiya, zararli muhit kabi ta'sirlar kuchsiz, ya'ni kuchga bog'liq bo'lmagan ta'sirlarga kiradi.

Temirbeton konstruksiyalarini hisoblash nazariyasi ana shu ta'sirlarning barchasini inobatga ola bilishi zarur.

Hisoblash jarayonida ishtirok etadigan yuklarni belgilashda konstruksiyani mustahkam va, ayni bir paytda, tejamli bo'lishini yodda tutishimiz lozim. Yuklar konstruksiyaning vazifasiga qarab turlarga ajratiladi. Me'yoriy yuklarning turlari "Yuklar va ta'sirlar" deb nomlangan qurilish me'yorlari va qoidalarida (QMQ 2.01.07-97) batafsil bayon etilgan [12]. Me'yoriy yuklar konstruksiyaning tejamlilik talablariga javob beradigan tarzda belgilanadi.

### 1.3. Transport qurilishi uchun materialshunoslik

Transport qurilishi uchun o'ta muhim, materialshunoslik kabi tarmoq fani yutuqlari qurilish materiallari tarmog'i bosib o'tgan butun taraqqiyot yo'lini aks ettiradi. Bu yo'lida asosiy transport qurilishlari, shuningdek qurilish industriyasi oldida qo'yilgan hamda tarmoq muayyan taraqqiyot davriga xos ruhda hal etilgan vazifalar alohida, yodda qoladigan bosqich bo'lib qoldi [10].

Mavzular bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari orasida qurilish materiallari texnologiyalari, transport qurilishi uchun mo'ljallangan buyumlar ishlab chiqarish uslub va uskunalari, energiyaning tejash jarayonlari muhim o'rinn tutadi.

O'tgan asrning 50-yillarida MDH mamlakatlarida temirbeton konstruksiyalar zavodlari qurilishi, ob'ekt oldidagi poligonlarini jihozlash keng yoyildi. SHunga bog'liq holda Xitoy Xalq Respublikasidagi Xanshuy daryosi (Shanshuy shahri yaqinidagi Yanszi irmog'i) ustidagi katta shahar ko'prigi qurilishi, hamda loyihalashtirish va qurilish ishlarida MDH mutaxassislari ishtirok etgan Yanszi daryosi orqali o'tgan ko'priknинг ettita tayanchini tiklash tajribasi bilan tanishish foydadan xoli emas. Ilk marotaba ko'prikozlikda temirbeton qoziqlar seksiyalari zavodlarda sentrifugalash (markazdan qochirma kuch tasirida qorishmani mexanik ravishda ajratish) usuli bilan ishlab chiqarildi. Diametri 1,55 m ga teng bo'lgan qobiqlarni dala sharoitida ommaviy tayyorlash amaliyoti ularni imkoniyatlar va qurilish muddatlari cheklangan hollarda ob'ekt oldi

poligonlarida ishlab chiqarish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi. Sentrifugalangan yig'ma qoziqlarni katta uzunlikdagi flanetsli (gardishli) choklardagi montaj choklari bilan qo'llash imkoniyati paydo bo'ldi. Qoziqlar tayyorlash jarayonida beton quyishni sentrifugalash natijasida uning mustahkamligi umumiy vibratsiyalashga nisbatan 40...50% ga ortadi. Sentrifugalangan qoziqlarning ko'p sonli statik sinovlari ular juda katta yuk ko'tarish imkoniyatiga egaligini ko'rsatdi. Qoziqlarlar betondagi zo'riqish  $400\ldots 500 \text{ kg/sm}^2$  etganidagina sinib, qoziqqa tushadigan kritik yuklar esa 300 tn va undan ko'proqni tashkil qildi [10].

Urushdan keyingi yillarda yo'l xo'jaligini kuchaytirish va rekonstruksiya qilishning o'ta muhim chora-tadbirlaridan biri – temirbeton shpala (temir yo'lda relslarning tagiga yotqiziladigan to'sin) larni keng joriy qilishdan iborat bo'ldi. Temirbeton shpalalarni ishlab chiqarish va yo'llarga o'rnatish 1955 yilning ikkinchi yarmidan boshlandi. Dastlabki uch yil ichida 500 ming shpala tayyorlanib, ulardan kattagina qismi foydalanishda edi. Temirbeton shpalalarni tayyorlash uchun bir qator zavodlarda ishlab chiqarishning stendli va oqimli-agregat texnologiyasi loyihalashtirilib, amalga oshirildi. 1955 yilda Silikatnaya stansiyasida (Rossiya) temirbeton konstruksiyalar, shpalalar zavodi ishga tushirildi. Sexlardan birida mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan, zo'riqtirilgan armaturali yaxlit brusok shpalalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. SHunga bog'liq ravishda betonlar va bog'lovchi materiallar laboratoriyasida tor (struna) li beton shpalalar tayyorlashning stendli texnologiyasi ishlab chiqildi. Asosiy e'tibor beton qorishmasini stendda zichlashtirishga qaratilib, bu imkon qadar qo'llanayotgan beton bikrligini oshirish hamda bir vaqtning o'zida beton xizmat qilish muddatini oshirish bilan sement sarfini kamaytirish maqsadida amalga oshirildi. Shpalalarni stendli texnologiyasi uchun beton qorishmasining matritsa hajmida torlar orasida bir tekis taqsimlanishi, hamda uning zichlanishini ta'minlaydigan pichoqli vibratorlar taklif etildi. Zichlashning ana shunday usuli  $1 \text{ m}^3$  betonga 350 kg sement va 140 l suv sarflagan holda shpala tayyorlash imkonini berdi [10].

Yana bir o'ta muhim vazifa – korxonalarda yuqori darajada mustahkam simli armaturadan kontakt tarmog'inining dastlab zo'riqtirilgan tayanchlarini ishlab chiqarish texnologiyasini o'zlashtirishdan iborat edi. Ommaviy tartibda bunday tayanchlar faqat 4, 5 va 6 tm normativ bukuvchi momentga ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, qurilish sohasi tobora ko'proq 6 tm dan quvvatli tayanchlarga ehtiyoj sezal boshlagan edi. Dastlab zo'riqtirilgan tayanchlarini ishlab chiqarish uchun St5 (Ct5) va 25G2S (25Г2С) markali po'latdan tayyorlangan davriy profilli armaturani avval uni mustahkam-lagan holda qo'llash taklif etildi. Texnologiya jarayoniga o'zgartirishlar va

aniqliklar kiritilishi temirbeton buyumlari korxonalarida ana shunday tayanchlarning sanoat miqyosida ishlab chiqarilishini yo'lga qo'yish imkonini berdi.

O'tgan asr o'rtalariga kelib ko'priksozlar tomonidan zavodlar va poligonlarda stend texnologiyasi asosida ko'priq oraliq qurilmalarining zo'riqtirilgan temirbeton to'sinlarini tayyorlash bo'yicha katta tajriba to'plandi. Oraliq qurilmalarning zo'riqtirilgan temirbeton to'sinlarini poligonda oqimli-agregat usulida betonlashdan so'ng armatura tortish bilan tayyorlash 1958–1959 yillarda Moskvadagi Krasnaya Presnya yo'l o'tkazgichi qurilishida muvaffaqiyat bilan qo'llandi. SHu vaqtning o'zida Mostotrest Moskva yo'lining Beskudnikovo stansiyasi yaqinida poligon yaratib, unda oqimli-agregat texnologiyasi bo'yicha ko'priq oraliq qurilmalarini ishlab chiqarish ko'zda tutgan edi (zavodning hozirgi nomi: «Mokon»). Bu texnologiya armaturani ham betonlashdan oldin, ham undan keyin taranglash (tortish) imkonini berdi. Bu ishlab chiqarish sxemasini universal qilib, taranglash jarayonlarini keng mexanizatsiyalash uchun sharoit yaratdi [10].

Yig'ma oraliq qurilmalarni tayyorlash tajribasi o'tgan asrning 70-yillarida yanada taraqqiy etdi. Kalach shahri yaqinida Don daryosi ustiga qurilgan avtomobil ko'prida uzunligi 854 m, doimiy balandligi 3,16 m ga teng bo'lgan 240 ta blokdan tashkil topgan uzlusiz qutisimon oldindan zo'riqtirilgan temirbeton oraliq qurilma qo'llanildi. Bloklarning texnologik xususiyatlari, tayyorlash texnologiyasini qisqa muddatda o'zlashtirish, hamda ular sifatini oshirib borish zaruratini hisobga olib, bloklarni ishlab chiqarish maqsadida Qurilish konstruksiyaning markaziyligi ilmiy tadqiqot instituti (ЦНИИС, Moskva) tomonidan ishlab chiqilgan beton qotishini tezlashtirishning ekzotermik usuli va bukiluvchan vibropoddonli qolip asos qilib olindi. Uzlusiz oraliq qurilma qutisimon bloklarini yangicha texnologiya bo'yicha tayyorlash tajribasi konstruksiylar sifatini ta'minlagan holda poligon sharoitida industrial ishlab chiqarish imkoniyatini berdi.

Yig'ma elementlardan qurish texnologiyasi bilan birga sirpanuvchi opalubkada betonlash texnologiyasi ustida ham ishlar olib borildi. Ob daryosi ustidan o'tgan temir yo'l ko'prigi loyihasida estakada qismi tayanchlarini diametri 3,6 m, devorining qalinligi 15 sm bo'lgan 3,5 m balandlikka qadar suyuq (sementi kam bo'lgan) beton bilan to'ldiriladigan yig'ma temirbeton qobiqlardan ko'tarish ko'zda tutilgan edi. Metallni tejash va qurilish qiymatini kamaytirish maqsadida Ko'priq qurilish tresti joyning o'zida ko'p marotaba ishlatishga mo'ljallangan ko'chma metall qoliqlar ichida betonlanadigan qobiqlar yordamida tayanchlarni tiklash usulini ishlab chiqdi. Ko'priq qurilish amaliyatida bunday qolip betonlash

va cho'ktirish usulini ketma-ket ishlatgan holda qobiqlar va tushuriladigan yirik quduqlarni tiklash joyining o'zida tayyorlash maqsadida, foydalanish ko'p hollarda tejamkor va maqsadga muvofiq usul ekanligiga qaramay, kamdan-kam qo'llanib kelingan.

Xalq xo'jaligining moddiy va energetik resurslarni tejash bo'yicha tutgan yo'li qurilish materiallarini ishlab chiqarishdagi texnik va texnologik echimlarda o'z aksini topdi. Qattiq beton qorishmalari qo'llanishi yangi vibratsion texnologiyalarning ishlab chiqilishini taqozo qildi. Bunda transport qurilish vazirligi korxonalarida eng og'ir va eng yirik gabaritli temirbeton buyumlar ishlab chiqarilishini hisobga olish talab etilardi. Vazirlikdagi yig'ma temirbetonning solishtirma hajmi uning mamlakat bo'yicha ishlab chiqarilganining taxminan 5% ini tashkil qilgan. Shuning uchun transport qurilish vazirligi korxonalarining shakl berish uskunalarini: SMJ-164 (CMK-164) vibromaydoncha, vibrorezonans qolip, zarbli-vibratsion maydoncha va shokstollarni yaratishdagi faol ishtiroti zarur bo'lib qoldi.

Zichlashning an'anaviy vibratsion uslublaridan tashqari beton texnologiyasida beton yotqizishning muqobil variantlari tobora ko'proq qo'llana boshlandi. Masalan, kichik hajmli temirbeton buyumlarni (trotuar plitalari, ko'pri konuslariga tosh yotqizish va suv havzalari qirg'oqlarini mustahkamlash uchun plitalar) an'anaviy vibratsion texnologiya bo'yicha ishlab chiqarish ko'p energiya hamda ko'p sonli turli forma (shakl) lar talab qilgan. Bunday buyumlarni yasash uchun shakldan endi olingan mahsulotlarni shakl beruvchi vakuumshit yordamida zudlik bilan chiqarib olinadigan vibrovakuumlash uslubi taklif etildi. Bunday uslubning ustuvor jihat - formalarga bo'lgan minimal ehtiyojdan iborat bo'lib (bor-yo'g'i bir-ikkita qolip talab etiladi), bu qurilish maydonchasi sharoitida juda muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, qumli betonlar ishlab chiqarish uchun mahalliy materiallar, asosan qumdan foydalanish imkonini paydo bo'ldi.

Beton texnologiyasining eng muhim vazifalaridan biri butun qurilish jarayoni davomida uning sifat ko'rsatkichlarini saqlab qolishdan iborat. Tajribadan ma'lum bo'lishicha, shag'al tarkibidagi tosh ushoqlari va kunkuning o'zgaruvchan miqdori, qumdag'i graviy fraksiyalarining turli xilligi, umuman, beton qorgichga navbatdagi aralashmaga kelib tushayotgan to'ldirgichlar donalari tarkibining keskin turli-tumanligi beton tarkibini boshqarish, yotqizilgan betonning butun hajmi bo'ylab xossalari bir xillagini ta'minlash, tiklanayotgan inshootlarning tegishli konstruksiyalarini uzoq muddat ishlashi va foydalanishdagi ishonchliligin kafolatlash imkonini bermaydi. To'ldirgichlarning qorishmadan qorishmaga o'zgarib turgan donadorlik tarkibi tayyorlangan beton qorishmasini yotqizish

qulayligini “yashirin” suv hisobiga ta’minlashga majbur qilib, bu o‘z o‘rnida sement to‘ldirgich fraksiyalarining optimal nisbatiga muvofiq sarfiga nisbatan (15...20%) ko‘proq sarflanishini taqozo etadi. Dozatorlarga uzatilayotgan to‘ldirgichlarning bir turliligi va sifatini ta’minlaydigan, eng ishonchli, texnik va iqtisodiy jihatdan eng ma’qul usul – ularni oraliq ombor va transport jarayonlarisiz sarf bunkerlariga bevosita uzatish oldidan don tarkibini barqarorlashtirishdan iborat. BAM (БАМ) da o‘tkazilgan kompleks tadqiqotlar natijasida mahalliy qum-graviy aralashmalaridan, shu jumladan sun’iy inshootlar uchun ham sovuqqa bardoshli to‘ldirgichlar olish shart-sharoitlari aniqlab olindi [10].

O‘tgan asrning 70-yillarida, metall kamyobligi va metall oraliq qurilmalarni ishlab chiqarish uchun quvvat etishmasligini hisobga olib, transport sohasi quruvchilari oldida temir yo‘l maqsadlari uchun B50...B60 sinfli, yuqori darajada mustahkam betonlardan uzunligi 34,2 m li oraliq qurilmalarni tayyorlash vazifasi qo‘yildi. QKMITI texnologiyasi bo‘yicha 3-ko‘prik qurilish tresti (Moskva) tomonidan B50 hamda B60 sinfli betonlardan tajriba tariqasida poligonal tutamli oltita to‘sish ishlab chiqarildi [10]. Tayyorlangan to‘sishlar Polotsk shahri yaqinida Polota daryosi ustidan o‘tgan ko‘prikka o‘matildi. Oraliq qurilmadan bir yil foydalanimandan so‘ng o‘tkazilgan tadqiqotlarda biron-bir nuqson aniqlanmay, bu yuqori mustahkamlikka ega betonlardan texnologiya jihatidan eng murakkab yig‘ma konstruksiyalarini sifatli tayyorlash imkoniyatini yana bir bor tasdiqladi.

Olimlarning ishlarida qurilish materiallariga ko‘p energiya talab qiladigan issiqlik yordamida ishlov berish jarayonlariga katta e’tibor qaratildi. Bu ishdagi eng muhim yo‘nalishlardan biri energiya tejaydigan texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni joriy etishdan iborat bo‘ldi. Masalan, qish paytida betonlashni termos usulida bajarish yoki armaturaga neytral bo‘lgan sovuqqa qarshi kimyoviy qo‘sishimchalarni qo‘llash bilan beton konstruksiyalarini isitishga hojat qolmaydi. Ular sanoat va fuqarolik qurilishida keng qo‘llanilib, transport qurilishi sohasida ham muvaffaqiyat bilan ishlatilishi mumkin. Issiqlik va namlikdan himoya qiladigan qolipga joylangan betonni tutib turishning ekzotermik usuli bug‘latishga nisbatan qulaylik beradi, betonning qotishini tezlashtirish hisobiga issiqlik energiyasining kamida 70% qismini tejab qolish imkonini beradi. Ko‘prikning temirbeton konstruksiyalarida yoriqlar hosil bo‘lishining oldini olish maqsadida ularni qish mavsumida sexdan yoki bug‘latish kamerasidan ochiq omborga berib yuborishda so‘nggi yillarda yig‘ma temirbeton zavodlarida harorat shlyuz kameralari qurilib, ularda issiqliq mahsulotlar muayyan vaqt mobaynida, ularning harorati beton va tashqi havo

o‘rtasidagi farq yo‘l qo‘yiladigan darajaga tushguniga qadar tutib turiladi. Hisob-kitoblar buyumlarni buyum joylashdan oldin shlyuz kameralarini har doim ham isitish hojati yo‘qligi, buyumni kameraga joylash oldidan termoishlov sexida biroz saqlashning o‘zi kifoya ekanligini ko‘rsatdi [10].

Temirbeton konstruktsiyalari zavodlari (TKZ) da QKMITI (Moskva) tomonidan ishlab chiqilgan buyumlarni qisman termosda saqlashni keng qo‘llash tavsiya etilib, buning ostida buyumni berilgan haroratga qadar qizdirish va shundan so‘ng kamerada bug‘ uzatmagan holda saqlash tushuniladi [10]. Bunday usul kamera katta to‘siqlarining issiqlikka bardoshliligi va qotishda ajralib chiqadigan issiqlikdan foydalanishga asoslanadi. Buyumni kameraga yuklash koeffitsienti 0,1 dan katta bo‘lganida, 4...6 saat davomida izotermik qizdirish (isitish) haroratiga qadar ushlab turish va keyinchalik bug‘ uzatishni butunlay to‘xtatish etarli bo‘lar ekan. Beton talab etilgan muddatlarda zarur mustahkamlikka ega bo‘ladi. Issiqlik-energiya resurslarini tejashda uskunalar va texnologiya jarayonlarini avtomatlashtirish vositalari katta o‘rin tutishi lozim. Birinchi navbatda bu erda modellashtiruvchi A–351–01 moslamalari joriy etilganligini, hamda nisbatan zamonaviy, QKMITI tomonidan LNPO (ЛНПО) «Burevestnik» bilan birga, beton mustahkamligi to‘g‘risidagi ma’lumot asosida hamda unga issiqlik yordamida ishlov berishni boshqaradigan mikroprotsessor jamlanmalari bazasida ishlab chiqilgan Beton T2 va SPK–430 (СПК–430) moslamalarini qayd etib o‘tish shart [10]. EHM uchun ishlab chiqilgan dasturlar konstruktsiyalarni saqlashning turli harorat rejimlarida issiqlik bilan ishlov berish davrida betonning qotish harorat rejimini oldindan aniqlash imkonini berdi. Dnepropetrovsk ko‘prik temirbeton konstruktsiyalari zavodida ana shunday moslamalardan foydalanib betonga issiqlik yordamida ishlov berishni avtomatlashtirilgan holda boshqarish tizimi joriy etildi. Tizim beton haroratiga qarab issiqlik uzatishni boshqarib, issiqlik tashuvchi to‘xtab qolganida betonga ortiqcha issiqlik berilishiga yo‘l qo‘ymay, buyumlarning berilgan isitish rejimini ta’minlaydi; mavjud harorat qiymatlari va beton mustahkamligini ko‘rsatadigan raqamli indikatsiyani amalga oshiradi; berilgan mustahkamlikka erishgunga qadar buyumni isitish davomiyligiga o‘zgartirishlar kiritadi, betonning amaldagi harorati va mustahkamligini qayd etadi [10].

Qurilish materiallarini ishlab chiqarish uchun muqobil energiya manbalarini izlash transport qurilishidagi beton va temirbeton buyumlariga issiqlik ishlovi berish uchun kontaktli moy isitish tizimi bilan birga quyosh energiyasini qo‘llash mumkinligini ko‘rsatdi. U isituvchi elementlar – regislarni o‘z ichiga olib, ular bo‘ylab qaynoq moy oqadi, u shuningdek elektr issiqlik generatori, sirkulyasiya nasosi, bak, akkumulyator va moy

o'tkazish tizimini ham tarkibiga olgan. Qo'shimcha issiqlik manbai sifatida suyuqlikda ishlaydigan geliy qabul qilgich xizmat qilib, undan foydalanishning maqsadga muvofiqligi uning parametrlari hamda issiqlik tashuvchini isitish samaradorligini tadqiq etish asosida aniqlangan. Dastlabki hisob-kitoblar ko'rsatishicha, o'rta mintaqaga sharoitida bir  $m^3$  betonni isitishda bir  $m^2$  kollektordan foydalanish issiqlik bilan ishlov berishga sarflanayotgan me'yorlashtirilgan issiqlik miqdorining 2,5 dan 3,3% gacha qismini tejash (kompensatsiyalash) imkonini berar ekan. Issiq iqlim sharoitida quyosh energiyasidan foydalanish samaradorligi ortib boradi. O'tkazilgan tadqiqotlar mamlakatning ham janubiy, ham o'rta mintaqasida konstruksiyalarga issiqlik ishlovi berishda quyosh energiyasidan qo'shimcha issiqlik manbai sifatida foydalanish imkoniyati mavjudligini ko'rsatdi.

Olimlarning doimiy e'tiborida bo'lgan o'ta muhim mavzular – betonlarning ekspluatatsion xossalari va tarkibiga qo'shimchalar qo'shgan holda ularni modifikatsiyalash bo'ldi.

Hozirgi paytga kelib transport qurilishi o'zining mavsumiy ko'rinishini yo'qotdi va qish sharoitida ishlarni amalga oshirishda sovuqda ham quotadigan beton qo'llana boshlandi. Bunga beton qorishmasiga kalsiy va natriy xlorli tuzlarni qo'shish hisobiga erishildi. Tajriba tuzli aralashmalar qo'shilgan betonlarni qo'llash mehnat va moddiy vositalar qo'llanishini jiddiy qisqartirishini ko'rsatdi. Masalan, Qozog'istonidagi Ekil-Turgay temir yo'l liniyasida 1955–1956 yilning qishida bir uchastkada 11 ta kichik ko'pri va quvurlar qurish kerak bo'lib, bu ming  $m^3$  dan ko'proq beton hajmini talab etgan. Tayanchlar poydevorlarini  $CaCl_2+NaCl$  (dozirovka – sement og'irligining 10% qismi) qo'shgan holda betonlash  $-20^{\circ}C$  dan past haroratda ham beton qotishini ta'minlagan [10].

Biroq, foydalanish amaliyoti va keyingi tadqiqotlar ko'rsatishicha, tarkibida ko'p miqdorda xloridlarga ega bo'lgan beton, ayniqsa temirbeton ko'pga chidamaydi. Bugungi kunda ana shunday qo'shimcha – elektrolitlar qo'shilgan betonlarning korroziyaga chidamliligi bilan bog'liq muammolar tufayli ko'pgina transport konstruksiyalari uchun ularni qo'llash yuzasidan cheklovlardan joriy qilingan.

Yig'ma temirbetondan qurilish sohasida tobora ko'proq e'tibor yuqori darajada mustahkam va uzoq muddat xizmat qiladigan betondan yasalgan konstruksiyalarga berilmoqda. 60-yillarda ushbu muammo ustida ko'plab tadqiqotchilar ish olib borganlar. QKMITI tomonidan Sement ITI bilan birgalikda olib borilgan tadqiqotlar natijasida B90 sinfli beton olinib, B140 gacha bo'lgan beton yaratish bo'yicha ishlarni amalga oshirildi. O'ta mustahkam beton olish uchun quyidagilar zarur bo'ldi: 700...900 markali sementlarni qo'llash; fraksiyalangan yuvilgan to'ldirgich va qo'shimcha-

lardan foydalanish – qotish jarayonini tezlashtiruvchi vositalarni qo'llash; beton qorishmasini vibroaralashtirish usuli bilan tayyorlash; qattiq beton aralashmalarini qo'llash; buyumlarga zichlashning kuch va vibratsion usullarini birga qo'llash, konstruksiyalarni bug'dan izolyasiyalovchi qatlam bilan qoplash yoki uni suv muhitida qotirishga o'tish bilan betonning optimal qotish sharoitlari yordamida shakl berish [10].

O'ta tez qotadigan, qo'yilgan talablarga javob beradigan sement olish texnologiyasi ishlab chiqildi. 700 markali ana shunday sement bugungi kunda katta miqdorda Zdolbunov sement-shifer (RF) kombinati tomonidan ishlab chiqarilmoqda. Tajriba tariqasida 800 markali sement olingan. Tadqiqotlar o'ta tez qotadigan sementni (O'TQS – ОБТЦ) qo'llash yuqori darajada mustahkam betondan tayyorlangan yig'ma temirbeton konstruksiyalarni ishlab chiqarishda iqtisodiy jihatdan oqilona va tejamkor echim ekanligini ko'rsatdi. O'TQS dan foydalanish temirbeton buyumlarni qattiq va plastik (konus cho'kishi  $\leq 2$  sm) beton qorishmalaridan bug'latmay tayyorlashga o'tishning eng asosiy sharti hisoblanadi.

Betonning, shu jumladan kompleks qo'shimchalar qo'shilgan betonning sovuqbardoshligi doimo mutaxassislar diqqat e'tiborida bo'lib kelgan. Normal namlikda qotgan, yoshi 28 kundan ko'p beton ustida qurilish ob'ektlaridan birida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, betonli namunalar siklli tarzda muzlatib, eritilganidan so'ng sinalayotgan namunalarning standart metodika bo'yicha sinovi o'tkazilganida o'z ekvivalentlariga, shuningdek, egizak-namunalariga nisbatan mustahkamligi qo'shimcha ravishda ortgan. Siklli tarzda muzlatib, eritishdan keyingi mustahkamlikning qo'shimcha ortishini gipotetik tarzda quyi alyuminatli sementlar va YuFM (ПАВ) larni qo'llash bilan bog'liq tuzilma hosil qilish jarayonlarining o'ziga xosligi bilan izohlash mumkin. Ma'lumki, YuFM sementning silikat mahsulotlariga ko'proq va alyuminatlarga juda kam ta'sir qiladilar. O'z navbatida, ozod (erkin) suvning muzlash nuqtasiga yaqin bo'lgan quyi haroratlar silikatlar gidratatsiyasi to'liq kechishi uchun, bunday hollarda jarayonlar sur'ati tabiiy ravishda pasayishiga qaramay, termodinamik jihatdan maqbul bo'lib chiqadi [10].

80-yillarning o'rtalaridan boshlab jahon qurilish amaliyotida yuqori foydalanish xossalariiga ega bo'lgan yangi avlod betonlaridan tayyorlangan konstruksiya va inshootlar paydo bo'ldi. Odatta, bu betonlar yuqori (50...80 MPa) va o'ta yuqori (80 MPa dan ortiq) mustahkamligi, past o'tkazuvchanligi bilan, hamda korroziyaga qarshi chidamliligi va uzoq muddat xizmat qilishi bilan farqlanadi. Bunday samaraga xorijiy analoglariga nisbatan samaraliroq mahsulot – MB-01 kompleks modifikatorini qo'llash orqali erishildi. Mahalliy ko'rik qurilish sohasida

ana shunday betonning qo'llanish istiqboli va xususiyatlarini baholash vazifasi qo'yilgan edi. Oldindan zo'riqtirilgan, uzunligi 21 m ga teng bo'lган oraliq qurilma to'sinini tayyorlash bo'yicha ilk tajriba shuni ko'rsatdiki, o'ta mustahkam betondan MB-01 modifikatori bilan tayyorlangan ko'prik konstruksiyalarini sanoat miqyosida ishlab chiqarishni korxonalarda mavjud texnologik uskunalar yordamida ham yo'lga qo'yish mumkin ekan.

Temirbeton konstruksiyalarning ekspluatatsion yuklar sharoitidagi real ishini izohlash uchun olimlar va muhandislar tomonidan nazariy va eksperimental tadqiqotlar olib borildi. Bu erda so'z ko'p yillar davomida oimlarning diqqat e'tiborida bo'lган temirbeton nazariyasini taraqqiy ettirishning fundamental masalalari ahamiyati to'g'risida bormoqda. Nazariyaning muhim masalasi – betonning murakkab tuzilmali ko'p komponentdan iborat material sifatida deformatsiyalanish va sinish jarayonining tahlililir. O.Ya. Berg fikriga ko'ra, bu jarayon beton tuzilmasidagi mikroemirilishlar parametrik darajalari bilan belgilanadigan ba'zi umumiy qonuniyatlarga bo'ysunadi. Yuklangan betonda ultratovush tebranishlar tarqalish tezligi bo'yicha ko'rsatilgan parametrik darajalar va uning bo'ylama va ko'ndalang deformatsiyalarga nisbatini aniqlash metodikasi belgilanib, sinovdan o'tkazildi. Ushbu parametrik darajalar betonning yuklama va tashqi muhit ta'sirida o'zini qanday tutishini, shu bilan birga uning salqilik, sovuqbardoshlik, materialning tajovuzkor muhitda korroziyaga qarshi chidamliligi va ko'pgina boshqa fizik-mexanik tavsiflarini hal qiluvchi tarzda belgilab beradi.

Aynan QKMITI da, Qurilish materiallari bo'limida temirbeton va boshqa qurilish materiallaridan yasalgan konstruksiyalarni kuch omillari, hamda atrof muhitning birgalikdagi noxush ta'siriga hisoblash bilan bog'liq tamoyillar shakllantirildi [10]. Transport qurilishi amaliyotida temirbeton konstruksiyalar mavjud bo'lib, ularning elementlari yassi zo'riqtirilgan holat – ikki o'qli siqilish yoki siqilish-cho'zilish sharoitida ishlaydi: masalan, ko'priklarning to'sinli oraliq qurilmalari, shchitli domkratlar yaqinida joylashgan tonnel obdelkasi halqalari, kontakt tarmog'ining sentrifugalangan tayanchlari va sh.o'. SHu kabi konstruksiyalarni loyihalashda ularning elementlari kuch ta'sirining ko'rsatilgan turlariga hisoblab chiqilishi shart. Biroq, bugungi kunda buning iloji yo'q. Yassi-zo'riqtirilgan temirbeton konstruksiyalar yoki ular elementlarining hisob-kitobi masalalaridagi noaniqliklar beton va boshqa sinuvchan (mo'rt) materiallarning ko'rsatilgan turdag'i kuch ta'sirlari ostidagi mustahkamligini baholashdagi mavjud ziddiyatlar bilan bog'liq. QKMITI da o'tkazilgan tajribalar namunalarning qisqa yon tomonlari

bo‘ylab ishqalanish kuchining yakuniy natijalarga ko‘rsatadigan ta’siri to‘g‘risidagi farazni tasdiqlab, turli tadqiqotchilar tomonidan olingan ziddiyatli ma’lumotlar sababi tajriba sharoitlari bilan belgilanishi haqida xulosa qilish imkonini berdi [10].

Transport inshootlari yuksak darajadagi tajovuzkor muhit sharoitida tiklanadi va ekspluatatsiya qilinadi. Shu sababli konstruksiyalarning uzoq muddat xizmat qilishi va ularni korroziyadan himoya qilish masalalariga doim katta e’tibor berib kelingan.

Betonni agressiv suvlar ta’siridan himoyalash uchun me’yoriy hujjatlarga muvofiq faqat sulfatga chidamli portlandsement qo‘llanilishi kerak va u tarkibida  $\text{SO}_3$  hisobida 3500 mg/l gacha sulfatlarga ega bo‘lgan suvda inshootlarni qo‘sishma gidroizolyatsiyasiz tiklash imkonini beradi. Suv-sement nisbatini cheklash, zichlashning mukammal usullari, yuqori sifatli, saralangan va toza to‘ldirgichlarni qo’llash oddiy portlandsementlardan aksariyat “yumshoq” suvlarda turg‘un, chidamli beton olish imkonini berishi aniqlandi. Sun’iy inshootlarning suv o’tkazmaydigan va sovuqqa chidamli konstruksiyalarini olish texnologiyasini ishlab chiqish bugungi kunda ham asosiy vazifalardan biri bo‘lib qolib, uning hal etilishi gidroizolyatsiyani soddalashtirish, qator hollarda esa undan butunlay voz kechish imkonini beradi.

Gidroizolyatsiya konstruksiyasini tanlashga transport inshootlaridan foydalanish shart-sharoitlari hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, tonnel tashqi qobig‘i, bir tomondan, tonnelni o‘rab turgan suv va grunt ta’siriga, ikkinchidan, atmosfera (tonnel ichida) ta’siriga duch keladi. Ana shu qobiqning uzoq muddat ishlash masalasi tajovuzkor muhitlarda tonnel qurish paytida alohida ko‘rib chiqilishi kerak bo‘ladi. Obdelkani korroziyadan himoya qilish kabi vazifani kompleks hal qilishda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan asosiy chora-tadbirlar quyidagilar [10]: konstruksiyalashda yoriqqa chidamli (darz ketmaydigan) konstruksiyalarni yaratish; tajovuzkor sharoitlarda chidamli materiallar, birinchi navbatda sementlarni tanlash; zich betonni va uni yaratishni ta’minlaydigan texnologiyani qo’llash; eng zich betonga ega bo‘lish maqsadida uning qotish rejimlarini ishlab chiqish; qorishmani obdelka ortiga sifatli haydab kiritish va bloklar orasidagi choklarni ularning butun qalinligi bo‘yicha ishonchli tarzda zichlab, bu bilan ishonchli germetiklanish hamda qorishmaning bloklar jinsi (tanasi) bilan tishlashishini ta’minalash; maxsus himoya choralarini (gidrofoblashtirish, polimer moddalar shimdirlash).

Metall tolalar ko‘rinishidagi armaturalash muvaffaqiyat bilan qo‘llanishi mumkin bo‘lgan qator konstruksiyalar uchun ularning korroziyaga bardoshlilik xususiyati jiddiy ahamiyat kasb etadi. Bunday

inshootlarga quyidagilarni kiritish mumkin: yo‘l va aerodrom qoplamlari, qirg‘oqni mustahkamlash inshootlari, avtomobil ko‘priklari qatnov qismi qoplamasasi va b. Atrof muhitda mavjud bo‘lgan xloridlar yoki dengiz suvi beton va metall tolalariga tajovuzkor ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Korroziyaga chidamlilik darjasini namunalarga korrozion muhit bilan siklli ta’sir ko‘rsatilganida, ularning chiziqli o‘zgarishiga qarab baholanadi. Tadqiqotlar natijasida betonga metall tolalar qo‘shilganida, etalon namunalarga nisbatan beton deformatsiyalari rivojlanishining oshishi ma’lum bo‘lib, aytish kerakki, betonning armaturalash foizi qancha yuqori bo‘lsa, u shuncha ko‘p deformatsiyalananadi. SHunday qilib, korrozion muhit sharoitida ishlaydigan, metall tolalar bilan dispers-armaturalangan betondan yasalgan konstruksiya elementlarining normal ishlashi uchun ular yuzasini himoya qatlami bilan qoplash yoki tolalarni anodlash (metall sirtini elektroliz usulida oksid pardasi bilan qoplamoq) tavsiya etilgan [10].

Transport inshootlaridan foydalanishda eng ko‘p uchraydigan korroziya turi betonning sulfatli korroziysi hisoblanadi. Unga qarshi eng samarali usullardan biri sifatida sulfatga chidamli portlandsementni qo‘llash tavsiya etiladi. Biroq, u kamyob mahsulot bo‘lib, shu bilan birga, uni ko‘prik konstruksiyalari uchun ishlatish me’yorlar taqiqlaydi. Bevosita qurilish ob’ektlarining o‘zida himoya qoplamarini qoplash usuli texnologiya jihatidan o‘ta murakkab bo‘lib, muayyan ob-havo sharoitlarini talab etadi, TBK zavodlarida bajarilganida esa kimyo sanoati korxonalarini me’yorlariga ko‘ra texnika xavfsizligi qoidalariга rioya qilish talab etiladi. QKMITI (ЦНИИС, Moskva) da bajarilgan tadqiqotlar tajovuzkor muhitga qarshi himoya qoplamarini oddiy portlandsementdan tayyorlangan korroziyaga chidamli beton bilan almashtirish imkoniyatini ko‘rsatdi [10]. Bundan tashqari, kuchli tajovuzkor sulfatli muhit, shu jumladan botqoq erlarda beton chidamliligini ta’minalash uchun tarkibida bariy bo‘lgan portladsement qo‘llanishi maqsadga muvofiq. Sulfat ionlari konsentratsiyasi 2000 mg/l gacha bo‘lgan tajovuzkor sulfatli muhit normal zichlikka ega bo‘lgan betonga hamda S-3 superplastifikatori qo‘shilgan tarkibida 8% uch kalsiyli alyuminatli portlandsement asosidagi o‘ta zich betonga ham deyarli bir xil ta’sir ko‘rsatadi. Bunday himoya qoplama-siz beton o‘zining korroziyaga chidamliligiga ko‘ra sulfat ionlari konsentratsiyasi 2000 mg/l dan ortiq bo‘lmagan muhit – grunt yoki suvda ishlatiladigan konstruksiyalar betoni bilan birga qo‘llanishi mumkin. Cement betonning botqoq muhitdagi chidamliligini oshirish maqsadida tarkibida uch kalsiyli silikat C3S (ko‘pi bilan 60%) miqdori cheklangan, to‘rt kalsiyli alyumoferit S4AF miqdori esa ko‘proq bo‘lgan portlandsementlarni, shuningdek nefelin shlamini qo‘shilgan portlandsementlarni qo‘llash tavsiya etiladi [16].

Hozirgi paytda metall ko'priklar va yo'l o'tkazgichlar qurilishi inshootlarning uzoq muddat ishlashi, hamda tashqi estetik ko'rinishiga nisbatan yuqori talablar qo'yilishi bilan farqlanadi. Konstruksiyaning qancha xizmat qilishi va uning ko'rinishi ko'p jihatdan korroziya jarayonlariga bog'liq. Ko'priklar va yo'l o'tkazgichlarning nam muhit va harorat mavsumlar bo'yicha keskin farqlanadigan sharoitlarda qo'llanadigan metall konstruksiyalari belgisiga ko'ra o'zgaruvchan va dinamik ta'sirlarga duch keladi, shuning uchun materiallar va metall konstruksiyalarni korroziyadan himoya qilish usullariga ham yuqori talablar qo'yilishi mumkin. Inshootlarni loyihalash va o'ta noyob ko'priklar va yo'l o'tkazgichlardan foydalanishning 7 yildan ortiqroq tajribasi bir komponentli poliuretan lak-bo'yoq materiallari (LBM) bilan bo'yash yordamida korroziyadan himoyalash uslubi ushbu talablarga nisbatan ko'proq muvofiqligini ko'rsatdi. Ayniqsa sink to'ldirilgan gruntovkaning fizik-mexanik ta'sirlarga yuksak darajadagi chidamlilagini qayd etish lozim, u metall konstruksiyalarni tashish, uzoq muddat saqlash va montaj kuchlarini qabul qilishiga qaramay, turli ob'ektlarda o'tkazilgan barcha sinovlar paytida panjarasimon kesish uslubida adgeziya bo'yicha 1 ball ko'rsatkichga ega bo'ldi. Temirbeton yuzalarni poliuretan lak-bo'yoq materiallari bilan qoplash armatura himoya qatlaming xizmat qilish muddatini uzaytirib, zinch fakturasi va turli-tuman koler (tayyor murakkab bo'yoq) dan foydalanish tufayli konstruksiyalar tashqi ko'rinishini bezaydi. Ana shunday qoplamlarning 15 yildan ortiq ta'mirsiz ishlaydi deb ishonch bilan uqtirish mumkin [10].

Armatura va armaturalash texnologiyasi qurilish materiallari masalalari orasida alohida o'rin tutadi. Transport qurilishidagi ekspluatatsion yuk ostida temirbeton konstruksiyalari ishlashining noyobligi (o'ziga xosligi) ularni armaturalashning o'ziga xos xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Ilk marotaba 1932 yilda LIIJT (ЛИИЖТ) mexanika laboratoriyasida hali to'liq qotib ulgurmagan betonni yuklash bo'yicha o'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, armaturani erta pog'onali taranglashdan foydalanib, to'sin tayyorlashning birinchi bosqichini ikki-uch kun ichida tugallash mumkin ekan. Armaturani tarang qilishning keyingi bosqichlari beton talab darajasidagi bikrlikka ega bo'lidan so'ng amalga oshiriladi. SHundan keyin armatura tutam (bog'lam) lari in'eksiyalanib, mahkamlagich planka (anker kolodka) lari betonlanadi va 9...10 kun o'tgach, to'sin oraliqdagi o'z o'rniga yotqizilishi mumkin.

Oldindan zo'riqtirilgan temirbeton konstruksiyalarni armatura ishlarini kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishni qo'llagan holda yalpi ishlab chiqarishga o'tishda konstruksiyalarning samaradorligini belgilab beradigan asosiy omillardan biri – texnologiya jarayonlarining ishonch-

liligi hisoblanadi. Armaturalash jarayoniga ko'plab tasodifiy omillar ta'sir ko'rsatadi: boshlang'ich ishlataladigan materiallar xossalalarining o'zgarib turishi, texnologiya rejimlarini amalga oshirishdagi noaniqliklar, uskunalarining barqaror ishlamasligi va h.k. Ana shunday nosozliklardan biri armatura taranglanganida uning uzilib ketishidir. Armaturaning bir jinsliligini simni mustahkamlik chegarasiga ko'ra saralash hamda guruhli tarzda taranglanayotgan simlarning notejis taranglanishi sabablarini bartaraf etish yo'li bilan oshirish mumkin. Yana bir chora – armaturaning uzayish qiymatiga ko'ra taranglanishini nazorat qilishdan iborat. Nazorat qilishning eng samarali uslubi – DP-6 (ДП-6) va DPS-2 (ДПС-2) asboblari yordamida o'lhash hisoblanadi. Ana shunday chora-tadbirlar oqibatida armaturaning uzilish sonini keskin kamaytirishga erishiladi.

Qurilish materiallarini qo'llash jarayonida keng ko'lamli muammolar yuzaga kelib, ular orasida mahalliy materiallar va transport qurilishiga xos bo'lmanan noan'anaviy yangi qurilish materiallari muhim o'rinn tutadi. Betonlar uchun og'ir to'ldirgichlar narxining balandligi to'ldirgich sifatida chig'anoqtosh, engil ohaktosh, tuf (g'ovak tog' jinsi) va tufolava (tuflı cho'g' modda) (vulqonlardan otilib chiqadigan suyuq cho'g' modda), opoka (kremnezyomga boy tog' jinsi) va trepel kabi materiallarni qo'llash g'oyasini yuzaga keltirdi. 1938 yilda to'ldirgich sifatida pemza qo'llanilgan engil temirbetondan rama konstruksiyali piyodalar uchun ko'rik qurib ishga tushirildi. Keyinchalik oraliq uzunliklari 4 dan 30 metrgacha bo'lgan, sinfi 10 dan 20 gacha bo'lgan engil temirbetondan tayyorlangan yana 16 ta ko'rik bunyod etildi. Engil temirbetondan arkli ko'rik inshootlarining ratsionalligi shunda ediki, ularga harorat va cho'kish kabi hodisalar ta'siri ancha kamayib, o'tkazilgan tadqiqotlar ham shundan dalolat berdi. Engil to'ldirgichlar – pemza (engil vulkanik jins), trepel, tuf, opoka, chig'anoqtosh, ohaktosh va spongolit kabilarni qo'llash bilan sinfi B12 dan B22,5 gacha engil va mustahkam betonlar olinib, ulardan yig'ma ko'rikarda foydalanish konstruksiyalar og'irligini 25...30% gacha kamaytirish va armaturali po'latning 20...25% gacha tejab qolish imkonini beradi [10].

Keramzitbetonning g'ovakliligi tufayli suvni sement qorishmasi (xamiri) dan va to'ldirgichlar tagidagi zonalaridan so'rib olish xususiyati sement toshi va beton tuzilmasini yaxshilab, bunda sement toshining mustahkamligini va uning to'ldirgichlar bilan tishlashishini yaxshilaydi. Bundan tashqari, unchalik mustahkam bo'lmanan, ammo sement toshi bilan o'rab olingan keramzit oboyma ichida joylashgan kabi ishlaydi. Bu keramzit to'ldirgichli talab etilgan sinfli betonni og'ir to'ldirgichlilarga nisbatan kamroq mustahkamlikka ega, ammo bunda xuddi shu sinfli og'ir

betonlarga nisbatan bor-yo‘g‘i 20...30 % ko‘proq sement sarflab olish imkonini beradi. SHunday qilib, keramzitbetondan ko‘prik inshootlarini qurish uning tarkibini to‘g‘ri tanlagan holda amalga oshirilishi lozim.

Transport infratuzilmasi uchun qurilish industriyasining xom ashyo bazasi muhim o‘rin tutadi. To‘siq konstruksiyalarini ishlab chiqarish uchun kul va boshqa chiqindilar asosidagi yachevkali betonlarni qo‘llash an‘anaviy bog‘lovchi materiallarni qo‘llashdan voz kechish imkonini beradi. Bundan tashqari, kul va shlak (toshqol – metall eritilganda qolgan qotishma) larni utilashtirish chiqindilar ostida band erlar maydonini qisqartiradi. Klinkersiz shlak asosidagi yachevkali betonlar ishqorli bog‘lovchi sifatida nisbatan past zichligiga qaramay, yuqori darajadagi mustahkamlik va sovuqbardoshligini ko‘rsatdi. Beton tayyorlashda ishqorli aktivlashtirish maqsadida o‘yuvchi natr, kremniy – tuproqli komponent sifatida esa tuyilgan kvars qumi qo‘llandi.

Yig‘ma va monolit temirbeton konstruksiyalarining texnologik jihozlarini, shu bilan birga transport qurilishiga oid yanada samarali konstruksiyalarini yaratishda zamонавиy materiallarni qo‘llashga intilish poliefir shishaplastikdan istiqbolli konstruksiyalar, ularni ishlab chiqarish texnologiyasi va bunday konstruksiyalarining tajribaviy partiyalarini tayyorlash uchun texnologik jihozlarini yaratishga olib keldi. Transport qurilishi markaziy ilmiy tadqiqot instituti (ЦНИИС, Moskva) tomonidan Lengiprotransmost (Ленгипротрансмост) bilan birgalikda yig‘ma gofrlangan suv o‘tkazish quvurlari, yig‘ma shisha plastik konteynerlar konstruksiyasi, monolit va yig‘ma temirbeton konstruksiyalar uchun ichiga joylanadigan bitum-shishaplastik gidroizolyatsiya ishlab chiqilgan [10].

Armaturalashning yangi turlariga ham katta e’tibor qaratilgan. Misol uchun, yangi kompozit materiali po‘lat fibrobeton (tarkibidagi metall tolalari – fibralar betartib (xaotik tarzda) joylashgan beton) oddiy betonga nisbatan yaxshilangan fizik-mexanik xossalarga ega. Masalan, uning o‘q bo‘ylab cho‘zishga mustahkamligi 1,5...1,7 marta, egilishdagi cho‘zilishga mustahkamligi 2...3 marta, zarbli qovushqoqligi 8...10 marta ortadi. Siqilishdagi mustahkamligi, edirilish va chidamlilik xususiyatlari ortadi. Po‘lat fibrobeton korroziyaga qarshi yuqori darajada chidamlilik xususiyatlariga ega. Rossiyada po‘lat fibrobeton konstruksiyalar qo‘llanishi yo‘liga to‘g‘onoq bo‘lib turgan omillardan biri, uzoq vaqt davomida fibraning sanoat miqyosida ishlab chiqarilmaganligi bo‘ldi. Hozirgi paytga kelib «Xareks» tipidagi fibra ishlab chiqarish bo‘yicha ikki liniya Kurgan ko‘prik metall konstruksiyalarini zavodida ishlab turibdi. Po‘lat fibrobeton transport inshootlari konstruksiyalarida yaxshi samara bilan ishlatalishi mumkin. Chet elda po‘lat fibrobeton bilan birga shuningdek shisha

fibrobeton ham qo'llaniladi. 1997 yili Soyuzdorproekt ilk marotaba eksperimental shisha fibrobeton karniz bloklari konstruksiyasini ishlab chiqib, ulardan Yaroslavskiy shossesi orqali o'tgan MKAD (МКАД) yo'l o'tkazgichini qayta tiklashda foydalanildi [10]. Eksperimental tadqiqotlar va shisha fibrobetonni tajriba tariqasida qo'llash shuni ko'rsatdiki, ko'priksozlikda ushbu material echilmaydigan opalubka, karniz bloklari va ba'zi boshqa konstruksiyalarda etarli darajada samarali ravishda qo'llash uchun yuqori mustahkamlik xossalari ega ekan.

Qurilishdagi texnik taraqqiyotning o'ta muhim asoslaridan biri yangi materiallar, ularni yaratish va qo'llash texnologiyasi hisoblanadi [10]. Professional faoliyati u yoki bu darajada transport qurilishi bilan bog'liq bo'lgan deyarli barcha olimlar va amaliyotchilar o'z ishlarida qurilish materiallari muammolariga oid masalalarni qayd etib o'tganlar. So'nggi yillarda mamlakatda yuzaga kelgan iqtisodiyotning barqarorlashuv davri qurilish materiallari sohasining ham jadal sur'atlar bilan o'sishidan umid qilish imkonini beradi. Tadqiqotlar hajmi tobora ortib, ular mavzulari kengayib bormoqda. Bugungi kunda materialshunoslikdagi asosiy yo'nalihsalar quyidagilardir [10]:

- yangi jarayonlarni yaratish va mavjudlarini takomillashtirish;
- energetik, moddiy va mehnat resurslarini minimal darajada sarflab mahsulot olishga erishish;
- qurilishning eng yuksak talablariga javob beradigan, berilgan xossalarga ega bo'lgan qurilish materiallari va buyumlarining yangi turlarini yaratish;
- chiqindisiz va kam chiqindili texnologiyalarni keng joriy etish, ishlab chiqarishlarning ikkilamchi mahsulotlaridan foydalanish.

Vazifalar, umuman olganda, yangi emasligiga qaramay, biroq ularning echimi ilm-fan va texnikaning o'ta zamонавији yutuqlari sohasida yotadi. Zamонавији texnologiyalarni materialshunoslikda qo'llash bilan avval ma'lum bo'lмаган xossalarga ega bo'lgan konstruksiyalarni olish mumkin. Bunga bog'liq ravishda eng yaqin kelajakda «qurilish materiallari», institut ilmiy-tadqiqot va amaliy faoliyatining profilli yo'nalihi sifatida jadal sur'atlar bilan rivojlanib, bu bilan avvalgi avlod olimlari boshlab bergen an'analarni davom ettiradi deb ishonch bildirish mumkin.

#### 1.4. Temirbetonning mohiyati va uning xossalari

Tosh va yog'och ibtidoiy odamning dastlabki qurilish materiali hisoblangan. Keyinchalik inson xom g'isht, pishiq g'isht va beton tayyorlashni o'rgandi.

Beton siqilishga yaxshi, cho'zilishga sust qarshilik ko'rsatadigan sun'iy materialdir. Betonning cho'zilishga bo'lgan mustahkamligi siqilishga nisbatan 10...20 marotaba kam. SHuning uchun ham uni anizotrop material deyiladi. Anizotrop materiallar – turli xil yo'naliш bo'yicha xossalari har xil bo'lgan materiallardir.

Temirbetonning zichligi undagi armatura miqdori 3% va undan kam bo'lganda 2500 kg/m<sup>3</sup> qabul qilinadi.

Betonning anizotropligi beton va temirbeton konstruksiyalarni hisoblashda jiddiy qiyinchiliklarga olib keladi. Beton cho'zilishga sust qarshilik ko'rsatganligi sababli armaturasiz to'sin ko'p yuk ko'tara olmaydi.

Agar to'sinning cho'zilish zonasiga armatura joylansa, to'sinning yuk ko'tarish qobiliyatini ancha (taxminan 20 marotaba) ortadi. Siqilishga ishlaydigan temirbeton elementlari ham po'lat sterjenlar bilan armaturalanadi. Po'lat siqilishga ham, cho'zilishga ham yaxshi qarshilik ko'rsatganligi tufayli siqiluvchi elementning yuk ko'tarish qobiliyatini ancha oshiradi.

Po'lat armatura joylashgan beton temirbeton deb ataladi. Temirbetondan ishlangan qurilish konstruksiyasi temirbeton konstruksiyasi deb yuritiladi.

Quyidagi sabablar beton bilan po'lat armaturaning birligida ishlashiga sharoit yaratadi:

1. Beton qotish jarayonida po'lat armaturaga mahkam yopishadi (tishlanadi);
2. Zich beton po'lat armaturani zanglashdan va yong'indan asraydi;
3. Po'lat bilan og'ir betonning harorat ta'sirida chiziqli kengayish koeffitsientlari bir-biriga juda yaqin (beton uchun  $\alpha_b = (1\dots 1,5) \cdot 10^{-5}$ ; armatura uchun esa  $\alpha_s = 1,2 \cdot 10^{-5}$ ).

Ana shu uchta muhim xossa tufayli temirbeton konstruksiyalarini yaratish imkoniyatiga ega bo'lindi. Ammo temirbetonning afzallik va nuqsonlari ham bor.

Temirbetonning quyidagi afzalliklari uning qurilishda keng tarqalishiga imkon yaratdi: o'ta mustahkamligi, ko'pga chidamliligi, olovbardoshligi, zilzilabardoshligi, mahalliy materiallardan foydalanish imkoniyati, konstruksiyaga istalgan shakl berish imkoniyati.

Quyidagilar temirbetonning nuqsonlariga kiradi: vaznining og'irligi; issiqlik va tovushni oson o'tkazishi; mustahkamlash va tuzatishning qiyinligi; yorilishi mumkinligi; beton yotqizilgach, armatura holatini tekshirish qiyinligi va hokazo.

Konstruktiv va montaj armaturalar konstruktiv va texnologik mulohazalarga ko'ra o'rnatiladi: *konstruktiv* – hisoblashda e'tiborga olinmaydigan kuchlanishlarni qabul qiladi, *montaj armatura* esa ishchi

armaturalarni loyihaviy holatini ta'minlaydi va ularni karkaslarga birlashtiradi. Hamma armaturalar payvandlangan armaturali buyumlarga birlashtiriladi – payvandlangan yoki to'qilgan sim to'r va karkaslarga.

Temirbeton konstruksiyalar tayyorlanish usullariga qarab yig'ma, yaxlit va yig'ma-yaxlit bo'ladi. Yig'ma konstruksiyalar zavodda tayyorlanib, qurilish maydonida yig'iladi, yaxlit konstruksiyalar bevosita qurilish maydonining o'zida ko'tariladi, yig'ma-yaxlit konstruksiyalar esa ikkalasining qo'shilishidan hosil bo'ladi, ya'ni bir qismi zavodda tayyorlanib, qolgan qismi monolit beton bilan qurilish maydonida yaxlitlanadi.

*Olovbardoshlik chegarasi* (soatlarda) temirbeton elementlarning o'lchami va ularning konstruktiv sxemasiga, armaturasiga va, ayniqsa, armaturani olovning bevosita ta'siridan asraydigan betonning himoya qatlamiga bog'liq.

*Temirbetonning chirishi (korroziyasi).* Agar beton etarlicha zichlikka ega bo'lmasa, suvning filtrlanishi ta'sirida sement toshining tarkibiy qismi – kalsiy gidrat oksidi eriydi. Beton korroziyasi ishqorli gaz, tuzlar qorishmasi, kislota va dengiz suvi ta'sirida ham sodir bo'ladi. Temirbeton konstruksiyalarning korroziyaga chidamliligi betonning zichligi va muhitning agressivlik darajasiga bog'lik. Temirbeton konstruksiyalarni korroziyadan himoya qilish uchun muhitning agressivlik darjasini va turiga qarab, beton zichligini orttirish va har xil maxsus qo'shimchalar qo'shish orqali betonni filtrlanish xususiyatini kamaytirish, himoya qatlamin oshirish lozim.

## 1.5. Oldindan zo'riqqan temirbeton konstruksiyalar, armaturani mahkamlash


*Oldindan zo'riqqan konstruksiyalar.* Betonda yoriq paydo bo'lishining oldini olish uchun, uni cho'zilgan armatura yordamida siqiladi. Tayyorlash jarayonida sun'iy ravishda (oldindan) betonda siqilish va armaturada cho'zilish kuchlanishlari uyg'otilgan temirbeton konstruksiyalari oldindan zo'riqtirilgan konstruksiyalar deb ataladi.

Oldindan zo'riqtirilgan konstruksiyalarning afzalligi ularning yoriqbar-doshliligi va bikrili yuqori darajada ekanlidadir. Ana shu xossa tufayli o'ta mustahkam po'lat va betondan foydalanish imkoniyati tug'iladi, buning natijasida oddiy armatura temirbetondagiga nisbatan 30...70% kamroq bo'ladi. Ayni paytda beton sarfi ham kamayib, konstruksiya vazni engillashadi. Oldindan zo'riqtirilgan konstruksiyalarda B20...B60 sinflı beton va o'ta mustahkam armatura ishlataladi. O'ta mustahkam materiallarning qo'llanilishi temirbeton konstruksiyasining ko'ndalang kesimlarni kichraytirish imkonini beradi; bu esa konstruksiya narxini kamaytiradi,

chunki beton bilan armaturaning narxi mustahkamlikka nisbatan sekinroq ortadi. Oldindan zo'riqtirilgan temirbeton konstruksiyalari o'zining zanglashga qarshi o'ta turg'unligi, ko'pga chidamliligi va bardoshliligi bilan farq qiladi. Konstruksiyalarni oldindan zo'riqtirilishi oraliqlarni kattalashtiradi, kesimlarni kichiklashtirish evaziga ulardan samarali foydalanish doirasini kengaytiradi. Betonda cho'zuvchi kuchlanishlar paydo bo'ladigan konstruksiyalarda (egiluvchi elementlar, quvurlar, rezervuarlar, minoralar va h. k.) oldindan zo'riqtirilgan temirbetondan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Oldindan zo'riqtirilgan konstruksiyalarni tayyorlash uchun ko'p mehnat sarflanadi, maxsus uskunalar hamda yuqori malakali ishchilar talab etiladi; bular uning kamchiligi hisoblanadi. Oldindan zo'riqtirilgan konstruksiyalarda faqat siqilish emas, balki cho'zuvchi kuchlar ham uyg'otadigan qo'shimcha (masalan, siquvchi) kuchlar mavjud bo'ladi; bu kuchlar konstruksiyani tayyorlash va montaj qilish jarayonida yoriqlar paydo qilishi mumkin. Taranglangan armatura betonga uzatiladigan kuchli zo'riqish betonning ayrim yerlari (masalan, element uchi, ankerlar osti) ni emirlishi hamda beton bilan armatura orasidagi yopishuviga putur etkazishi mumkin. Maxsus konstruktiv choralar qo'llash orqali bu hodisalarni oldini olsa bo'ladi.

*Oldindan zo'riqish hosil qilishning usullari.* Oldindan zo'riqtirilgan konstruksiyalarni tayyorlash jarayonida armaturani beton quyishdan ilgari tirgaklariga tirab (1.6-rasm, a) yoki beton qotgandan keyin betonning o'ziga tirab taranglash mumkin (1.6-rasm, b). Ba'zi hollarda taranglash ishlari bevosita qurilish maydonchasining o'zida amalga oshiriladi. Bunga katta oraliqli va yirik o'lchamli konstruksiyalar, alohida bo'laklari zavodlarda tayyorlanib, qurilish maydonchasida yig'iladigan temirbeton konstruksiyalari misol bo'la oladi. Bunday hollarda konstruksiyaning o'zi tirgak vazifasini o'taydi, betonni yotqizish jarayonida konstruksiyada armatura uchun tuynuk yoki o'yiq qoldirilgan bo'ladi. Tuynuklar beton qotishi jarayonida sug'urib olinadigan rezina shlanglar yoki po'lat quvurlar yordamida hosil qilinadi yoki maxsus tayyorlangan sirti g'adir – budur po'lat quvurlar beton ichida qoldiriladi.



1.6-rasm. Oldindan zo'riqtirilgan temirbeton qonstruksiyalarni tayyorlashning asosiy usullari:  
 a – armaturani tirkaklarga tirab taranglash; b – armaturani betonga qadab taranglash;  
 I – armaturani taranglash va elementni betonlash; II, IV – tayyor elementlar; III – element  
 armaturasining cho'zilishdan oldindi qo'rinishi; 1 – tirkak, 2 – domkrat; 3 – anker

Beton etarli mustahkamlikka erishgach, tuynuk yoki o'yiqdan o'tkazilgan armatura tarang tortiladi va uchlari mahkamlanadi (ankerlanadi). Keyin armatura bilan beton orasidagi yopishuvni ta'minlash va armaturani zanglashdan asrash maqsadida tuynukka 0,5...0,6 MPa bosim ostida sement qorishma xaydaladi.

Betonning uzatish mustahkamligi  $R_{bp}$ , ya'ni betonning siqish daqiqasida mustahkamligi uning sinfini 50% idan hamda 11 MPa dan kam bo'lmasligi, A-IV, At-IV, K-7, K-19, Bp-II singari o'ta mustahkam armaturalarda esa 15,5 MPa dan kam bo'lmasligi zarur.

**Armaturani taranglash usullari.** Armaturani taranglashning asosan uchta usuli: mexanik, elektr-termik va fizik-kimyoviy (o'z-o'zini zo'riqtirish) usullari mavjud. Armaturani mexanik usul bilan taranglashda ko'pincha gidravlik domkratlardan foydalaniladi. Bu usulda aramaturada katta zo'riqish hosil qilishdan tashqari, taranglash kuchini ham aniq o'lchasa bo'ladi. Bunda cho'ziladigan sterjenlarni domkrat silindriga biriktiriladi, domkratning porsheni element uchiga (torets) yoki maxsus tirkaklarga tiraladi. Qudratli domkratlarda taranglanadigan armaturani porshen bilan biriktiriladi. Dasta (пучковая) armaturani taranglashda ikki yo'nالishda ishlaydigan engil ko'chma domkratdan foydalaniladi.

Aylanma stol yordamida o'ta mustahkam simdan uzlusiz armaturalash usuli ham samaralidir. Mazkur usul yordamida bir va ikki o'qli kuchlanish holatida bo'ladi dan to'sin, panel va quvur singari turli konstruksiyalarni oldindan zo'riqtirish mumkin. Tarang tortilgan sim bilan uzlusiz armaturalash usuli oldindan zo'riqtirilgan rezervuarlarni bunyod etishda

ham keng qo'llaniladi, bunda maxsus qo'zg'alma mashinalardan foydalani-ladi. Bu usulni tarang tortilgan ipni g'altakka o'rashga o'xshatsa bo'ladi.

Armaturani taranglashning elektr-termik usuli keyingi yillarda keng tarqaldi: endilikda oldindan zo'riqtirilgan konstruksiyalarning 3/4 qismi shu usul bilan tayyorlanmoqda.

Usulning afzalligi uning soddaligi va istalgañ korxonada quyish imkoniyati mavjudligidadir. Ishlatiladigan uskunalar 5...10 marta arzon, konstruksiya tayyorlash uchun sarflanadigan mehnat ham 2...3 marotaba kam. Biroq, aniqligi mexanik usuldagiga qaraganda ancha past. Bundan tashqari, bu usulda ko'pincha issiqlayin cho'zilgan simlardan foydalilanladi, chunki boshqacha mustahkam simlarda yuksak kuchlanish hosil qilish uchun juda katta haroratda qizdirishga to'g'ri keladi, bu esa simning mexanik xossasiga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Armaturaning elektr-termik usul bilan taranglashda, armatura sterjenlarining uzunligi (ankerlar oralig'ini) qolip tirkaklarida ma'lum masofaga kaltaroq olinadi (1.6-rasm), armaturadan tok o'tkazib, uni  $300\dots400^{\circ}\text{S}$  ga qizdiriladi. Uzaygan sterjenlar qolipning tirkaklariga erkin joylanadi, sovish jarayonida tirkaklar sterjenning qisqarishiga qarshilik ko'rsatadi, shu yo'l bilan sovigan sterjenlar oldindan zo'riqtiriladi. SHundan so'ng qolipga beton yotqiziladi va beton etarli mustahkamlikka erishgandan so'ng armaturani mahkamlash uskunalari (ankerlar) dan bo'shatiladi, bo'shagan armatura qisqarib betonni siqadi.

Ba'zan, o'ta mustahkam simlarni taranglashda ikki usulni birgalikda qo'shib ishlatish hollari ham uchraydi. Qo'shma usulga ko'ra qizdirilgan sim aylanma stol yordamida uzlusiz ravishda taranglanadi. Taranglashning bu usuli kuchlanishning 50% i mexanik usulda, qolgan 50% i qizdirib sovutish natijasida hosil qilinadi. Buning oqibatida mashinaning mahsul-dorligi ikki marotaba ortadi, konstruksiyasi ixchamlashadi, oldindan uyg'otilgan kuchlanishning nazorat qilinadigan qiymati yana ham yaqinlashadi.


Taranglashning fizik-kimyoviy usuli o'z-o'zidan zo'riqadigan konstruksiyalarni tayyorlashda qo'llaniladi. Bunda kengayuvchan sementdan tayyorlangan betonning o'zi kengayishi oqibatida armaturada kuchlanish paydo bo'ladi. Armaturada uyg'ongan cho'zuvchi kuchlanishlar betonni siqadi. Shu tariqa konstruksiya oldindan zo'riqadi.

**Armatura bilan betonning birikuvi.** Bu temirbetonni qurilish materiali sifatida mavjudligini ta'minlab turuvchi asosiy xossasidir.

Betondan sterjenni sug'urib olishda ularning birikuvidan hosil bo'ladigan urinma kuchlanish bir tekis taqsimlanishi tekshirishlarda aniqlangan (1.7-rasm). Birikuv mustahkamligi betondagi armaturani

sug‘urib yoki bosib kirgizish yo‘li bilan aniqlanadi va u beton bilan armaturaning yopishishi, beton kirishishidan armaturani siqilishi natijasida sodir bo‘lgan ishqalanishi va davriy profilli armatura bo‘rtib chiqqan joylarining betonga ilashishi tufayli ta’minlanadi.

$$I_{an} = N / (\tau_{tax} \pi d) = \sigma_s d / (4 \tau_t). \quad (1.5)$$




1.7-rasm. Armatura bilan betonning tishlashishi

Eng katta kuchlanish  $\tau_{tax}$  qistirib mahkamlangan yuza uzunligiga  $I_{an}$  bog‘liq emas. Birikuvni baholashda uzunlik bo‘yicha o‘rtacha kuchlanishdan foydalilanadi  $\tau_t = N / (\pi d l_{an})$ , u oddiy beton va silliq armatura uchun 2...4 MPa, davriy profilli armatura uchun esa  $\approx 7$  MPa. Bo‘ylama kuchni armaturadagi kuchlanish orqali ifodalab  $N = \sigma_s n d^2 / 4$  ni olamiz.

Bu formuladan ko‘rinib turibdiki, sterjen diametri va undagi kuchlanishning ortishi qistirib mahkamlangan yuza uzunligini oshiradi. Uni kamaytirish uchun beton mustahkamligini oshirish ( $\tau_t$ ) yoki davriy profilli armatura qo‘llash lozim.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, qistirib mahkamlangan yuza uzunligi silliq armaturalar uchun  $(30\dots40)d$ , davriy profilli armaturalar uchun esa  $(15\dots20)d$  tashkil etadi.

**Armaturalarni ankerlash.** Quyida zo‘riqtirilmagan armaturalarni ankerlash sxemalari keltirilgan (1.8-rasm).




1.8-rasm. Zo'riqtirilmaydigan armaturalarni anker (mahkam) lash:  
 a – doirali silliq sterjenlarni to'qilgan karkaslarda; b – sterjen oxirida maxsus ankerlari bilan;  
 d – sterjenlarni egish; e – chetki erkin tayanchlarda; 1 – plastina; 2 – kiyigizilgan kallak;  
 3–shayba; 4–burchak; 5–payvand; 6 – sterjenlarni egilishiga qarshilik ko'rsatadigan  
 qo'shimcha xomutlar

Elementlar diametri 5 mm gacha bo'lgan Bp-II sinfli sim bilan ankersiz armaturalansa, betonning sinfi B20 dan, diametri 6 mm va undan ortiq bo'lsa, B30 dan kam bo'lmasligi lozim. K-7 va K-19 sinfli arqonsimon armatura qo'llangan elementlardagi betonning sinfi kamida B30 olinadi. Agar A-V (At-IV) va At-IV sinfli sterjenli ankersiz armatura ishlatsilsa, armatura diametri 18 mm gacha bo'lganda, beton sinfi kamida B20 va B30, armatura diametri 20 mm va undan ortiq bo'lganda, B25 va B30 dan kam bo'lmasligi kerak.

Armaturani betonga tirab taranglanganda, uning uchida anker moslama hamma vaqt turishi shart (1.9-rasm), ammo tirkaklarga tirab tortganda maxsus ankerlar o'rnatish shart emas.

Binokorlikda alohida ingichka simlarni to'plab dastalangan armaturalardan ham foydalaniladi; tutamlama armatura aylanma –karkas 2 atrofida parallel joylashgan va uzunasiga har 1 metrda belbog'lar bilan bog'langan ingichka simlar 1 dan tashkil topadi. Tutamlama armatura ikki tomonlama ishlaydiga domkrat bilan taranglanadi.



1.9-rasim Kolodkali va konussimon qopqoqli anker:

1 – taranglangan armatura (18 ta simdan tashkil topgan armatura tutami); 2 – diametri 2 mm bo‘lgan spiral sim; 3 – diametri 1 mm bo‘lgan sim bog‘lama; 4 – kanal ishlash; 5 – dastak; 6 – qopqoq (probka); 7 – kanalni to‘ldirish teshigi; 8 – element uchiga qo‘yilgan sim to‘r

Aylana kesimli konstruksiyalar (rezervuarlar, quvurlar va h.k.) o‘ta mustahkam sim bilan uzluksiz ravishda armaturalansa, simning bir uchi o‘rama spiral ostiga mahkamlanadi va ikkinchi uchi siquvchi boltga o‘ralib, betonda qoldirilgan metall taxtakachlarga burab tig‘izlanadi.

Egiluvchi elementlarga ta’sir etuvchi ko‘ndalang kuchning qiymati salmoqli bo‘lsa, to‘sining tayanchga yaqin qismida zarurat bo‘lgan holda, bo‘ylama armaturadan tashqari ko‘ndalang armatura – xomutlar ham taranglanadi. Tayanch atrofida to‘sining ikki o‘q yo‘nalishida oldindan zo‘riqtirilishi og‘ma kesimlar bo‘yicha yorilishining oldini oladi.


## II BOB. TEMIRBETON KONSTRUKSIYALARNI LOYIHALASH ASOSLARI VA ULARNING KUCHLANGANLIK HOLATI

### 2.1. Egiluvchi temirbeton elementlarni loyihalashning o'ziga xos xususiyatlari

Temirbetonli egiluvchi elementlar plita va to'sin ko'rinishida qo'llaniladi. Bular murakkab konstruksiyalar va inshootlarning tarkibida yoki alohida holda ham uchrashi mumkin: masalan, qovurg'ali yopmalar (2.1-rasm), inshootlarning karkaslari va b.

Qalinligi  $h_s$  uzunligi  $l$  va eni  $b_s$  dan ancha kichik bo'lgan yassi elementlarga – *plitalar*, uzunligi  $l$  ko'ndalang kesimlari  $h$  va  $b$  dan bir necha bor katta bo'lgan chiziqli elementlar esa *to'sinlar* deyiladi.

**Plitalar va ularni loyihalash.** Plitalar yaxlit, tekis va qovurg'ali bo'ladi; oraliqlari soniga qarab – bir oraliqli (2.1-pacm, a) va qo'p oraliqli (2.1-pacm, b, d); tayyorlash usuliga qarab – yig'ma, monolit va yig'ma-monolit (2.2, f, g-rasm) bo'lishi mumkin.




2.1-rasm. Plitalarni armaturalash:

a – bir oraliqli; b – uzlucksiz armaturalangan ko'p oraliqli; c – xuddi shunday, uzlukli armaturalangan; I – ishchi sterjenlar; 2 – montaj sterjenlari

Plitalar o'zaro tik sterjenlardan tashkil topgan to'rlar bilan armaturalanadi. Agar ishchi armatura faqat bir yo'nalishga kerak bo'lsa, u

holda ikkinchi yo‘nalishdagi armatura zo‘riqishlarni taqsimlash va bo‘ylama armaturalarni o‘zaro bog‘lash vazifasini o‘taydi. Bu armatura betonning harorat ta’sirida va kirishishi natijasida vujudga qeladigan deformatsiyani jilovlaydi, tashishda qulaylik tug‘diradigan to‘r hosil qiladi.

Yig‘ma plitalar vazifalariga qarab har xil tur va o‘lchamli bo‘ladi. Yirik o‘lchamli yig‘ma plitalar *panellar* deb nomlanadi. Ular ko‘ndalang kesimi bo‘yicha butun, qovurg‘ali (2.2-rasm, *a,b*) va ichi bo‘sh (2.2-rasm, *d,e*) bo‘ladi.



2.2-rasm. Yig‘ma, yig‘ma-monolit plitalarning ko‘ndalang kesimlari:  
*1* – payvandlangan to‘r; *2* – ishchi armatura; *3* – yassi karkaslar; *4* – yig‘ma elementlar; *5* – monolit beton

Yig‘ma plita (panel) lar tekis payvandli to‘r va qolipa joylashtirish qulay bo‘lishi uchun, bitta fazoviy karkasga birlashtirilgan karkaslar bilan armaturalanadi.

Yig‘ma-monolit plitalar yig‘ma elementlar va qurilish maydonida betonlanadigan monolit qismidan tashkil topgan (2.2-rasm, *f,g*). Qotgan beton konstruksiyani birgalikda ishlaydigan butun tizimga aylantiradi. Yig‘ma elementlar odatda monolit beton uchun qolip vazifasini o‘taydi va bir vaqtida unga asosiy armatura joylashtiriladi (2.2-rasm, *f,g*). Yig‘ma-monolit plitalarning boshqa ko‘rinishi monolit beton bilan birga armatura vazifasini bajaradigan strunobetonli oldindan zo‘riqtirilgan elementlardir (2.2-rasm, *g*). Yig‘ma elementlar yuqori sinfli betondan tayyorlanadi, monolit uchastkalar uchun esa oddiy beton qo‘llaniladi.

Plitalarda betonning himoya qatlami sterjen, sim va kanatlar

diametridan kichik qalinligi 100 mm gacha bo‘lgan plitalarda 10 mm dan, qalinligi 100 mm dan katta bo‘lgan plitalarda esa 15 mm dan kam bo‘lmasligi kerak.

Yaxlit plitalarning qalinligi odatda  $h = 50 \dots 100$  mm olinadi. Katta oraliqning kichik oraliqqa nisbati  $l_2/l_1 > 3$  bo‘lgan to‘sinsimon plitalarda, shuningdek o‘lchamlar nisbatidan qat’inazap, kontur bo‘ylab tayangan plitalarda, birinchi holda ishchi armatura  $l_1$  oraliq bo‘ylab, ikkinchi holda – plitaning tayanish chizig‘iga tik ravishda qo‘yiladi. Ikki yo‘nalishda egiladigan plitalarda ishchi armatura har ikkala yo‘nalishda joylashtiriladi.

To‘sinsimon plitalarning ishchi armaturalari uning cho‘ziluvchi sirtiga yaqin joylashtirilishi zarur; bunda, albatta, talab etilgan himoya qatlami qoldiriladi. Erkin tayangan plitalarda armatura to‘ri faqat pastki cho‘zilish zonaciga, ko‘p oraliqli uzlusiz plitalarda eca, eguvchi momentlar epyurasiga muvofiq ravishda, tayanchlar oralig‘ida pastki va tayanch ustida esa ustki cho‘zilish zonasiga joylanadi.

Plitalarning hisobiy uzunliklari qovurg‘ali monolit plitalarda ochiq oraliq uzunligiga teng bo‘ladi, erkin tayangan plitalarda esa ochiq oraliq uzunligiga plita qalinligini qo‘shib olinadi. Plitalarda ishchi armaturalar diametri 5…12 mm, montaj armaturalarniki esa 4…8 mm olinishi mumkin. Ishchi armaturaning umumiy yuzasi hisob asosida belgilanadi; montaj armaturasining yuzasi konstruktiv ravishda qabul qilinadi; bu yuza eng katta moment hosil bo‘ladigan kesimdagagi ishchi armatura yuzasining 10% idan kam bo‘lmasligi lozim.

Ishchi sterjenlar orasidagi masofa plitaning o‘rta qismida va tayanch ustida, plita qalinligi  $h_p \leq 150$  mm bo‘lsa, qo‘pi bilan 200 mm; agar  $h_p > 150$  mm bo‘lsa, ko‘pi bilan  $1,5h_p$  olinadi. Sterjenlar oralig‘i qolgan uchastkalarda 350 mm dan ortmasligi kerak. Taqsimlovchi armaturalar oralig‘i ham ko‘pi bilan 350 mm olinadi. Plitalarni o‘rama yoki tekis ko‘rinishda tayyorlangan standart payvand simto‘rlar bilan armaturalash maqsadga muvofiqdir. Bunday simto‘rlar diametri 3…5 mm bo‘lgan oddiy armaturabop simlardan yoki diametri 6…10 mm bo‘lgan A – III sinflı davriy profilli po‘latdan ishlanadi. Po‘latni tejash maqsadida ishchi sterjenlarning bir qismi, tayanchgacha etkazilmay, eguvchi momentlar epyurasiga muvofiq ravishda, oraliqda uzib qo‘yilishi mumkin. Tayanchgacha etkaziladigan sterjenlarning kesim yuzasi eng katta musbat eguvchi momentga mos bo‘lgan kesimdagagi armaturalar kesim yuzasining 1/3 qismidan kam bo‘lmasligi kerak.

**To‘sinlar va ularni loyihalash.** Temirbeton to‘sirlarning ko‘ndalang kesimlari turli shakllarga ega bo‘lishi mumkin. Bular ichida eng ko‘p tarqalganlari to‘g‘ri to‘rtburchak (2.3-rasm, a), tokchasi yuqorida

joylashgan tavr (2.3-rasm, *b*) va qo'shtavr (2.3-rasm, *f*) shaklli kesimlardir. SHular bilan bir qatorda tokchasi pastda joylashgan tavr (2.3-rasm, *d*), trapetsiyasimon (2.3-rasm, *e*), ichi bo'sh (2.3-rasm, *e*) va boshqacha shaklli kesimlar ham qo'llanadi. Tavr shaklli kesimlar alohida to'sinlarda ham, qovurg'ali monolit yopmalarda ham uchraydi (2.3-rasm, *h*).




2.3-rasm. Temirbeton to'sinlarning qo'ndalang kesim yuzalari

Ko'ndalang kesimlar balandligi odatda to'sin uzunligining 1/10 – 1/20 qismini, kengligi esa balandlikning 1/2–1/4 qismini tashkil etadi. Ko'ndalang kesim o'lchamlarini bixillashtirish maqsadida to'sinning balandligi (agar  $h < 500$  mm bo'lsa) 50 mm va ( $h > 500$  mm bo'lsa) 100 mm ga karrali qilib olinadi; to'sinning kengligi 100, 120, 150, 180, 200, 250 mm, davomi 50 mm ga karrali bo'ladi.

Bo'ylama ishchi armatura, ozgina himoya qatlami qoldirilgan holda, to'sinning cho'zilish zonasiga joylanadi. Qiya kesimlarda qarshilikni oshirish maqsadida ko'ndalang armaturalar o'rnatiladi. Bundan tashqari, ko'ndalang armaturani mahkamlash va fazoviy karkas hosil qilish uchun to'sinning siqilish zonasiga montaj armaturasi qo'yiladi.

To'sinlar asosan payvandlangan karkaslar bilan (2.4-rasm, *a*), ba'zi hollarda to'qima karkaslar bilan (2.4-rasm, *b*) armaturalanadi. Payvand to'rlardagi cho'ziluvchi sterjenlar 2 tayanchga qadar olib boriladi, 3 sterjen oraliqda uzib qo'yiladi. Montaj sterjenlari 1 va ko'ndalang 4 sterjenlar qirquvchi kuchlarni qabul qiladi. To'qima karkasdagi bo'ylama cho'ziluvchi sterjen 7 ham tayanchga qadar mo'ljallangan, 6 – bukilgan sterjen, 5 – montaj sterjeni, 8 – ochiq xomut, 9 – yopiq xomut ham karkas hosil qilish uchun ishlatiladi.

To'sin kesimidagi yassi payvand to'rlarning soni turlicha bo'lishi mumkin. To'sin kesimining kengligi 100...150 mm bo'lsa – bitta, kenglik kattaroq bo'lsa – ikkita va undan ortiq to'r o'rnatiladi. Po'latni tejash maqsadida ishchi bo'ylama armaturalarning bir qismi tayanchlargacha etkazilmay, oraliqda uzib qo'yilishi mumkin. Bu ish hisoblarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Biroq (to'sinning kengligi 150 mm va undan ortiq bo'lsa), kamida ikki sterjen tayanchga qadar davom ettirilishi zarur. Alohida yassi to'rlar sterjenlar yordamida birlashtirilib, fazoviy karkas hosil qilinadi.



2.4-rasm. Bir oraliqli to'sinlarni armaturalash:  
a – payvand karkaslar; b – to'qima karkaslar.

To'sinlar to'qima karkaslar bilan armaturalansa, ko'ndalang kuchlarni qabul qilish uchun xomutlar o'rnatiladi. Agar siqilish zonasidagi bo'ylama sterjenlar ikkitadan ortmasa – ochiq xomut, ikkitadan ortsa va hisob bo'yicha siqilish zonasiga armatura qo'yilishi lozim bo'lsa – yopiq xomut qo'yiladi. To'sinning kengligi 350 mm dan katta bo'lsa, to'rt simli xomut qo'yish tavsiya etiladi; bunday xomut ikkita ikki simli xomutdan tashkil topadi.

To'qima karkaslarda bo'ylama ishchi armaturaning bir qismini tayanch yaqinida bukib, siqilish zonasiga kiritib qo'yish maqsadga muvofiqdir (2.4-rasm, b). To'sinning bu qismida cho'ziluvchi armatura kamroq talab etiladi, biroq, ko'ndalang kuchlarni (bosh cho'zuvchi kuchlanishlarni) qabul qilish uchun, ko'proq armatura talab etiladi. Bukmalar asosan  $45^{\circ}$  burchak ostida o'tkaziladi, ammo baland to'sinlarda (balandligi 800 mm dan ortiq bo'lsa) bukilish burchagini  $60^{\circ}$  ga kadar oshirish, balandligi past bo'lgan to'sinlarda  $30^{\circ}$  ga qadar kamaytirish mumkin.

Ishchi bo'ylama armaturaning diametri 10...40 mm oralig'ida olinishi zarur. To'qima karkas xomutlarining diametri to'sin kesimining balandligi 800 mm gacha bo'lsa – kamida 6 mm, 800 mm dan ortiq bo'lsa – kamida 8 mm olinadi. Montaj armaturasi diametrini 10...12 mm olsa bo'ladi.

To'sin kesimining balandligi 700 mm dan katta bo'lsa, to'sinning ikkala yon sirti yaqiniga har 400 mm oraliqda diametri 10...12 mm bo'lgan bo'ylama sterjenlar o'rnatish tavsiya etiladi. Bu sterjenlar kesimlarining yig'indi yuzasi to'sin qovurg'asi kesim yuzasining 0,1% idan kam bo'lmasligi kerak. Tavr kesimli ba'zi to'sinlarda payvandlangan karkaslar bilan bir qatorda tokchalarni armaturalash uchun payvand to'rlari ishlataladi.

Beton yotqizish va zichlashtirishni qulaylashtirish uchun, shuningdek armatura bilan beton orasidagi yopishuv ishonchliroq bo'lishi uchun, bo'ylama sterjenlar orasidagi masofa armatura diametridan kichik bo'lmasligi, hamda pastki armaturalar oralig'i 25 mm dan, ustki armaturalar oralig'i 30

mm dan kam bo'lmasligi lozim. Armaturalar kesim balandligi bo'yicha ikki qatordan ortiq bo'lsa, bo'ylama sterjenlar orasidagi masofa gorizontal yo'nalishda 50 mm dan kam bo'lmasligi kerak.

Xomutlar orasidagi masofa to'sin kesimining balandligi  $h \leq 450$  mm dan kichik bo'lsa,  $1/2h$  yoki ko'pi bilan 150 mm; agar kesim balandligi 450 mm dan katta bo'lsa,  $1/3h$  yoki ko'pi bilan 300 mm olinadi. Bu talab tayanchlarga yaqin uchastkalar uchun taalluqlidir. To'singa tekis yoyiq kuch qo'yilgan bo'lsa, tayanch oldi uchastkasi deb  $1/4$  masofa, agar yig'iq kuchlar qo'yilgan bo'lsa, tayanchdan birinchi yig'iq kuchgacha bo'lgan masofa qabul qilinadi. To'sinning qolgan qismlarida xomutlar orasidagi masofa  $3h/4$  gacha oshirilishi mumkin, lekin xomutlar orasidagi masofasi 500 mm dan oshmasligi kerak.

**Oldindan zo'riqtirilgan temirbeton elementlarni loyihalash.** Oldindan zo'riqtirilgan elementlar uchun armatura po'latlari konstruksiya turi, beton sinfi, ta'sir etuvchi kuchlarning xarakteri, atrof muhitning harorati va zararliligi, ishlash sharoiti va boshqa omillarga bog'liq holda tanlanadi. Iloji boricha mustahkamligi yuqoriroq bo'lgan armatura tanlashga harakat qilish kerak. Betonning sinfi konstruksiyaning turi, betonning xili, taranglangan armaturani sinfi va diametri, ankerining bor-yo'qligiga qarab belgilanadi.


Taranglangan armaturani betonga yaxshi birikuvi va zo'riqishlarning betonga uzatilishini ta'minlash maqsadida armaturani uchiga anker deb atalgan maxsus mahkamlovchi moslama o'rnatiladi. Armaturani tirkaklarga tirab taranglaganda, agar armatura bilan beton o'zicha puxta biriksa, masalan, armatura davriy profilli po'latdan yoki sim arqonlar (kanat) dan tashkil topgan bo'lsa, anker uskunalamasa ham bo'ladi. Biroq, buning uchun beton yuqori darajada mustahkam bo'lishi, bundan tashqari, maxsus konstruktiv choralar qo'llangan (qo'shimcha ko'ndalang armaturalar o'rnatilgan, himoya qatlamining qalinligi oshirilgan) bo'lishi lozim.

Aylana kesimli konstruksiyalar (rezervuarlar, quvurlar va h.k.) o'ta mustahkam sim bilan uzlusiz ravishda armaturalansa, simning bir uchi o'rama spiral ostiga mahkamlanadi va ikkinchi uchi siquvchi boltga o'ralib, betonda qoldirilgan metall taxtakachlarga burab tig'izlanadi.

Oldindan zo'riqtirilgan temirbeton konstruksiyalarda taranglangan armatura ta'sir etuvchi kuchga qarab joylashtiriladi. Markaziy cho'ziladigan elementlarda (fermalarning pastki tasmalari, tortqichlar va h.k.) taranglangan armatura kesim bo'ylab bir tekisda joylashtiriladi, rezervuar va quvurlarning devorlari maxsus mashinalar yordamida o'ta mustahkam sim bilan armaturalanadi yoki halqa simlar o'ralib, domkrat yoki tortuvchi muftalar yordamida taranglanadi.

Egiluvchi nomarkaziy cho'ziluvchi va elkasi katta bo'lgan nomarkaziy

siqiluvchi elementlarning kesimi qo'shtavr, tavr va qutisimon shakllarda loyihalanadi. Egiluvchi elementlarda oldindan zo'riqtiriladigan asosiy armatura cho'ziladigan zonada joylashtiriladi, ba'zan kesim yuzasi  $A_{sp} = (0,15...0,25)A_s$  bo'lgan oldindan zo'riqtiriladigan armatura siqiladigan zonada ham o'rnatiladi (2.5-rasm, a-e). Oldindan zo'riqtiriladigan armaturani siqiladigan zonaga joylashtirishdan maqsad shuki, u nomarkaziy siqilgan (tayyorlash jarayonida) betonni yorilishdan asraydi, chunki egiluvchi to'sinning siqiladigan zonasi bunday paytda cho'zilishga ishlay boshlaydi va to'sinda yorilish havfi paydo bo'ladi.




2.5-rasm. Oldindan zo'riqtirilgan egiluvchi elementlarni armaturalash:  
 1 – 4 – zo'riqtirilgan armatura; 5, 6 – zo'riqtirilmagan armatura; 7 – siquvchi zo'riqishdan hosil bo'lgan kuchlanishlar epyurasi; 8 – tashqi yuklar ta'sirida hosil bo'lgan kuchlanishlar epyurasi

2.5-rasm, e da siquvchi kuch va tashqi yoyiq yuk ta'sirida to'sinda vujudga keladigan kuchlanishlar epyurasi tasvirlangan; bu erda elka  $l_{op}$  o'zgarmas bo'lib, kuchlanish momentlar epyurasiga muvofiq ravishda parabola bo'yicha o'zgaradi. Epyuralarning algebraik yig'indisini olganda (yig'indi epyura 2.5-rasm, e da shtrixlab ko'rsatilgan), to'sinning pastki qirrasidagi cho'zuvchi kuchlanishlar ancha kamayadi, agar siquvchi kuch  $R$  va uning elkasi to'g'ri tanlansa, o'sha kuchlanish butunlay yo'qolishi mumkin. To'sinning tayanch yaqinidagi yuqori qismida siquvchi  $R$  kuchdan hosil bo'lgan cho'zuvchi kuchlanish saqlanib qoladi, to'sinning shu uchastkasi emirilishi ham mumkin, element uchlaridagi kuchlanishlarning kamaytirish maqsadida pastki taranglangan armaturaning bir qismi bukib qo'yiladi (2.5-rasm, a). Bunda elka  $e_{op}$  hamda siquvchi kuch  $R$ , demak, cho'zuvchi kuchlanish ham elementning

uchi tomon kichrayib boradi. Tayanch yaqinidagi og'ma kesimida hosil bo'ladigan bosh cho'zuvchi kuchlanishlarni qabul qilishda ham taranglangan armaturani bukish foydadan holi emas.

Egiluvchi elementlarga ta'sir etuvchi ko'ndalang kuchning qiymati salmoqli bo'lsa, to'sinning tayanchga yaqin qismida zarurat bo'lgan holda, bo'ylama armaturadan tashqari ko'ndalang armatura – xomutlar ham taranglanadi. Tayanch atrofida to'sinning ikki o'q yo'nali shida oldindan zo'riqtirilishi og'ma kesimlar bo'yicha yorilishining oldini oladi.

Oldindan zo'riqtirilgan konstruksiyada, ayniqsa, armatura betonga tirab taranglanadigan holatlarda zo'riqtiriladigan armaturalar  $A_{sp}$  va  $A'_{sp}$  dan tashqari zo'riqtirilmagan oddiy armaturalar  $A_s$  va  $A'_s$  ham joylashtiriladi (2.6-rasm). Tuynuklar orasidagi masofalar pastki armaturalar uchun armatura diametridan yoki 25 mm dan, tuynuklar orasidagi masofa esa tuynuk diametridan yoki 50 mm dan kam bo'lmasligi lozim.



2.6-rasm. Oldindan zo'riqtirilgan to'sinning cho'zilgan zonasini armaturalash:  
a – sterjenlar bilan; b – yuqori mustahkamli simlar bilan; d – kanaldagi o'ramlar bilan;  
1 – xomutlar; 2 – zo'riqtirilgan armatura; 3 – oddiy bo'ylama armatura

To'sinning ko'ndalang kesimida zo'riqtirilgan armatura cho'zilgan zonada balandligi bo'yicha bir necha qator qilib joylashtiriladi (2.6-rasm). Uni joylashtirish uchun element siqilganida, bir vaqtda kesim bu qismining mustahkamligini ta'minlash uchun xizmat qiladigan kengaytirish ko'zda tutiladi.

Oldindan zo'riqtirilgan to'sinlarda elementlarning uchlarini konstruksiyalash katta ahamiyatga ega. Bu erda siquvchi kuchning katta qismi armaturadan betonga qayta taqsimlanadi, buning natijasida mahalliy kuchlanishlar sodir bo'ladi.

Oldindan zo'riqtirilgan konstruksiyalarni loyihalash jarayonida kuch

ko‘p tushadigan ayrim joylarini kuchaytirish talab etiladi. Ankerlar va tortish moslamalari o‘rnatilgan joylar ana shunday joylardan sanalib, bu joylar qo‘shimcha ko‘ndalang armatura yoki metall taxtakach qo‘yish yoki o‘sha uchastkada element kesimini kattalashtirish yo‘li bilan kuchaytiriladi.


## 2.2. Egiladigan temirbeton elementlarning kuchlanganlik holati

### *Temirbetonning egilishdagi kuchlanish holati bosqichlari.*

Temirbeton to‘sini egilganda, uning kesimlaridagi eguvchi momentning qiymatiga qarab navbat bilan kuchlanish – deformatsiyalanish holatining uch bosqichi ro‘y beradi.

**I bosqichda** yuk kam bo‘ladi, beton va armaturadagi kuchlanish ham shunga yarasha bo‘lib, beton asosan elastik chegarada deformatsiyalanadi. Kuchlanishlar epyurasi siqilish va cho‘zilish zonalarida deyarli to‘g‘ri chiziqli bo‘ladi (2.7-rasm,I, a, b, d, e). Yukning ortishi bilan beton va armaturadagi kuchlanish ortadi, betondagi elastiklik va noelastiklik deformatsiyalar rivojlanadi, kuchlanishlar epyurasi biroz egrilashadi, to‘sining neytral o‘qi siqilish zonasini tomon siljiydi. Bu **bosqich I** deb belgilanadi. Mazkur bosqichda betonning cho‘zilish zonasini ham darzdan holi bo‘ladi, zo‘riqishlar butun kesim bo‘yicha qabul qilinadi. Kuchlanishlarni aniqlashda elastik qarshiliklar formulasidan foydalanish mumkin. Bosqichning oxirida to‘sining cho‘zilgan tola qatlamida kuchlanish betonning cho‘zilishidagi mustahkamlik chegarasi  $R_{bt}$  ga tenglashadi (2.7-rasm,I, f). Temirbeton elementlarining yorilishga bardoshliliqi shu bosqich bo‘yicha hisoblanadi.

**II bosqichda** betonning cho‘zilish zonasida yoriqlar paydo bo‘ladi. Yorilgan kesimda betondagi kuchlanish nolga teng deb olinadi (2.7-rasm,II, g). Yoriq bilan neytral o‘q orasidagi kichkina cho‘zilish zonasini hisobga olinmaydi. Siqilish zonasida betondagi kuchlanish siqilishdagi mustahkamlik chegarasidan kam bo‘lib, cho‘ziluvchi armaturadagi kuchlanish avval  $\sigma_s$  ga, bosqich oxirida esa  $R_s$  ga tenglashadi. Bu bosqich konstruksiyalarni chegaraviy holatlarini ikkinchi guruhi bo‘yicha hisoblashda asosiy bosqich sanaladi.



2.7-rasm. Egiluvchi elementning kuchlanganlik va deformatsiyalanish holatining bosqichlari

**III bosqich** elementning sinishi (buzilishi) oldidagi bosqichdir (2.7-rasm, III, *h*, *i*). Bunda betonning siqilish zonasidagi kuchlanishlar epyurasi plastik deformatsiyalar evaziga egrilashadi. Betonning siqilish zonasidagi kuchlanish  $R_s$  yoki  $\sigma_s$  ga tenglashadi, cho'zilish zonasidagi yoriqlar kattalashadi, to'sin bikrliki kamayadi, solqilik tez o'sib borib, to'sin sinadi.

III bosqichda to'sinning sinishi cho'ziluvchi armaturaning soni va mexanik xossalariiga bog'liq. Agar to'sin o'z me'yorida armaturalangan bo'lsa, sinish cho'zilgan armatura tomonidan boshlanadi. Bunday emirilish ***birinchi sxema*** (2.7-rasm, III, h) bo'yicha emirilish deyiladi. Armaturadagi kuchlanish oqish chegarasiga etganda, armaturaning plastik deformatsiyasi va to'sinning solqiligi tez o'sib boradi, buning oqibatida betonning siqilish zonasida kuchlanish mustahkamlik chegarasiga etadi. va beton emiriladi.

Shunday qilib, temirbeton elementi sinishidan ilgari unda «plastik sharnir» hosil bo'ladi, bu kesimda beton va armaturadagi kuchlanish chegaraviy qiymatga erishadi. Bunga asoslanib (A.F. Loleyt taklifiga ko'ra), yuk ko'tarish qobiliyati bo'yicha hisoblash formulalarini statikaning muvozanat shartlaridan foydalanib chiqarsa bo'ladi.

Egiluvchi elementlarda cho'ziluvchi armaturaning miqdori me'yordan ko'p bo'lsa, emirilish betonning siqilish zonasida boshlanadi, bunda cho'ziluvchi armaturadagi kuchlanish chegaraviy qiymatga etib bormasligi mumkin. Bunday emirilish ***ikkinci sxema*** bo'yicha emirilish deyiladi (2.7-rasm, III, i). Buzuvchi kuchlanishlar hamda chegaraviy holatlar usulining zaminida III bosqich yotadi. Ushbu bosqich konstruksiya elementlarni chegaraviy holatlarining I guruhi bo'yicha hisoblashda asosiy bosqich sanaladi.

***Oldindan zo'riqtirilgan temirbetonning kuchlanganlik holati bosqichlari.*** Oldindan zo'riqtirilgan temirbeton konstruksiyalarida betonni siqish boshlanganida, tashqi kuchlar ta'sirida emirilishgacha bo'lgan kuchlanishlar holati bir necha xarakterli bosqichlarga bo'linadi. O'q bo'ylab cho'ziladigan elementga markaziy siquvchi va tashqi kuchlar ta'sirini ko'rib o'taylik. Beton siqligandan keyin elementda quyidagi kuchlanish holati tarkib topadi:

- yo'qoluvlarning birlamchi turlari sodir bo'lgach betonda  $\sigma_{b1}$ , armaturada  $\sigma_{sp} - \sigma_{los} - \alpha\sigma_{b1}$ ;
- yo'qotuvlarning hamma turlari sodir bo'lgach, betonda  $\sigma_{b2}$ , armaturada  $\sigma_{sp} - \sigma_{los} - \alpha\sigma_{b1}$  kuchlanish hosil bo'ladi. Bu erda 1 – indeksi kuchlanishlaridan birlamchi yo'qotuvlar, 2 – indeksi esa barcha yo'qotuvlar ayirib tashlanganligini bildiradi. Elementning bu holatida oldindan uyg'otilgan kuchlanishlar muqim qaror topgan bo'lib, tashqi kuchlar qo'yilgunga qadar bu holat 0-bosqichga kiradi. Tashqi cho'zuvchi kuchlar ortgan sari betonda oldindan uyg'otilgan siquvchi kuchlanishlar kamayib, armaturadagi cho'zuvchi kuchlanishlar orta boradi. Betonda oldindan uyg'otilgan kuchlanishlar so'nganda, armaturadagi kuchlanish  $\sigma_{sp2} = \sigma_{sp} - \sigma_{los}$  bo'ladi. Shu holatdan boshlab element oddiy temirbeton elementi kabi ishlaydi, chunki unda oldindan uyg'otilgan kuchlanishlar

so'ngan bo'ladi. Elementning bunday holati **I,a bosqichga** kiradi. Tashqi kuchlarning yanada ortishi betonda cho'zuvchi kuchlanishlarni paydo qiladi, bu kuchlanishlar orta borib, cho'zilishdagi mustahkamlik chegarasi  $R_{bi}$  ga tenglashishi mumkin. Elementning bu holati **I bosqichga** kirib, uni yoriqlar paydo bo'lishiga hisoblash ana shu bosqichga asoslanadi.

Navbatdagi **II bosqichda** betonda yoriqlar paydo bo'ladi, biroq armaturadagi kuchlanish hisobiy qarshilikdan kichikroq bo'ladi. Kuchning yanada ortishi elementda **III bosqichni** yuzaga keltiradi, bu bosqichda element emiriladi.

*Siqilgan zona nisbiy balandligining chegaraviy qiymati.*  $\xi_R$  – nisbiy balandlik  $\xi$  ning chegaraviy qiymatini quyidagi formuladan topish mumkin:

$$\xi_R = \omega / [1 + (\sigma_{sR} / \sigma_{sc,u})(1 - \omega / 1,1)]. \quad (2.1)$$

Bu erda  $\omega$  beton siqilish zonasini tavsiflaydigan miqdor bo'lib,  $\omega = \alpha - \beta R_b$  formuladan topiladi. Bundagi  $\alpha$  – betonning xiliga bog'liq bo'lgan koefitsient ( $\alpha = 0,85 \dots 0,75$ );  $\beta$  – betonga bog'liq bo'lmagan koefitsient ( $\beta = 0,008$ );  $\sigma_{sR}$  – armaturadagi cho'zilish kuchlanishi, MPa, armaturaning xiliga qarab olinadi;  $\sigma_{sc,u}$  – siqilish zonasida joylashgan armaturada hosil bo'ladigan chegaraviy kuchlanish; uning qiymati  $\gamma_{b2} \geq 1,0$  bo'lsa, 400 MPa va  $\gamma_{b2} < 1$  bo'lsa, 500 MPa ga teng bo'ladi. Elementlar siqilish bosqichida hisoblansa,  $\sigma_{sc,u} = 330$  MPa.

Oqish maydonchasi mavjud bo'lmagan po'lat bilan armaturalangan temirbeton elementlarning siqilish zonasasi nisbiy balandligining chegaraviy qiymati (31) dan aniqlanadi.

$$\xi_R = \omega / [1 + (\sigma_{sR} / \sigma_{sc,u})(1 - \omega / 1,1)]. \quad (2.2)$$

Bunda armaturadagi kuchlanish  $\sigma_{sR} = R_s + 400 - \sigma_{sp2} - \Delta\sigma_{spi}$  (MPa) bo'ladi. Bu erda  $\sigma_{sp}$  – barcha yo'qotuvlar hisobga olinganda armaturada oldindan uyg'otilgan kuchlanishning qiymati;  $\Delta\sigma_{spi}$  – oldindan uyg'otilgan kuchlanishning qiymati elastiklik chegarasidan oshganda armaturada vujudga keladigan noelastik deformatsiyalarda hosil bo'lgan qo'shimcha yo'qotuv A–IV, A–V, A–VI sinfli sterjenlar uchun  $\Delta\sigma_{spi} = 1500 - \sigma_{spi}/R_{si} - 1200 \geq 0$ , armaturaning boshqa xillari uchun  $\Delta\sigma_{spi} = 0$ .

Yuqoridaagi formulani emirilishning birinchi va ikkinchi sxemalari orasidagi chegaraviy shartni aniqlashda foydalansa bo'ladi.  $\sigma_s = R_s$  deb olib, nisbiy balandlikni chegaraviy qiymatini  $\xi_R$  topamiz, bunda armaturadagi cho'zuvchi kuchlanish chegaraviy qiymatga etadi. Emirilish ikkinchi sxema bo'yicha sodir bo'lganda, armaturadagi kuchlanish quyidagi

formuladan topiladi:

$$\sigma_{sR} = \sigma_{sc,u} / (1 - \omega/1,1) (\omega/\xi_i - 1) + \sigma_{sp}. \quad (2.3)$$

**Temirbetonli to'sin sinishining sxemalari va hisoblash hollari.** Tajribalardan ma'lumki, agar  $\xi \leq \xi_R$  bo'lsa, emirilish birinchi sxema bo'yicha, agar  $\xi > \xi_R$  bo'lsa emirilish **ikkinchchi sxema** bo'yicha sodir bo'ladi.

SHunday qilib, oddiy va oldindan zo'riqtirilgan konstruksiyalarni yagona uslub bilan hisoblash mumkin. Bunda kuchlanganlik holatining III bosqichi asos qilib olinadi.

Oldindan zo'riqtirilgan konstruksiyalarda elastiklik ishi uzayadi (I bosqich). Agar oddiy elementlarda yoriqlar sindiruvchi momentning 10...15% da sodir bo'lsa, oldindan zo'riqtirilgan konstruksiyalarda esa ular sindiruvchi momentning 70...80% da sodir bo'ladi.

Temirbeton elementlar uchun kesim tanlashda shuni nazarda tutish lozimki, teng kuchli mustahkamlikka erishish uchun, kesim o'lchamlari bilan armaturalash foizini o'zaro moslashtirish kerak. Masalan, element kesimining balandligi ortishi bilan armatura kesim yuzasining kichrayishi kuzatiladi. Konstruksiyalarni hisoblashda ularning eng tejamkor va arzon nusxalarini tanlashga intilmoq zarur. Tajribalarning ko'rsatishicha, to'sinlarda  $\xi = 0,2 \dots 0,3$  va plitalarda  $\xi = 0,1 \dots 0,25$  olinca, mablag' tejaladi.

### 2.3. Oldindan zo'riqtirilgan konstruksiya armaturasidagi kuchlanishning yo'qolishi

Armaturani taranglash chog'ida unda oldindan uyg'otilgan kuchlanishlar vaqt o'tishi bilan qaytmas yo'qotuvsalar evaziga kamayib boradi. Ushbu yo'qotuvsalar betonning kirishishi va tob tashlashi, po'latdag'i kuchlanishlarning relaksatsiyasi (kamayishi), ankerlar deformatsiyasi, armaturaning tuynuk devorlariga ishqalanishi va boshqalar natijasida sodir bo'ladi. Oldindan zo'riqtirilgan konstruksiyalarni hisoblashda ana shu yo'qotuvsularni e'tiborga olish lozim, chunki ularning qiymati ayrim hollarda ancha sezilarli bo'lishi (boshlang'ich nazorat qilinadigan kuchlanish  $\sigma_{sp}$  ning 30...40% ini tashkil etishi) mumkin.

Armaturada oldindan uyg'otilgan dastlabki kuchlanishlarning qiymati doimiy emas, vaqt o'tishi bilan kuchlanishlar kamayadi. Kamayishning birlamchi va ikkilamchi deb ataluvchi turlari bor. Birlamchi kamayishlar element tayyorlanayotgan va beton siqilayotgan davrda sodir bo'ladi. Ikkilamchi kamayishlar esa beton siqilgandan keyin sodir bo'ladi.

*Birlamchi yo'qolishlarga* quyidagilar kiradi:

1. Armaturadagi kuchlanishlar relaksatsiyasi tufayli kamayish;
2. Harorat farqi tufayli kamayish;
3. Ankerlar deformatsiyasi tufayli kamayish;
4. Armaturadagi ishqalanish tufayli kamayish;
5. Po'lat qoliplar deformatsiyasi tufayli kamayish;
6. Beton siqilishining dastlabki soatlarida betondagi tob tashlash tufayli kamayish.

Har bir kamayish alohida formula orqali aniqlanadi.

1. Taranglangan armaturadagi kuchlanishlar relaksatsiyasi natijasida kuchlanishlarning yo'qolishi asosan (oldindan uyg'otilgan) kuchlanishlar qiymati  $\sigma_{sp}$  va armatura turiga bog'liq: simli armatura tirkaklarga tirab mexanik usulda taranglanganda,

$$\sigma_1 = (0,22 \sigma_{sp}/R_{s,ser} - 1) \sigma_{sp}; \quad (2.4)$$

sterjenli armatura uchun esa

$$\sigma_1 = 0,1 \sigma_{sp} - 20. \quad (2.5)$$

2. Taranglangan armatura bilan tortqich orasidagi haroratlar farqi  $\Delta t$  ham B15...B40 sinfli betonni bug'lash yoki qizdirish jarayonida oldindan uyg'otilgan kuchlanishning quyidagi miqdorda kamayishiga olib keladi:

$$\sigma_2 = 1,25 \Delta t, \quad (2.6)$$

bu erda  $\Delta t$  ning aniq qiymati berilmasa,  $65^{\circ}\text{C}$  ga teng qilib olinadi. Betonning sinfi B45 va undan yuqori bo'lsa, (2.6) formuladagi 1,25 koeffitsienti 1,0 ga almashtiriladi.

3. Tortqich moslamasi bilan bog'langan ankerlar deformatsiyasidan odindan uyg'otilgan kuchlanishning yo'qolishi quyidagi miqdorni tashkil etadi:

$$\sigma_3 = (\Delta l_1 + \Delta l_2) E_s / l, \quad (2.7)$$

bu erda  $\Delta l_1$  – beton bilan anker orasiga qo'yiladigan shayba yoki qistirmaning siqilishi bo'lib qiymati 1 mm ga teng;  $\Delta l_2$  – stakansimon ankerning deformatsiyasi, qiymatiga 1 mm ga teng; tirkaklarga tirab taranglanganda  $\Delta l_1 + \Delta l_2 = \Delta l = 2$  mm deb olinadi,  $l$  – taranglanayotgan sterjenning uzunligi, mm.

4. Armatura bilan tuynuk devorlari, beton sirtlari yoki eguvchi moslamalar orasidagi ishqalanish oqibatida oldindan uyg'otilgan kuchlanishlarning yo'qolishi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\sigma_4 = \sigma_{sp} [1 - 1/e^{(WX+\delta\theta)}], \quad (2.8)$$

bu erda  $e$  – natural logarifm asosi;  $w$  – tuynukning loyihaviy holatiga nisbatan og‘ishini e’tiborga oladigan koeffitsient ( $w = 0\dots0,003$ );  $x$  – armaturada taranglash moslamasidan hisobiy kesimgacha bo‘lgan masofa, m;  $\delta$  – armatura bilan tuynuk devori orasidagi ishqalanish koeffitsienti, ( $\delta = 0,35\dots0,65$ );  $\theta$  – tuynukning egri uchastkasidagi yoyning markaziy burchagi, rad. Eguvchi moslamalarga ishqalanish natijasida yuz beradigan yo‘qotuvchini aniqlashda (2.8) formuladagi  $wx = 0$  deb olinadi.

5. Po‘lat qolipning deformatsiyalanish oqibatida sodir bo‘ladigan kuchlanishlarning yo‘qolishi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\sigma_5 = \eta \Delta l_1 E_s / l, \quad (2.9)$$

biroq, 30 MPa dan kam olinmaydi. Formuladagi  $\Delta l$  – qolipning bo‘ylama deformatsiyasi;  $l$  – tirkaklarning tashqi qirralari orasidagi masofa. Armatura mexanik usulda taranglansa,

$$\eta = (n-1)/2n \quad (2.10)$$

bo‘ladi, bu erda  $n$  – har xil vaqtida tortiladigan sterjenlar guruhi soni.

Tirkaklarga tayanib taranglangan armatura bo‘shatilgach, oldindan uyg‘otilgan kuchlanish betonni siqa boshlaydi, bunda betonda elastik deformatsiyalar bilan bir qatorda tezkor tob tashlash yuz beradi.

6. Bu hol oldindan uyg‘otilgan kuchlanishlarning ma’lum miqdorda yo‘qolishi (kamayishi) ga olib keladi:

$$\begin{aligned} \sigma_{bp}/R_{bp} &\leq \alpha \text{ bo‘lganda, } \sigma_6 = 40\sigma_{bp}/R_{bp}; \\ \sigma_{bp}/R_{bp} &> \alpha \text{ bo‘lganda, } \sigma_6 = 40\alpha + 85\beta(\sigma_{bp}/R_{bp} - \alpha), \end{aligned} \quad (2.11)$$

bu erda  $\sigma_{bp}$  – armaturani siqilishidan betonda hosil bo‘lgan kuchlanish;  $\alpha = 0,25 + 0,025R_{bp}$  bo‘lib, 0,8 dan ortiq olinmaydi;  $\beta = 5,25 - 0,185R_{bp}$ , bu koeffitsientning qiymatlari 1,1...2,5 oralig‘ida bo‘ladi.

Temirbeton elementiga issiq ishlov berilsa, (2.11) formuladan topilgan yo‘qotuvchilar 0,85 koeffitsientga ko‘paytiriladi.

*Ikkilamchi yo‘qolishlarga* quyidagilar kiradi:

7. Armaturadagi kuchlanishlar relaksatsiyasi;
8. Betonning kirishishi;
9. Betonning tob tashlashi;
10. Quvur va rezervuarlarning o‘ralgan armatura ta’sirida betonning ezilishi tufayli kamayishi;
11. Yig‘ma element bloklari orasidagi choklarning siqilishi tufayli vujudga keladigan kamayish.

12. Armatura relaksatsiya tufayli yo'qotuv  $\sigma_7 = \sigma_1$ .
13. Betonning uzoq muddatli tob tashlashi natijasida zo'riqishlarning berilishidan to foydalanish yuklarining qo'yilishigacha bo'lgan vaqt mobaynida yo'qotilgan kuchlanishlar og'ir beton uchun quyidagi formulalardan topiladi:

$$\begin{aligned}\sigma_{bp}/R_{bp} \leq 0,75 & \text{ bo'lganda, } \sigma_9 = 150\sigma_{bp}/R_{bp}; \\ \sigma_{bp}/R_{bp} > 0,75 & \text{ bo'lganda } \sigma_9 = 300(\sigma_{bp}/R_{bp} - 0,375).\end{aligned}\quad (2.12)$$

Bu erda ham, agar elementga issiq ishlov berilsa, yo'qolgan kuchlanish miqdori 0,85 ga kamaytiriladi.

14. Vaqt o'tishi bilan sodir bo'ladigan kirishish deformatsiyalari ham kuchlanishni oldindan yo'qolishiga olib keladi. Tirkaklarga tirab taranglanganda, yo'qolish miqdori B35, B40, B45 va bundan katta sinfli og'ir betonlar uchun  $\sigma_8 = 40; 50$  va  $60$  MPa ni tashkil etadi. Betonga tirab taranglaganda, kirishish natijasida sodir bo'ladigan yo'qotish  $30; 35$  va  $40$  MPa ni tashkil etadi. Oldindan uyg'otilgan kuchlanishning yo'qolishi yig'ma bloklardan tashkil topgan konstruksiya choklari orasidagi deformatsiya –  $\sigma_{11}$ , spiral ko'rinishida o'ralgan sim armatura ostidagi betonning egilishi singari sabablar tufayli ham sodir bo'ladi.
15. Spiral va halqasimon armaturaning simlari ostida betonning ezilishidan vujudga kelgan yo'qotuv  $\sigma_{10}$  faqat betonga o'rabi taranglanadigan element tashqi diametri  $d_{ext}$  300 sm gacha bo'lgan quvurlar, rezervuarlardagina hisobga olinadi va  $\sigma_{10} = 70 - 0,22d_{ext}$  teng bo'ladi.
16. Yig'ma konstruksiyalarning alohida bo'laklari orasidagi choklarning siqilishidan vujudga keladigan yo'qotuv  $\sigma_{11}$  quyidagi formuladan topiladi:

$$\sigma_{11} = n\Delta l E_s/l, \quad (2.13)$$

bu erda  $n$  – cho'ziladigan armatura bo'ylab joylashgan choklar soni;  $\Delta l$  – choklar deformatsiyasi bo'lib, beton bilan to'ldirilgan har bir chok uchun 0,3 mm ga, betonsiz ulangan chok uchun 0,5 mm ga teng bo'ladi;  $l$  – taranglanayotgan armatura uzunligi, mm.

Oldindan zo'riqtirilgan konstruksiyalarni hisoblashda betonning siqilishi tugagunga qadar bo'ladigan yo'qotuvlari  $\sigma_{los1}$  bilan siqilish tugagandan keyin yuz bergan yo'qotuvlari  $\sigma_{los2}$  bir-biridan farq qilishi lozim, yo'qotuvlarning to'liq qiymati  $\sigma_{los} = \sigma_{los1} + \sigma_{los2}$  bo'ladi.

Armaturalarni tirkaklarga tirab taranglanganda,  $\sigma_{los1}$  armaturadagi kuchlanishning kamayishi, haroratlar farqi, ankerlar deformatsiyasi, armaturaning ishqalanishi, qolip deformatsiyasi, tezkor tob tashlashlar

evaziga vujudga keladi, ya'ni  $\sigma_{los1} = \sigma_1 + \sigma_2 + \sigma_3 + \sigma_4 + \sigma_5 + \sigma_6$ ,  $\sigma_{los2}$  esa betonning tob tashlashi va kirishishidan hosil bo'ladi, ya'ni  $\sigma_{los2} = \sigma_8 + \sigma_9$ .

Armaturaning betonga tirab taranglanganda armaturadagi kuchlanishning yo'qolishi  $\sigma_{los2}$  ankerlar deformatsiyasi va armaturani ishqalanishidan, ya'ni  $\sigma_{los1} = \sigma_3 + \sigma_4$ ; armaturadagi kuchlanishning ikkilamchi kamayishi  $\sigma_{los2}$  betonning tob tashlashi va kirishishi armatura simlari ostida betonning ezilishi, yig'ma blokli konstruksiyalarda choklar deformatsiyasidan vujudga keladi, ya'ni  $\sigma_{los2} = \sigma_7 + \sigma_8 + \sigma_9 + \sigma_{10} + \sigma_{11}$ . Yo'qotuvlarning umumiy son qiymati  $\sigma_{los}$  me'yor bo'yicha 100 MPa dan kam olinmaydi.

#### 2.4. Oldindan zo'riqqan temirbeton elementlardagi kuchlanishlarni aniqlash

**Keltirilgan kesim.** Temirbeton elementlarida materiallar qarshiligi formulalarini qo'llash uchun, ularning kesimini statik jihatdan teng kuchli bo'lgan bir jinsli tizimga keltiriladi. Beton va armaturani birlashtirishda ishlashi, ular orasidagi tishlashish (sseplenie) ning mavjudligi tufayli armatura bilan betonning deformatsiyasi bir hil bo'ladi, ya'ni  $\varepsilon_s = \varepsilon_b$ . Shunga ko'ra  $\sigma_s/E_s = \sigma_b/E_b$ , bunda  $\sigma_s = E_s \varepsilon_s$ ,  $\sigma_b = E_b \varepsilon_b$ ,  $\alpha = E_s/E_b$ . Buning ma'nosi shuki, armatura kesimining har bir yuza birligiga shartli ravishda beton yuzasining «n» ta birligi mos keladi.

Elementlardagi kuchlanishlarni hisoblashlarda quyidagi oldindan zo'riqtirish aniqligi koeffitsienti e'tiborga olinadi:

$$\gamma_{sp} = l \pm \Delta\gamma_{sp}, \quad (2.14)$$

bunda  $\Delta\gamma_{sp}$  – armaturadagi oldindan zo'riqishning chetga chiqishini chegaraviy qiymati; armaturani mexanik usulda taranglagan  $\Delta\gamma_{sp} = 0,1$ ; elektr-termik usulda taranglaganda,


$$\Delta\gamma_{sp} = 0,5p(1+1/n_p^{1/p})/\sigma_{sp}, \quad (2.15)$$

ammo 0,1 dan kichik emas. Bunda  $p$  (2.24) formuladan topiladi,  $n_p$  – element kesimidagi zo'riqtirilgan sterjenlar soni. Oldindan zo'riqish salbiy ta'sir qilganda «plyus», ijobjiy ta'sir qilganda «minus» belgisi olinadi.

Oldindan zo'riqishlarni yo'qolishini hisoblashda, yoriqlar ochilish enini aniqlashda va deformatsiyaga hisoblashda  $\Delta\gamma_{sp} = 0$  ( $\gamma_{sp} = l$ ) qabul qilish ruxsat etiladi.

**Keltirilgan kesimning geometrik tavsiflari.** 2.8-rasmda tasvirlangan temirbeton elementining keltirilgan kesim yuzasi

$$A_{red} = A + \alpha A_{sp} + \alpha A'_{sp} + \alpha A_s + \alpha A'_s. \quad (2.16)$$



2.8-rasm. Oldindan zo'riqtirilgan element kesimida hosil bo'ladigan kuchlanishlarni aniqlashga doir sxema: a – siqilishdagi kuchlanishlarning joylanishi; b – keltirilgan yuzaning geometrik tavsifini topishga doir sxema; c – siquvchi kuchlanish epyurasi  
Keltirilgan kesimning cho'zilgan qirraga nisbatan statik momenti

$$S_{red} = S + \alpha A_{sp} a_p + \alpha A'_{sp} (h - a'_p) + \alpha A_s a_s + \alpha A'_s (h - a'_s). \quad (2.17)$$

Cho'zilgan qirradan keltirilgan kesim og'irlilik markazigacha bo'lgan masofa

$$y = S_{red}/A_{red}. \quad (2.18)$$

Ana shu keltirilgan kesimning neytral o'qqa nisbatan inersiya momenti

$$I_{red} = I + \alpha A_{sp} (y_{sp})^2 + \alpha A'_{sp} (y'_{sp})^2 + \alpha A_s (y_s)^2 + \alpha A'_s (y'_s)^2. \quad (2.19)$$

Oldindan zo'riqtirilgan konstruksiyalarda oddiy temirbeton konstruksiyalardagi zo'riqishlarga qo'shimcha ravishda betonda taranglangan armaturadan beriladigan siqilish zo'riqishlari paydo bo'ladi. Shuning uchun oldindan zo'riqtirilgan konstruksiyalarni loyihalashda ularda odatdagi yuklardan tashqari siquvchi kuchlar ta'siriga ham hisoblanadi.

**Beton va armaturadagi kuchlanishlarni aniqlash.** Oldindan zo'riqtirilgan elementning bo'ylama o'qiga tik bo'lgan kesimdag'i kuchlanishlar beton kesimi va taranglangan hamda taranglanmagan armatura kesimlari yuzasidan tashkil topgan keltirilgan yuza uchun elastik jismdagi kabi aniqlanadi. Barcha bo'ylama armaturalardagi siquvchi kuchlarni teng ta'sir etuvchisi  $P$  tashqi kuch sifatida qabul qilinadi.

Teng ta'sir etuvchi kuch  $P$  va uning keltirilgan yuza og'irlik markazigacha bo'lgan elkasi  $e_{op}$  quyidagi formulalardan aniqlanadi (2.9-rasm):

$$P = \sigma_{sp} A_{sp} + \sigma_{sp}' A_{sp}' - \sigma_s A_s - \sigma_s' A_s'; \quad (2.20)$$

$$e_{op} = (\sigma_{sp} A_{sp} y_{sp} - \sigma_{sp}' A_{sp}' y_{sp}' - \sigma_s A_s y_s + \sigma_s' A_s' y_s') / P, \quad (2.21)$$

bu erda  $\sigma_{sp}$  va  $\sigma_{sp}'$  – taranglangan  $A_{sp}$  va  $A_{sp}'$  armaturadagi kuchlanishlar;  $\sigma_s$  va  $\sigma_s'$  – taranglanmagan  $A_s$  va  $A_s'$  armaturadagi kuchlanishlar.

Betondagi kuchlanish umumiy holda nomarkaziy siqilish holatidagi element kabi quyidagi formuladan aniqlanadi:


$$\sigma_{bp} = P / A_{red} \pm P e_{op} y / I_{red} \quad (2.22)$$

bu erda  $A_{red}$  – beton kesimiga keltirilgan yuza;  $I_{red}$  – keltirilgan kesim og'irlik markazidan o'tuvchi o'qqa nisbatan  $A_{red}$  yuzadan olingan inersiya momenti;  $y$  – keltirilgan kesimning og'irlik markazidan kuchlanish aniqlanayotgan tolagacha bo'lgan masofa (2.9-rasm, b).  $\alpha = E_s/E_b$ ;  $E_b$  va  $E_s$  beton va armaturaning elastiklik modullari.

Beton va armaturadagi kuchlanishlar nazorat qilinuvchi kuchlanishlarni tekshirishda, tob tashlash va ko'p yuklar ta'sirida vujudga keladigan yo'qolishlarni aniqlashda, yorilishbardoshlik bilan deformatsiyalarni hisoblashda va boshqa shu kabi hollarda topiladi.

Oldindan zo'riqtirilgan elementlarni hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari bor. Bu xususiyatlarni elementlarni tashqi yuklarga hisoblashdan oldin ko'rib chiqish kerak.

**Oldindan zo'riqishning miqdorlari.** Armaturani tirkaklarga taranglab oldindan zo'riqish hosil qilishdagi element kuchlanganlik holatlarini ko'rib chiqamiz. Cho'zilgan zonaga yuzasi  $A_{sp}$  bo'lgan, siqilgan zonaga esa yuzasi  $A_{sp}'$  bo'lgan armatura joylashtiriladi, bunda  $A_{sp} > A_{sp}'$ . Pastdagi va yuqoridaq armaturalarni tirkaklarda  $\sigma_{sp}$  va  $\sigma_{sp}'$  kuchlanishlar bilan taranglanadi (2.9, a-rasm).



2.9-rasm. Armaturani tirkaklarda taranglab oldindan zo'riqish hosil qilishdag'i egiluvchi element kuchlanganlik holati

Konstruksiyalarni loyihalashda oldindan uyg'otiladigan kuchlanish qiymati po'latning elastiklik chegarasidan katta bo'lmasligi, biroq juda kichkina bo'lmasligi ham zarur.

Temirbeton konstruksiyalarni loyihalashda  $\sigma_{sp}$  va  $\sigma'_{sp}$  odatda bir xil qilib olinadi va quyidagi oraliqda belgilanadi (2.10, b, d, e-rasm):

- armaturani mexanik usulda taranglaganda  $0,32 R_{s,ser} \leq \sigma_{sp} \leq 0,95 R_{s,ser}$ ;
- armaturani elektr-termik va elektr-termomexanik usullarda taranglaganda

$$0,30 R_{s,ser} + p \leq \sigma_{sp} \leq R_{s,ser} - p \quad (2.23)$$

Armatura mexanik usulda taranglanganda  $p = 0,05 \sigma_{sp}$ ; elektr-termik usulda esa

$$p = 30 + 360/l \text{ bo'ladi}, \quad (2.24)$$

bu erda  $l$  – tirkaklarning tashqi sirtlari orasidagi masofa, m da.

**Oldindan zo'riqishning nazorat qilinadigan miqdorlari.** Tirkaklarga tirab taranglashda hosil bo'ladigan kuchlanishning nazorat qiladigan qiymati  $\sigma_{con}$  ni aniqlash uchun,  $\sigma_{sp}$  dan ankerlarning deformatsiyalanishi va armaturaning ishqalanishi natijasida yo'qotilgan kuchlanishlar (bularni aniqlash usullari quyida beriladi) ayirib tashlanadi. Armaturaning betonga

tirab tortishdan hosil bo'lgan kuchlanishning nazorat qilinadigan qiymati quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\sigma_{con2} = \sigma_{sp} - \alpha \sigma_{bp}. \quad (2.25)$$

Armaturaning tirkaklarga taranglab tortishdan hosil bo'lgan kuchlanishning nazorat qilinadigan qiymati quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\sigma_{con1} = \sigma_{sp} - \sigma_3 - \sigma_4, \quad (2.26)$$

bunda  $\sigma_{bp} = P_1$  siquvchi kuch ta'sirida  $A_{sp}$  armaturaning og'irlik markazi sathida betonda sodir bo'ladigan birinchi yo'qotishlarni hisobga olib aniqlanadigan kuchlanish.  $\sigma_{sp}$  – yo'qotishlarni hisobga olmasdan qabul qilinadi.

Aramaturali elementda (sterjen, kanat, o'ramlarda) nazorat qilinadigan kuch.

$$P_{con} = \sigma_{con} A_{sp}, \quad (2.27)$$

bu erda  $P$  – oldindan uyg'otilgan kuchlanishlar teng ta'sir etuvchisi;  $e_{op}$  – elka;  $y_{sp}$  – keltirilgan kesimning og'irlik markazidan taranglangan armaturadagi zo'riqishlarni teng ta'sir etuvchisigacha bo'lgan masofa (10-rasm);  $\alpha = E/E_b$ .


Nazorat qilinadigan kuchlanish  $\sigma_{con2}$  ning qiymati shunday belgilanishi kerakki, hisobiy kesimda  $\sigma_{sp}$  ga teng bo'lgan kuchlanish hosil bo'lsin.

### III BOB. QURILISH KONSTRUKSIYALARINI HISOBLASH ASOSLARI VA USULLARI

#### 3.1. Konstruksiyalar mustahkamligini ruxsat etilgan kuchlanishlar usulida hisoblash

Ruxsat etilgan kuchlanishlar bo'yicha hisoblash usuli temirbetonning elastik material sifatida ishlatalishiga asoslanadi, biroq temirbetonning asosiy xossalari ham qisman hisobga olinadi. Kesim tanlanganda, beton va armaturadagi kuchlanish ruxsat etilgan kuchlanishlardan oshmaydigan qilib tanlanadi.

Temirbeton elastiklik nazariyasining asosiy qoidalari quyidagilardan iborat. Hisob ishlari egilishdagi kuchlanish holatining II bosqichi bo'yicha olib boriladi: siqilish zonasida kuchlanishlar epyurasi uchburchak shaklida deb faraz etiladi, cho'zilish zonasida betonning ishi hisobga olinmaydi, cho'zuvchi kuchlarni armatura qabul qiladi deb hisoblanadi (3.1-rasm).



3.1. Egilishdagi kuchlanish deformatsiyalanish holati: a—kesimni armaturalash; b—deformatsiyalar epyurasi; d—kuchlanishlar epyurasi

Yassi kesimlar farazi (gipotezas) o'z kuchiga ega deb qaraladi. Buning natijasida ko'ndalang kuchlar, betonni bir jinsli emasliligi, turli elastiklik xossalariiga ega bo'lgan ashyolarning mavjudligi, betonni kirishishi, cho'zilish zonasida yoriqlarni hosil bo'lishi singari qator ta'sirlar ostida kesimning qiyshayishi e'tiborga olinmaydi. Kuchlanish qanday bo'lishidan qat'iy nazar siqilish zonasida betonning elastiklik moduli o'zgarmas deb olinadi, hisob ishlari betonning ma'lum sinfi uchun o'zgarmas bo'lган me'yor son  $\alpha = E_s/E_b$  qo'llaniladi.

Kuchlanishlarni aniqlashda deformatsiya kuchlanishiga to'g'ri mutanosib deb sanaladi, ya'ni Guk qonuniga amal qiladi. Biroq, siqilish va cho'zilish zonalari uchun o'ziga mos elastiklik modullari olinadi.

Temirbeton elementlarida materiallar qarshiligi formulalarini qo'llash

uchun, uning kesimini statik jihatdan teng kuchli bo‘lgan bir jinsli tizimga keltiriladi. Beton va armaturani birgalikda ishlashi, ular orasidagi birikuv (ssepleniya) ning mavjudligi tufayli armatura bilan beton deformatsiyasi bir xil bo‘ladi, ya’ni  $\varepsilon_s = \varepsilon_b$ ; shunga ko‘ra  $\sigma_s/E_s = \sigma_b/E_b$ , bunda  $\sigma_s = E_s \sigma_v/E_v = \alpha \sigma_v$ .

Buning ma’nosi shuki, armatura kesimi har bir yuza birligiga shartli ravishda beton yuzining «*m*» ta birligi mos keladi.

Ruxsat etilgan kuchlanish usuli talaygina jiddiy kamchiliklarga ega. Birinchidan, II bosqichda betonning siqilish zonasidagi kuchlanishlar epyurasi aslida uchburchak emas, egri chiziqli shaklga ega. Ikkinchidan,  $\alpha$  sonining qiymati doimiy emas, u betondagi kuchlanish miqdori, beton tarkibi, yoshi, iqlimi sharoiti va boshqa omillarga bog‘liq.

Hisobiy qiymatlarni tajriba qiymatlari bilan taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, temirbeton armaturasi elementlarida vujudga keladigan hisobiy kuchlanish amaliy kuchlanishdan hamma vaqt katta bo‘ladi, bu esa po‘latni ortiqcha sarflashga olib keladi. Bunda  $\alpha$  sonini o‘zgarishi armaturadagi kuchlanish miqdoriga kam ta’sir etadi. Betondagi kuchlanish esa  $\alpha$  sonining qabul qilingan miqdoriga qarab, haqiqiy qiymatdan katta yoki kichik bo‘lishi mumkin.

Shunday qilib, bu usul, bir tomondan, beton va armaturadagi kuchlanishning haqiqiqiy qiymatini aniqlash, ikkinchi tomondan, konstruksiyalarni oldindan belgilangan mustahkamlik zahirasi bo‘yicha loyihalash imkoniyatini bermaydi. Shu bilan birga, tajribalar elastiklik nazariya juda mustahkam beton va armaturalarga to‘g‘ri kelmasligini ko‘rsatdi.

### **3.2. Konstruksiyalar mustahkamligini sindiruvchi kuch usulida hisoblash**

Mazkur usulning ana shu kamchiliklari temirbeton elementlarini hisoblashning mukammalroq usulini yaratish zaruratini uyg‘otadi. Buzuvchi zo‘riqishlar usuli shu tariqa dunyoga keladi. Usulning zaminida quyidagi qoidalar yotadi:

1. Hisob ishlari kuchlanish holatlarining uchinchi, ya’ni buzilish bosqichi asosida bajariladi. Hisoblash formulalarida betonning siqilishdagi mustahkamlik chegarasi va po‘latning oqish chegarasidan foydalilaniladi. Beton cho‘zilish zonasida ishlamaydi deb qaraladi.

2. Betonning siqilish zonasidagi kuchlanishlar epyurasi to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida qabul qilinadi, aslida epyura egri chiziqli bo‘ladi. Bu hisob aniqligiga ko‘p ta’sir etmaydi (2% dan kam), ammo formulani ancha soddalashtiradi.

3. Ana shunga asoslangan holda, elementning buzilishi oldidagi muvozanat shartidan foydalanib, buzuvchi zo'riqishlar aniqlanadi. Elementga ta'sir etadigan kuch ruxsat etilgan zo'riqishdan katta bo'lmasligi kerak.

Ruxsat etilgan zo'riqish buzuvchi zo'riqish (kuch) ni mustahkamlik zaxirasi koeffitsientiga bo'lish orqali aniqlanadi, ya'ni  $M \leq M_u/K$ ,  $N \leq N_u/K$ . Bu erda  $M_u$  va  $N_u$  – buzuvchi moment va bo'ylama kuch;  $K$  – mustahkamlik zaxirasi koeffitsienti bo'lib, qiymati 1,2..1,8 oralig'ida olinadi. Bu usulda tashqi yuklar ta'sirida beton va armaturalarda uyg'onadigan kuchlanishlarning qiymatlari noma'lum bo'lib qoladi, biroq, mustahkamlik zaxirasi koeffitsienti ma'lum bo'ladi, buning ahamiyati muhimroqdir. Yassi kesimlar farazi, materiallarning elastiklik moduli va soniga bo'lgan ehtiyoj yo'qoladi.

Buzuvchi zo'riqishlar usulida temirbetonning elastik-plastik xossalari, yuk ostida elementning ishlash holati to'g'riroq hisobga olinadi. Armatura ishidan to'laroq foydalanish evaziga ruxsat etilgan kuchlanishlar usulidagiga nisbatan anchagina metall tejaladi.

Yagona mustahkamlik zaxirasi koeffitsientini qo'llash tufayli yuklar va materiallar mustahkamligining o'zgaruvchanligini e'tiborga olish imkoniyati yo'qligi usulning kamchiligidir.

### 3.3. Konstruksiyalar mustahkamligini chegaraviy holatlar usulida hisoblash

1955 yildan beri temirbeton konstruksiyalari shu usul bilan hisoblanadi. Chegaraviy holatlar usuli buzuvchi kuchlar usulining takomillashgan varianti hisoblanadi. Bu usulga ko'ra konstruksiya mustahkamligi bir emas, bir necha koeffitsientlar orqali hisobalanadi. Mazkur usul bo'yicha hisoblangan konstruksiyalar birmuncha tejamli bo'ladi.

Konstruksiyalarni bu usul bo'yicha hisoblanganda, ularning chegaraviy holatlari aniqlanadi. Konstruksiya elementlari tashqi kuchlarga qarshilik ko'rsata olmay qoladigan holat – chegaraviy holat deb ataladi.

Chegaraviy holatlar ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruh bo'yicha elementlar mustahkamlik, ustivorlik, chidamlilik, sovuqbardoshlik va hokazolarga hisoblanadi. Ikkinci guruh bo'yicha konstruksiyalar bikrlik va yoriqbardoshlikka hisoblanadi.

Chegaraviy holatlar usulida quyidagi koeffitsientlar qo'llaniladi:

- 1) yuklar bo'yicha ishonchliklik koeffitsienti  $\gamma_{tf}$ ;
- 2) beton bo'yicha ishonchlilik koeffitsienti  $\gamma_{bc}$  va  $\gamma_{bt}$ ;
- 3) armatura bo'yicha ishonchlilik koeffitsienti  $\gamma_s$ ;
- 4) beton va armaturaning ish sharoiti koeffitsienti  $\gamma_{bi}$ ,  $\gamma_{si}$ ;

5) yuklarning uyg'unlashuvi bo'yicha ishonchlilik koeffitsienti  $\gamma_{lc}$ .

*Chegaraviy holatlarning birinchi guruhi bo'yicha hisoblash* orqali konstruksiyalar buzilishining (mustahkamlikka hisoblash), konstruksiya shakli ustivorligi yo'qolishining (ustivorlikka hisoblash), charchash natijasida buzilishining, ko'p karra takrorlanuvchi yuklar ta'sirida buzilishining, kuch omillari hamda noqulay tashqi muhitni (ketma-ket muzlash-erish, namiqish-qurish holatining o'zgarishi) zararli ta'siri ostida buzilishining oldi olinadi.

Chegaraviy holatlar usulida hisoblash yo'li bilan konstruksiyaning butun xizmati davomida, shuningdek tayyorlash, tashish va o'rnatish davrida yuk ko'tarish bo'yicha chegaradan chiqib ketmasligi ta'minlanadi. Chegaraviy holatlar birinchi guruhi bo'yicha hisoblash g'oyasini quyidagi tengsizlik orqali ifodalasa bo'ladi:

$$\sum N_n \gamma_{lc} \leq \Phi[S; R_n \gamma / \gamma_m \gamma_n]. \quad (3.1)$$

(3.1) ifodaning chap qismi hisobiy zo'riqish bo'lib, hisobiy yuk va turli ta'sirlarning eng noqulay kombinatsiyalarida hosil bo'lgan maksimal zo'riqishni ifodalaydi. Bu zo'riqishning qiymati me'yoriy yuklardan hosil bo'lgan zo'riqish  $N_{ni}$  dan tashqari, yukning o'zgaruvchanligini e'tiborga oluvchi yuk bo'yicha ishonchlilik koeffitsienti  $\gamma_f$  ga, vazifasi bo'yicha ishonchlilik koeffitsienti  $\gamma_n$  ga va (konstruktsiyani real yuklanish sharoitini e'tiborga oluvchi) yuklarni uyg'unlashuvi koeffitsienti  $\gamma_{lc}$  ga bog'liqdir. Tabiiyki, hisobiy zo'riqish kesimning yuk ko'tarish qobiliyatini  $F$  dan ortib ketmasligi kerak.  $F$  ning o'zi materialning me'yoriy qarshiligi  $R_{ni}$ ; materiallar bo'yicha ishonchlilik koeffitsienti  $\gamma_{mi}$ ; material va konstruksiyalarning ishlash sharoiti koeffitsienti  $\gamma_i$ ; yuk ko'tarish qobiliyatiga ta'sir etuvchi, geometrik va boshqa omillarga bog'liq bo'lgan  $S$  parametriga bog'liq miqdordir.

*Chegaraviy holatlarning ikkinchi guruhi bo'yicha* bajariladigan hisob-kitoblar konstruksiyaning me'yoridan ortiqcha deformatsiyalanishi (solqilik, burilish burchaklari) va tebranishlarni oldini oladi, yoriqlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va yopilishini tartibga soladi.

Ikkinci guruh bo'yicha egilishga hisoblaganda, me'yoriy yuklardan hosil bo'lgan egilish  $\Delta$  me'yorda ko'rsatilgan ruxsat etilgan  $f$  dan ortib ketmasligi kerak.

$$\Delta \leq f/\gamma_n. \quad (3.2)$$

Bundan tashqari, temirbeton konstruksiyalar ularning yoriqbardoshligiga qo'yiladigan talablarga muvofiq yoriqlar paydo bo'lishiga hisoblanadi.

$$T \leq T_{crc}. \quad (3.3)$$

Yoki yoriqlar ochilishiga

$$a_{crc} \leq [a_{crc}]. \quad (3.4)$$

Konstruksiyalarni chegaraviy holatning birinchi guruhi bo'yicha hisoblash ularning hamma bosqichlarida (tayyorlash, tashish, montaj qilish yoki qurish va foydalanish (ekspluatatsiya qilish)) olib boriladi.

### 3.4. Yuklar va ta'sirlar

Ishlash jarayonida konstruksiya materiali turli xil ta'sirlar va turli xil yuklarni o'ziga qabul qiladi (3.1-jadv.). Ta'sirlar kuch ta'siri bilan (силовые) va kuch ta'sirisiz (несиловые) bo'lishi mumkin.

Jadval 3.1

Yuklarning sinflanishi

Yuklar va ta'sirlar	Doiniy	Qurilish konstruksiyalari vazni, tuproq og'irligi va bosimi, oldindan uyg'otilgan zo'riqish va boshqalar		
Vaqincha (muvaqqat)	Uzoq muddatli	Jihozlar vazni, gaz, suyuqlik va sochiluvchan jism bosimi, bitta krandan tushgan yuk va boshqalar		
	Qisqa muddatli	Odamlar vazni, kranlar, telferlar, vaqtincha jihozlar, qor og'irligi, shamol bosimi va boshqalar		
	Maxsus	Zilzila va portlash ta'siri, avariya yuklari, gruntning notekis cho'kishidan hosil bo'lgan yuklar		

Kuchli yuklarga, ya'ni tashqi kuch sifatida ta'sir etadigan yuklarga quyidagilar kiradi:

- foydali yuklar, ya'ni konstruksiya qabul qilishi lozim bo'lgan yuklar (mashina va asbob-uskunalar vazni, texnologik materiallar hamda odamlar og'irligi kabilar);
- zilzila va dinamik kuchlar ta'sirida vujudga kelgan inersion yuklar va hokazo.

Harorat, namlik, radiatsiya, zararli muhit kabi ta'sirlar kuchsiz, ya'ni kuchga bog'liq bo'lmasa ta'sirlarga kiradi.

Temirbeton konstruksiyalarini hisoblash nazariyasi ana shu ta'sirlarning barchasini inobatga ola bilishi zarur.

Hisoblash jarayonida ishtirok etadigan yuklarni belgilashda konstruksiyani mustahkam va, ayni bir paytda, tejamli bo'lishini yodda tutishimiz lozim. Yuklar konstruksiyaning vazifasiga qarab turlarga ajratiladi. Me'yoriy yuklarni turlari "Yuklar va ta'sirlar" deb nomlangan

qurilish me'yordari va qoidalarida (QMQ 2.03.01-97) batafsil bayon etilgan [12]. Me'yoriy yuklar konstruksiyaning tejamlilik talablariga javob beradigan tarzda belgilanadi.

Loyihalash jarayonida konstruksiya va uni tayyorlash, saqlash, tashish paytida, shuningdek inshootni tiklash davrida ta'sir etadigan yuklarni e'tiborga olish lozim bo'ladi. Hisob ishlarida yuklarni me'yoriy va hisobiy qiymatlaridan foydalaniladi. Konstruksiyadan o'z me'yorida foydalanish chog'ida me'yor [13] bo'yicha unga qo'yilishi mumkin bo'lgan yuklarning maksimal qiymati me'yoriy deb ataladi.

Yukning haqiqiy qiymati bilan me'yoriy qiymati orasidagi farq yuklar bo'yicha ishonchlik koeffitsienti yordamida hisobga olinadi. Bu koeffitsientning qiymati ko'pincha birdan katta bo'ladi ( $\gamma = 1,1 \dots 1,3$ ), konstruksiyaning o'zi hisobiy yuk ta'siriga hisoblanadi.

Hisobiy yukni aniqlash uchun me'yoriy yuk  $g_n$  ishonchlik koeffitsientiga ko'paytiriladi, ya'ni  $q = g_n \gamma$ .

Konstruksiyaga ta'sir etadigan yuklar doimiy yoki vaqtincha (muvaqqat) bo'ladi. Konstruksiya yoki inshootning butun umri davomida unga ta'sir etib turadigan yuk doimiy yuk deyiladi.

Muvaqqat, ya'ni vaqtincha ta'sir etadigan yuklar uch turga bo'linadi: uzoq muddat va qisqa muddat ta'sir etadigan, hamda maxsus yuklar. Texnologik jarayonlarga bog'liq bo'lgan ta'sirlar uzoq muddatli muvaqqat yuklarga kiradi. Masalan, elevatorga to'ldirilgan don yilning ma'lum muddati davomida konstruksiyaga bosim kuchi bilan ta'sir etadi, shamol, qor singari ta'sirlar qisqa muddatli yuklarga misol bo'la oladi. Zilzila va portlash kuchlari kabi ta'sirlar maxsus yuklarga kiradi.

### **3.5. Vaqtinchalik yuklarning ehtimoliy tavsiflari va ularning uyg'unlashuvi. Ishonchlik koeffitsientlari**

Barcha ta'sirlar *me'yoriy* va *hisobiy* turlarga ajratiladi [3, 12 – 14]. Yuklar ta'sirning alohida bir turi hisoblanadi. Yuklarning asosiy tavsiflari – ularning me'yoriy tavsiflaridir. Transport inshootlaridan normal foydalanganda, qiymatiga ko'ra eng katta ehtimoliy yukga yaqin bo'lgan yuklarga me'yoriy yuklar deyiladi. Ular eng ko'p takrorlanadigan yuk hisoblanadi. Me'yoriy yuk qiymatlari loyihalash me'yordari tomonidan, avvaldan berilgan o'rtacha yuklar qiymatining ortishi asosida belgilanadi va nominal, yo haqiqiy qiymatlarga teng deb olinadi. Yuklarning me'yoriy qiymatdan o'zgaruvchanlik yoki normal foydalanish shartlaridan noxush (katta yo kichik) tarafga chetlashishi tufayli ehtimol tutilgan og'ishi xuddi ana shu me'yoriy hujjatlar bo'yicha yuk turiga bog'liq ravishda qabul

qilinadigan  $yuk$  bo‘yicha ishonchlilik  $\gamma_f$  koeffitsienti bilan hisobga olinadi.

Ularning me’yoriy qiymatlarini tegishli ishonchlilik koeffitsientlariga ko‘paytirish yo‘li bilan olinadigan yuk va ta’sirlar *hisobiy* deb hisoblanadi:

$$F = F_n \gamma_f; \quad q = q_n \gamma_f. \quad (3.5)$$

Chegaraviy holatlarning birinchi guruhi bo‘yicha hisoblashda, odatda,  $\gamma_f > 1$ . Bu holda hisobiy yuklar inshootdan foydalanish vaqtidagi eng katta ehtimoliy yuklardan iborat bo‘lib, ularni chegaraviy yoki o‘ta katta (so‘nggi) yuklar deb atash mumkin. Shunday qilib, yuk bo‘yicha ishonchlilik koeffitsienti noto‘g‘ri belgilangan me’yoriy yukka foydalanish tajribasidan olingan chegaraviy yuk asosida o‘zgartirishlar kiritadi. Har bir yuk o‘z ortiqcha yuklanish koeffitsientiga ega ekanligi, hamma yuklar uchun bir xil zaxira koeffitsienti yoki ruxsat etilgan kuchlanishlar bo‘yicha hisoblashga nisbatan tejamliroq konstruksiyalar loyihalash imkonini beradi. Masalan, temirbeton konstruksiyalarni sindiruvchi kuchlar bo‘yicha bir xil zaxira  $K = 2$  koeffitsienti bo‘yicha hisoblashda, doimiy yukning foydalanish jarayonida ikki marotaba ortib ketishini iloji yo‘qligiga qaramay, ham doimiy, ham vaqtinchalik yuk ko‘paytirilar edi. Bu kabi noaniqlik materialning ortiqcha sarflanishiga olib kelardi.

Konstruksiya mavjudligi paytida namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lgan yuk hisobiy yuk deb nomланади. Konstruksiyalarni bevosita hisoblash uchun, yuklarning me’yoriy emas, balki hisobiy qiymatlari aniqlanib, ular me’yoriy yukni konstruksiyalarning vazifasi ( $\gamma_n$ ) va  $yuk$  bo‘yicha ishonchlilik ( $\gamma_f$ ) koeffitsientlariga ko‘paytirish orqali aniqlanadi. Vazifasi bo‘yicha ishonchlilik koeffitsienti  $\gamma_n \leq 1$  transport inshootlari mas’uliyati va kapital-lili (ular sinfi) hamda u yoki bu chegaraviy holatlar kelib chiqishining oqibatlari ahamiyatlarini hisobga oladi. Statistika ma’lumotlari mavjud bo‘lganda, yuklarning hisobiy qiymatlarini bevosita ulardan ortishini berilgan ehtimolligi bo‘yicha aniqlashga yo‘l qo‘yiladi [3].

1-sinf. Asoslangan holda o‘ta muhim xalq xo‘jaligi va (yoki) ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan transport inshootlari (issiqlik va atom elektrostansiyalari, televizion minoralar, balandligi 200 m dan katta bo‘lgan quvurlar, neft mahsulotlari uchun hajmi 10 ming m<sup>2</sup> dan katta bo‘lgan rezervuarlar, usti yopiq sport va tomosha inshootlari, o‘quv muassasalari, muzeylar, shifoxonalar va h.k.) uchun yuqori narh yoki ko‘plab odamlar jamlanishi, yo bu jihatlarning har ikkisi xosdir. Shu sababli ular yuqori darajadagi ishonchlilikka ega bo‘lishi talab etilib, ularning vazifasi bo‘yicha ishonchlilik koeffitsienti  $\gamma_n = 1$  ga teng.

2-sinf. Bu sinfga 1 va 3-sinfga oid bo‘lmagan sanoat va fuqarolik bino va inshootlari kiradi. Ular tarkibidan eng ommaviy ko‘rinishdagi inshootlar

joy olgan. Ular birinchi darajali o‘rin tutmasa ham, biroq xalq xo‘jaligi va (yoki) ijtimoiy nuqtai nazardan muhim ahamiyatga ega. Bu holda koeffitsient  $\gamma_n = 0,95$  ga teng bo‘ladi.

3-sinf. CHeklangan xalq xo‘jalik va (yoki) ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan, hamda katta moddiy qiymati yo‘q va doimiy odamlar bo‘lib turmaydigan inshootlar (qadoqlash va navlarga ajratish ishlari bajarilmaydigan omborlar, bir qavatli uylar, muvaqqat binolar, aloqa va yoritish tayanchlari, to‘silalar) uchun koeffitsient  $\gamma_n = 0,9$  deb olinadi. Xizmat muddati 5 yilgacha bo‘lgan muvaqqat transport inshootlari uchun  $\gamma_n = 0,8$  deb qabul qilishga yo‘l qo‘yiladi.

$\gamma_n$  koeffitsientining qiymatlari hozircha o‘ta ehtiyyotkorlik bilan belgilangan bo‘lib, qat’iy qilib aytganda, ishonchlilik ortishiga bog‘liq ravishda oshib boradigan inshootni tiklash xarajatlarini, hamda ishonchlilik ortishi bilan xavfi kamayib boradigan ishdan chiqishlar oqibatlarini oqilona muvofiqlashtirish vazifasini hal etish maqsadidan kelib chiqish talab etiladi. Ushbu vazifa hatto sof iqtisodiy nuqtai nazardan ham ancha murakkab bo‘lib, ishonchlilik sathi pasaygan sari odamlar hayoti uchun paydo bo‘ladigan xavf, tarixiy va badiiy qadriyatlarni saqlab qolish, iqtisodiy jihatdan baholab bo‘lmaydigan boshqa omillarni hisobga olish kerak bo‘ladi. Bu masala hamon hal qilinmagan bo‘lishiga qaramay, uning qo‘yilishi, asosiy tamoyillar shakllanganligi qurilish konstruksiyalari ishonchliligini ta’minalash qoidalarini tiklanayotgan ob’ekt maqsadi va mas’uliyat darajasiga bog‘liq ravishda nisbatan asosli ravishda me’yorlashtirish imkonini berdi.

Yuk bo‘yicha ishonchlilik  $\gamma_f$  koeffitsientlari yuklarning ular me’yoriy qiymatlaridan noxush (katta yo kichik) tomonga o‘zgarish ehtimolini hisobga oladi. Masalan, konstruksiya massasidan tushadigan me’yoriy yuklar uning hajmi va materialning o‘rtacha zichligi bilan belgilanadi. Biroq, tayyorlash jarayonida konstruksiya o‘lchamlari kattalashtirilishi yoki kichiklashtirilishi mumkin. Me’yorlarda o‘z massasidan tushadigan yuk bo‘yicha quyidagi ishonchlilik koeffitsientlari qabul qilingan: metall konstruksiyalar uchun  $\gamma_f = 1,05$ ; zichligi  $1600 \text{ kg/m}^3$  dan katta bo‘lgan tosh (g‘isht) li, armatoshli, yog‘och, temirbeton va beton konstruksiyalar uchun  $\gamma_f = 1,1$ ; zichligi  $1800 \text{ kg/m}^3$  dan kichik, zavod sharoitida yasaladigan beton konstruksiyalar uchun  $\gamma_f = 1,2$ ; qurilish maydonida bajariladigan beton konstruksiyalar, shuningdek tekislash, izolyasiyalash va bezak qatlamlari uchun,  $\gamma_f = 1,3$ ; qor yuki bo‘yicha ishonchlilik koeffitsientlari  $\gamma_f = 1,4\dots1,6$ . Qator hollarda, agar bu konstruksiya ish sharoitlarini yomonlashtiradigan bo‘lsa, ortiqcha yuk tushish koeffitsienti 1 dan kam bo‘lishi ham mumkin. Masalan, konstruksiyalarning o‘z massasi turg‘unlik, sirpanish,

suzib chiqishga hisoblashda  $\gamma_f = 0,9$  deb qabul qilinadi. Qisqa muddatli yuklar tiklash bosqichida  $\gamma_f = 0,8$  dan boshlab olinadi.

Material zichligi ham o'zgarishi mumkin. Agar konstruksiya materialining haqiqiy zichligi loyiha bo'yicha zichligidan og'ishi 10% dan ortmasa, hisoblashga 1,1 ga teng bo'lgan yuk bo'yicha ishonchlilik koeffitsienti kiritiladi. Massa konstruksiya ishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganida  $\gamma_f$  koeffitsienti 0,9 deb qabul qilinadi. Sovuq o'tkazmaydigan material zichligining o'rtacha qiymatdan og'ishi va uning namlanish imkoniyati  $\gamma_f$  koeffitsienti 1,2 yoki 1,3 deb olinadi.

*Qor* va *shamol* me'yoriy yuklari uzoq muddatli meteorologiya kuzatuvlari ma'lumotlari asosida belgilanadi. Ulardan birinchisi shamoldan himoyalangan gorizontal uchastkada qor qatlami vaznining o'rtacha arifmetik (kamida 10 yillik davr uchun) iqlimiyligini hudud hamda qoplama profiliga bog'liq ravishda aniqlanadi (I hudud uchun 0,5 KPa gacha va IV hudud uchun 2,5 KPa gacha). Qor yuklari uchun koeffitsient  $\gamma_f = 1,4 \dots 1,6$  bo'lsa, shamol yuki uchun – 1,2...1,3. SHamolning me'yoriy yuklari shamolning tezlik bosimiga (kamida 5 yillik davr uchun shamol tezligiga oid statistika ma'lumotlari bo'yicha) bog'liq ravishda, hamda bino yoki inshootning aerodinamik tavsiflaridan kelib chiqib aniqlanadi. SHamol yuki nafaqat shamolning u ta'sir ko'rsatadigan devorga faol bosim tariqasidagi, balki tom yopmasi va qarama-qarshi tarafdagagi devorga ko'rsatadigan so'rish sifati ham hisobga olinadi. Ijtimoiy binolar orayopmalariga odamlar yig'ilishidan tushadigan me'yoriy yuk  $4 \text{ kN/m}^2$  ga teng deb qabul qilingan. U bir kvadrat metr orayopmada har birining og'irligi 80 kg dan bo'lgan 5 ta kishi joylashishi mumkin degan farazdan kelib chiqadi. Biroq, inson massasi 80 kg dan ortiq bo'lishi ham mumkin. SHu sababli yuk bo'yicha ishonchlilik koeffitsienti  $\gamma_f = 1,2$  kiritilib, orayopmalarga tushadigan hisobiy yuk  $4,8 \text{ kN/m}^2$  ni tashkil qiladi.

Hisobiy yuklar kamdan-kam hollarda takrorlanadi. Masalan, shamol va qordan tushadigan yuk 10...15 yilda bir marta, qavatlar oralig'idagi orayopmalarga tushadigan yuk 15...20 yilda bir marta. Yuk bo'yicha ishonchlilik koeffitsienti chegaraviy holatlarning ikkinchi guruhi bo'yicha hisoblashda, odatda, 1,0 ga teng deb olinadi. Yoriqbardoshlikning 1-sinfiga taalluqli temirbeton konstruksiyalar uchun yoriqlar sodir bo'lishiga hisoblashda  $\gamma_f$  koeffitsient xuddi mustahkamlikka hisoblashdagi kabi qabul qilinadi.

Zarba sodir qiladigan va inshoot tebranishini keltirib chiqaradigan (kranlar, poyezdlar) dinamik yuklar ta'siri, foydalanish sharoitlarining o'zgarishi (texnologik asbob-uskunalar rekonstruksiyasi, binolar vazifasi o'zgarishi va b.) yuklarni yuklar bo'yicha ishonchlilik koeffitsientiga bog'liq bo'lmagan maxsus dinamik koeffitsientiga ko'paytirish orqali

hisobga olinadi. Misol uchun, yig'ma konstruksiya elementlarini ularni ko'tarish, tashish va montaj qilishda yuzaga keladigan kuchlar ta'siriga hisoblashda element massasidan tushadigan yuk ularni hisoblashda tashishda – 1,6 ga, montaj chog'ida esa – 1,4 ga teng bo'lган dinamik koeffitsient bilan kiritiladi. Bu holda element massasi uchun yuk bo'yicha ishonchlilik koeffitsienti 1,0 ga teng deb olinadi.

Ta'sir qilish davomiyligiga ko'ra yuk va ta'sirlar inshootdan to'liq foydalanish davrida ta'sir qiladigan *doimiy* (uning qismlari vazni, grunt vazni va bosimi, konstruksiyalarning oldindan zo'riqtirish ta'siri), ham *vaqtinchalik* yuk va ta'sirlarga bo'linib, ularning qiymati hamda inshoot yoki konstruksiyada joylashish o'rni foydalanish jarayonida va vaqtga bog'liq ravishda o'zgarib, muayyan foydalanish davrlarida ular butkul yoki qisman bo'lmashigi mumkin. Vaqtinchalik yuk va ta'sirlar, o'z navbatida, *uzoq davom etadigan* yuklarga (statsionar uskunalar vazni, gaz, suyuqlik va sochiluvchan jismlar bosimlari, omborlar, kutubxonalar,sovutgichlar, hujjatxonalar orayopmalari va devorlariga tushadigan kuchlar, statsionar uskunalarning iqlimi va harorat texnologik ta'sirlari, asosning notejis deformatsiyasi ta'sirlari, materiallarning kirishishi va salqiliqi ta'siri, qor qatlami qismining og'irligi va h.k.) hamda *qisqa muddatli yuklarga* (odamlar, mebel va engil uskunalar, ta'mirlash materiallari vazni, qurilish konstruksiyalarini tayyorlash, tashish va tiklashda yuzaga keladigan yuklar, harakatdagi va ko'tarish-transport uskunasidan tushadigan yuklar, qor, shamol yuklari, iqlimning yaxmalak va harorat ta'sirlari) hamda *alojida yuk va ta'sirlarga* (seysmik va portlash ta'sirlari, texnologiya jarayonlarining keskin buzilishi yoki uskunalar ishdan chiqishi, asoslar notejis cho'kishi yoki karstli hududlarda er yuzasining deformatsiyalanishi tufayli yuzaga keladigan ta'sirlar va h.k.) ajraladi.

*Yuk va ta'sirlar* ularning yuzaga kelish yoki ro'yobga chiqish ehtimoliga bog'liq ravishda tasniflanadi [3]. Kombinatsiyalarda zamon va makon korrelyasiyasi hisobga olinishi shart. Yuqorida qayd etilgani kabi, ko'priklarga ta'sir etadigan yuklar, shuningdek konstruksion materiallar mustahkamligi tasodifiy qiymat hisoblanadi. Doimiy yuklar ehtimolligining taqsimlanishi aksariyat hollarda taqsimlanish zichligi quyidagicha bo'lган normal qonun bilan (Gauss qonuni) yaxshi bayon etiladi [11]:

$$p(S_{i,p}) = \frac{1}{\sigma_i \sqrt{2\pi}} e^{-\frac{(S_{i,p} - \bar{S})^2}{2\sigma_i^2}}, \quad (3.6)$$

bu erda  $S_{i,p}$  –  $i$ -doimiy yuk ta'siri – tasodifiy qiymat;  $S$  –  $S_{i,p}$  qiymatni matematik natijasi (o'rtacha);  $\sigma_i$  –  $S_{i,p}$  qiymat (o'rtacha kvadratik og'ishuv)


standarti.

Doimiy yuklarning *me'yoriy qiymatlari* sifatida, odatda, ularning o'rtacha qiymatlari qabul qilinadi.

Doimiy yuklarning  $S_{i,p}$  *hisobiy qiymatlari* ushbu yuklar tasodifiy qiymatlarining o'rtachasidan zaxira kamayishi tomonga ehtimoliy og'ishuvlarini hisobga oladi. An'anaviy tarzda  $P$  hisobiy qiymatlarning ta'minlanganligi og'ishuvga muvofiq o'rtacha qiymatdan  $3\sigma$  («uch sigma» qoidasi), ya'ni  $P=0,9986$  deb qabul qilinadi.

Konstruksiyalarning o'z og'irligidan tushadigan yuklar yoyilishi, odatda, tayyorlash va montajga beriladigan ruhsatlar bilan cheklangan; bunda variatsiya koeffitsienti, ya'ni standartning o'rtachasi ( $V-\sigma/S$ ) ga nisbati 0,02 dan 0,03 gacha bo'lgan oraliqda joylashgan. Shu sababli o'z og'irligidan tushadigan yuklarga ishonchlilik koeffitsientlari 1,1 yoki 0,9 ga teng deb qabul qilinadi (so'nggi qiymat o'z og'irligidan tushadigan yuk elementdagi umumiy kuchni kamaytirgan hollarda). Boshqa doimiy yuklar ancha ko'proq yoyilgan bo'lib, mos ravishda ular uchun ishonchlilik koeffitsientlari ham 1,3 dan 2,0 ga qadar oraliqda olinadi.

Avtotransportdan vaqtinchalik tushadigan yuklar ( $S_{vr}$ ) ehtimolining taqsimlanishi ikki modalli shaklga ega (3.2-rasm):



3.2-rasm. Avtotransport vositalaridan ko'prikda yuk taqsimlanish zichligining xarakterli ko'rinishi

Bu grafikdagi dastlabki ko'tarilish engil va kichikroq yuk mashinalari ta'siri bilan bog'liq bo'lib, inshootning yuk ko'tarish imkoniyatini belgilab bermaydi. Shuning uchun uni tahlilga qo'shma ham bo'ladi. Ikkinci ko'tarilish esa og'ir vaznli yuk avtomobilari (uch oqli yuk mashinalari, ko'p oqli furalar, avto) ta'sirini aks ettiradi va muayyan yaqinlashish orqali normal taqsimlanish qonuni bilan bayon etilishi mumkin. Bunda normal foydalananish sharoitlarida maksimal ta'sir qiladigan yukka muvofiq keladigan me'yoriy yuk  $S_n$  esa o'rtacha  $S$  yukdan 3...4 standart, hisobiy  $S_r$  yuk esa 5...6 standart uzoqda joylashadi, ya'ni

$$S_i = \bar{S} + (3 \dots 4)\sigma; \quad S_r = \bar{S} + (5 \dots 6)\sigma. \quad (3.7)$$

Aytish lozimki, me'yoriy va o'rtacha yuklar o'rtasidagi standartlarda

ifodalangan farq oraliq uzunligi kattalashgani sari foydalanish yuklari ham kengroq joylashishi oqibatida ortib boradi. Shu bilan birga, hisobiy muvaqqat yuklarga kiritilgan zaxiralar kamayib boradi, chunki oraliq kattalashib borishi bilan umumiy kuchda ushbu yuklarning ulushi kamayib boradi. Vaqtinchalik yuk uchun variatsiya koeffitsienti  $v = 0,20 \dots 0,30$  ga teng bo'lib, oraliq uzunligi kattalashgan sari kamayib boradi.

Kichik yuklash uzunliklari uchun avtomobil yuklariga (qatnov qismi plitalarini hisoblash) va katta oraliqlar uchun ishonchlilik koeffitsientlarini tahlil qilib chiqaylik. Bunda mos ravishda yukning statistika parametrlarini ularning oraliqga bog'liqlik turini hisobga olib qabul qilinadi.

**Plita.** Qatnov qismi plitasiga vaqtinchalik yuklar uchun variatsiya koeffitsientini  $v = 0,3$ , me'yoriy yukdan tushadigan kuchni  $S_H = \bar{S} + 3\sigma$ , hisobiy yukdan tushadigan kuchni  $S_p = \bar{S} + 6\sigma$  deb qabul qilish mumkin.

Ishonchlilik koeffitsienti  $\gamma$  hisobiy va me'yoriy yuklardan tushadigan kuchlar nisbati bilan belgilanadi.

$$\gamma = S_p/S_n = (1+0,3 \cdot 6) / (1+0,3 \cdot 3) = 1,47. \quad (3.8)$$

Me'yordarda AK yuk mashinasi uchun ishonchlilik koeffitsienti  $\gamma = 1,5$  ga teng deb qabul qilingan.

**Katta oraliqlar.** Katta oraliqlardagi muvaqqat yuklar uchun variatsiya koeffitsienti  $v = 0,2$ ; me'yoriy yukdan tushadigan kuch  $S_H = \bar{S} + 4\sigma$ ; hisobiy yukdan tushadigan kuch  $S_p = \bar{S} + 5\sigma$ .

Ishonchlilik koeffitsienti

$$\gamma = S_p/S_n = (1+0,2 \cdot 5) / (1+0,2 \cdot 4) = 1,11. \quad (3.9)$$

Amaldagi me'yordarda AK sxemasidagi taqsimlangan yuk uchun ishonchlilik koeffitsienti 1,2 ga teng. Yangi me'yorlar loyihasida – 1,15.

**Vaqtga bog'liq ravishda o'zgaradigan ta'sirlar** [3-7]: 1) doimiy amal qiladigan yuk va ta'sirlar (konstruksiyaning o'z og'irligi, armaturani dastlabki taranglatish kuchlari, cho'kish va siljuvchanlik ta'sirlari, ko'tarma og'irligidan grunt bosimi va b.); 2) muvaqqat yuklar (harakatdagi tarkibdan foydali yuk, shamol hamda markazdan qochma kuchdan gorizontal ko'ndalang yuk, tormozlanish yoki tortish kuchidan gorizontal bo'ylama yuk, harakatdagi tarkibdan grunt bosimi); 3) alohida ta'sirlar (seysmik ta'sirlar, transport vositalarining bosimi, poyezdlar katta tezlik bilan harakatlanishida harakatdagi temir yo'l tarkibidan olinadigan dinamik zarbalar).

**Makonda o'zgaradigan ta'sirlar:** 1) erkin (avtomobillar yuki); 2) qisman qayd etilgan (poyezd, tramvay yuklari); 3) qayd etilgan yuklar (turli kranlar).

**Boshqa belgilariga ko‘ra tasniflash:** 1) ta’sir xarakteriga ko‘ra (statik, dinamik); 2) qisqa muddat davom etadigan ta’sirlar; 3) uzoq muddat davom etadigan ta’sirlar; 4) deformatsiyalarning kuchli cheklanish sharoitidagi ta’sirlar (harorat-kirishish tufayli kelib chiqqan).

**Yuk va ta’sirlar uyg‘unligi:** Bir vaqtning o‘zida yuzaga keladigan ta’sirlarning ustma-ust tushishi eng noxush kombinatsiyalar shaklida amalga oshiriladi. Bunda ular birga kelishiga oid quyidagi qoidalarga rioya qilish lozim:

1) doimiy va vaqtinchalik yuk va ta’sirlar barcha hisobiy kombinatsiyalarda mavjud bo‘lishi shart;

2) muvaqqat va alohida yuk va ta’sirlarni (hisob-kitobni soddalashtirish maqsadida) birgalikda yuzaga kelib, bir-biriga qattiq bog‘liq bo‘lgan va maksimal qiymatga bir vaqtda erishadigan uyg‘unliklarda ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq (masalan, muvaqqat vertikal yuk, tormoz kuchi va markazdan qochma kuch). Ta’sirlarni, ularga biroz o‘zgartirish kiritib, maksimal qiymatlari makon va zamonda mos tushish ehtimoli juda kichik bo‘lgan mustaqil ta’sirlar sifatida ko‘rib chiqish lozim (masalan, muvaqqat vertikal yuk va shamol yuki). Bu erda biz faqat qurilish konstruksiyasining statik hisobiga qo‘yiladigan eng asosiy talablar haqida so‘z yuritib, inshootlar turli muayyan statik tizimlarining ichki kuchlarini aniqlash tafsilotlariga to‘xtalib o‘tirmadik. Bunday tizimlarning qurilish mexanikasi tegishli maxsus adabiyotlarda etarli darajada to‘liq keltirilgan. Aniqlangan kuchlar ishonchlikka ham determinatsiyalangan, ham ehtimoliy shaklda hisobiy baholash uchun zarur.

Konstruksiyaga ta’sir etadigan real yukni aniqlash uchun yuklarning qaysi turlarini qo‘shish mumkinligini bilish zarur. Bu muammo qurilish me’yorlarida [12 – 14] hal etilgan, ya’ni qanday hollarda qanday yuk va ta’sirlar qo‘shilishi mumkinligi belgilab qo‘yilgan (3.2-jadv.).

Jadval 3.2

#### Yuklarning qo‘shish tarhi (uyg‘unlashuvi)

Yuklarning qo‘shish tarhi	Asosiy qo‘shilmalar	I guruh	Doimiy yuk
			Uzoq muddatli yuk
			Bitta qisqa muddatli yuk
		II guruh	Doimiy yuk
			Uzoq muddatli yuk
			Ikkita va undan ortiq qisqa muddatli yuklar $\gamma_f = 0,9$
	Maxsus qo‘shilmalar		Doimiy yuk
			Uzoq muddatli yuk
			Qisqa muddatli yuk $\gamma_f = 0,8$
			Yakka maxsus yuk

Birinchi guruh bo'yicha asosiy qo'shimchalarga doimiy, uzoq muddatli va bitta qisqa muddatli yuklar kiradi. Qisqa muddatli yuklarni hisobga kiritishda qo'shilmalar koeffitsienti  $\gamma_s = 0,9$  olinadi.

Yuklarning maxsus qo'shilmalari doimiy, uzoq muddatli, qisqa muddatli va bitta maxsus yukdan tashkil topadi. Bunda qisqa muddatli yuklar  $\gamma_s = 0,8$  koeffitsientiga ko'paytiriladi, maxsus yuk esa to'laligicha olinadi.

Odatda, konstruksiyaga bir necha xil yuklar ta'sir ko'rsatadi. Konstruksiyani barcha hisobiy yuklar bir vaqtning o'zidagi ta'siriga hisoblash ortiqcha mustahkamlik zaxirasi va materialning ortiqcha sarfini beradi. SHu bilan birga, barcha hisobiy yuklar kichik qiymatga ega bo'lgan holda ular bir vaqtning o'zida amal qilishi ehtimoli juda kam. Bir vaqtning o'zida ikki yoki bir necha muvaqqat yuklar ta'sir qilganida konstruksiyalarning ham birinchi guruh, ham ikkinchi guruh chegaraviy holatlari bo'yicha hisobi ushbu uyg'unliklarning eng noxush birikib kelishini hisobga olib bajarilishi lozim. Hisobga olinadigan yuklar tarkibiga bog'liq ravishda doimiy, uzoq muddatli va qisqa muddatli yuklardan iborat *asosiy uyg'unliklar*, hamda doimiy, uzoq muddatli va ehtimoliy qisqa muddatli va alohida yuklarning biridan tarkib topgan *alohida (favqulodda)* uyg'unliklarni farqlaydilar. Bunda hisob-kitobga kiritiladigan muayyan qisqa muddatli yuk tegishli uzoq muddatli yukda hisobga olingan qiymatga kamaytirilib qabul qilinadi.

Ushbu uyg'unliklar turli yuklar bir vaqtning o'zida amal qilishiga oid real variantlardan kelib chiqib, ba'zi yuklar ishtirok etmasligi yoki ularning ta'sir qilish sxemasi o'zgarishini hisobga olgan holda belgilanadi. Bir qancha tasodifiy ta'sirlarning bir vaqtida amal qilish ehtimoli kamligi, odatda, barcha ta'sirlar amal qilishidan olingan yuk samaralari summasini uyg'unlashuv koeffitsienti  $\gamma_s$  ga ko'paytirish yo'li bilan hisobga olinadi. Uyg'unlashuv koeffitsienti, odatda, umumiy yuk samarasi va alohida ta'sirlarning hisobiy qiymatlarini teng ta'minlanganligi sharti va hisobga olinayotgan ta'sirlar turi, hamda ularning umumiy yuk samarasi tarkibidagi ulushiga bog'liq bo'ladi. Masalan, ko'p qavatli binolarda bir vaqtning o'zida kuchli shamol, qoplamaning eng katta qor yuki hamda barcha orayopmalarda maksimal foydali yuk ta'siri amal qilishi ehtimoldan yiroq va deyarli mumkin emas. Ushbu omilni hisobga olish uchun,  $\gamma_s < 1$  uyg'unlashuv koeffitsienti kiritiladi va u bir vaqtning o'zida bir necha tasodifiy yuklarning amal qilish ehtimolini hisobga oladi. Uyg'unlik koeffitsientlari qiymatlari QMQ 2.01.07 – 85 «Yuk va ta'sirlar» me'yorida belgilab berilgan. Ushbu me'yorlarda uyg'unliklarning birgalikdagi

koeffitsienti va umumiy hisobiy kuch qo'llanilib, u, misol uchun, quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$S = \gamma_c \sum S_i. \quad (3.10)$$

Ko'plab xorijiy me'yorlarda alohida uyg'unlik koeffitsientlari qo'llanilib, ular quyidagi ko'rinishdagi bog'liqliklarga olib keladi:

$$S = S_i \sum \gamma_c. \quad (3.11)$$

Ba'zi hollarda nisbatan murakkab ierarxik bog'liqliklar ham qo'llanilib, ular ham qo'shilgan, ham alohida uyg'unlik koeffitsientlarini o'z ichiga oladi.

Uyg'unlik tarkibiga kirgan yuklarning fizik mohiyatini ma'lum jihatdan bo'lsa ham hisobga olish zarurati uyg'unlik koeffitsientlari QMQ da etarlicha murakkab usul yordamida aniqlanishiga olib keladi (yuklar miqdoriga bog'liqlik, bir vaqtning o'zida hisobga olinadigan kran ta'sirlari miqdonini cheklash va h.k.).

Xorijiy me'yorlar odatda konstruksiyalarni turli yuklar uyg'unliklariga tekshirishning nisbatan soddaroq qoidalarini shakllantiradilar. Masalan, AQSh va Buyuk Britaniya me'yorlari doimiy ta'sirlar (DL), foydali vaqtincha (LL), shamol (WL), seysmik (EL) ta'sirlar kombinatsiyalarining hisob-kitobi, ya'ni yuklarning sakkiz xil ehtimoliy uyg'unliklarini tekshirib ko'rish taklif etiladi [3]:

1,4 DL  
 1,2DL + 1,6LL  
 0,9DL ± 1,3WL  
 1,2DL ± 1,3WL  
 1,2DL + 0,5LL ± 1,3WL  
 0,9DL + 1,0EL  
 1,2DL ± 1,0EL  
 1,2DL + 0,5LL ± 1,0EL.

Mazkur sharoitlarda Evrokod quyidagi kombinatsiyalarni tekshirishni tavsiya etadi:

1,35 DL  
 1,35DL + 1,50LL  
 1,35 DL ± 1,50 WL  
 1,00DL + 1,50WL  
 1,35 DL + 1,35 LL ± 1.35 WL  
 1,00 DL ± 1,00 EL  
 1,00DL + 1,5·0,3LL ± 1,0EL.

Yuklar taqdim etilgan kombinatsiyalar tarkibiga kirgan koeffitsientlar ko'rib chiqilayotgan yuklar uyg'unliklarini amalga oshishining taxminan bir xil ehtimolini ta'minlash shartidan kelib chiqib tanlangan va kalibrash (aniq bir o'lchamga keltirmoq) amaliyoti natijalariga ko'ra tanlab olinadi. Umuman, yuklar uyg'unliklari ahamiyatini ehtiyot bo'lib, shu bilan birga, yuklar uyg'unliklarining hisobga olish murakkabligi amaliy jihatdan maqbul vazifasi muammosi, bu erda yukning alohida turlarining chastota tavsiyflari e'tiborga olinishi talab etilib, o'z echimini kutib turibdi. Konstruksiyalarni o'z ichiga bir qisqa muddatli yukni olgan asosiy uyg'unliklarga hisoblashda qisqa muddatli yuk qiymati pasayishsiz, ikki va undan ortiq qisqa muddatli yukni o'z ichiga olgan asosiy uyg'unliklarga hisoblashda esa ushbu yuklarning hisobiy qiymatlari  $\gamma_s = 0,9$  koeffitsientiga ko'paytiriladi. Asosiy uyg'unliklarga to'rt va undan ortiq qisqa muddatli yuk qo'shilganida uyg'unliklar koeffitsienti 0,8 ga teng. Konstruksiyalarni alohida uyg'unliklarga hisoblashda esa qisqa muddatli yuklarning hisobiy qiymatlari  $\gamma_s = 0,8$  koeffitsientiga ko'paytiriladi. Bu holda alohida yuk pasayishsiz qabul qilinadi. Bunda yuklar kamayishiga real vaziyatda barcha yuklarning bir vaqtning o'zidagi ta'siri kamdan-kam hollarda uchrashi sabab bo'lgan.

Konstruktiv elementga bir vaqtning o'zida ikki yoki bir nechta vaqtinchalik yuklar uyg'unliklarining ta'sirini me'yorlashtirishda yuklar uyg'unliklari koeffitsientlari ***teng ishonchlilik tamoyilidan*** kelib chiqib belgilanadi. Bu konstruktiv elementning istalgan yuk uyg'unliklariga buzilmay ishlashi ta'minlanganligi bir xil bo'lishi kerakligini bildiradi. Ko'priklarni loyihalashning avvalgi me'yorlarida vaqtinchalik yuklardan tushadigan umumiyy ta'siriga yagona uyg'unlik koeffitsienti kiritilar edi. Tabiiyki, uning qiymati birdan kamroq qilib qabul qilinardi:

$$m \cdot \Sigma S_i \leq A \cdot [\sigma]. \quad (3.12)$$

Amaldagi me'yordarda chegaraviy holatlar uslubiyotining rivojiga uyg'unlik koeffitsientlari tabaqlashtirilgan tarzda kiritiladi:

$m_1$  – asosiy vaqt yukiga  $S_{osn}$  va  $m_2 \leq m_1$  – barcha qolgan vaqtinchalik yuklarga  $\Sigma S_i$ .

$$m_1 \cdot S_{osn} + m_2 \cdot \Sigma S_i \leq A \cdot [R]. \quad (3.13)$$

Uyg'unlik koeffitsientlarining me'yoriy qiymatlarini quyidagicha tanlash mumkin. S ikki muvaqqat yuklar –  $S_1$  va  $S_2$  elementlariga umumiyy ta'siri mavjud deb olaylik. Bu yuklar tasodifiy qiymat bo'lib (aniqlik kiritish maqsadida ular normal qonunga binoan taqsimlangan deb qabul qilamiz), ularning o'rtacha qiymatlari –  $\bar{S}_1$  va  $\bar{S}_2$ , standartlari esa mos

ravishda  $\sigma_1$  va  $\sigma_2$ .

Muvaqqat yuklar va ular uyg'unligi hisobiy  $S_p$  qiymatlarining  $n$  standartlarga ta'sirlarining o'rtacha qiymatidan oshishiga mos keluvchi ishonchlilik sathi berilgan, ya'ni:

$$S_{pi} = \bar{S}_1 + n \cdot \sigma_i. \quad (3.14)$$

Uyg'unlik koeffitsienti qiymati  $m_1$  ni olamiz va teng ishonchlilik tamoyilidan kelib chiqib,  $m_2$  qiymatini aniqlaymiz.

Tasodifiy qiymatlarni qo'shish qoidasiga binoan quyidagini olamiz:

$$\bar{S} = \bar{S}_1 + \bar{S}_2 \text{ i } \sigma^2 = \sigma_1^2 + \sigma_2^2. \quad (3.15)$$

Shunda quyidagiga ega bo'lamiz:

$$S_{p1} = \bar{S}_1 + n \cdot \sigma_1; \quad S_{p2} = \bar{S}_2 + n \cdot \sigma_2; \quad S_p = \bar{S} + n \cdot \sigma.$$

Shu bilan birga  $S_r = m_1 \cdot S_{r1} + m_2 \cdot S_{r2}$ .

Bundan  $m_2 = (S_r - m_1 \cdot S_{r1}) / S_{p2}$ .

**Misol.**  $S_1$  va  $S_2$  – ikki vaqtinchalik yukning tasodifiy ta'sirlari;

$\bar{S}_1 = 100$ ;  $\sigma_1 = 30$ ;  $\bar{S}_2 = 80$ ;  $\sigma_2 = 32$ ;

hisobiy yuklarning ishonchlilik darajasi o'rtacha qiymatlardan 4 standart ortiq;  $m_1 = 0,9$ .  $m_2$  topilsin.

**Echim:**  $S = S_1 + S_2$  deb belgilaymiz.

$$\bar{S} = \bar{S}_1 + \bar{S}_2 = 100 + 80 = 180;$$

$$\sigma^2 = \sigma_1^2 + \sigma_2^2 = 900 + 1024 = 1924; \sigma = \sqrt{1924} \approx 44;$$

$$S_{p1} = \bar{S}_1 + 4 \cdot \sigma_1 = 100 + 120 = 220;$$

$$S_{p2} = \bar{S}_2 + 4 \cdot \sigma_2 = 80 + 128 = 208;$$

$$S_p = \bar{S} + 4 \cdot \sigma = 180 + 176 = 356;$$

$$m_2 = (S_p \cdot m_1 \cdot S_{p1}) / S_{p2} = (356 \cdot 0,9 \cdot 220) / 208 = 0,76 \approx 0,75.$$

### 3.6. Marka, sinf va betonning siqilishga hisobiy qarshiligi orasidagi nisbat

So'nggi vaqtga qadar beton mustahkamligi uning markasi orqali ifodalalar edi. Beton markasi – bu  $\text{kgs/sm}^2$  larda ifodalangan siqilishga nisbatan o'rtacha mustahkamlik bo'lib, qirrasi 15 sm ga teng bo'lgan kubli namunalar sinovi natijasida olinadi. Bukilishga ishlaydigan ko'pri konstruksiyalari uchun M300, M400, M500 markalari, siqilish va


markazdan tashqari siqilishga ishlaydigan beton uchun M500 va M600 markalari olingan.

Amaldagi mahalliy va Evropa me'yorlarida beton mustahkamligi sinflar bilan tavsiflanadi. **Beton sinfi** – betonning 0,95 ta'minlanganlik darajasida siqilishga bo'lgan kubik mustahkamligi.

Betonning  $M$  markasi ( $\text{kgs}/\text{sm}^2$ ) va  $B$  sinfi (MPa) orasidagi nisbat mazkur formula bilan ifodalanadi [3]:

$$B = M(1 - 1,645 \cdot v)/g, \quad (3.16)$$

bu erda  $1,645 = \sigma$  standartlarda ifodalilanigan 0,95 ta'minlanganlikka mos keladigan o'rtacha qiymatdan og'ishuv;  $v$  – beton mustahkamligining variatsiya koeffitsienti;  $g = 9,81 \text{m}/\text{s}^2$  – erkin tushish tezlashishi. Ushbu nisbat shuningdek 3.3-rasmida ham namoyish etilgan [11].



3.3-rasm. Beton markasi va sinfi orasidagi nisbat

Loyiha, smeta va boshqa dastlabki hisob-kitoblarda, masalan, sement sarfini aniqlash hisob-kitoblarida beton mustahkamligi variatsiyasi koeffitsienti mamlakat bo'yicha o'rtacha qiymatdan kelib chiqib,  $v = 0,135$  ga teng deb qabul qilinadi.

Bu holda

$$B \approx 0,08 M \quad (3.17)$$

kelib chiqadi.

Biroq, betonning kubik mustahkamligi va uning konstruksiya tarkibidagi mustahkamligi chegaraviy bog'lanishlar va ish sharoitidagi farqlar tufayli jiddiy farqlanadi. Ulardan ikkinchisi, ayniqsa egilishda, prizmali mustahkamlikka juda yaqin.  $R_b$  prizmali mustahkamlik va beton sinfi orasidagi tajribalar yordamida aniqlangan bog'liqlik quyidagi ko'rinishga ega:

$$R_b = (0,77 - 0,001) \cdot B. \quad (3.18)$$

Masalan, betonning ko‘priksozlikda eng ko‘p qo‘llaniladigan B30 va B40 sinflari uchun prizma mustahkamligining tegishli qiymatlari  $R_b = 0,74B$  va  $R_b = 0,73B$  ga teng.

Yuqorida qayd etilganidek, *betonning siqilishga hisobiy qarshiligi* mustahkamlik o‘rtacha qiymatidan uch standart kamayish tarafiga og‘ishiga muvofiq keladi. Bundan beton uchun ishonchlilik koeffitsientini olishimiz mumkin:

$$\gamma_b = R_b/R = (1 - 0,135 \cdot 1,645)/(1 - 0,135 \cdot 3) = 0,78/0,595 = 1,31.$$

Me’yorlarda beton uchun ishonchlilik koeffitsienti  $\gamma_b = 1,3$  ga teng deb olingan.

Shunday qilib, ko‘prik betonlari uchun ish sharoitlari koeffitsienti  $\gamma = 0,9$  ni hisobga olgan holda betonning siqilishga hisobiy qarshiliklari sinfiga bog‘liq ravishda quyidagi tarzda tayinlanadi:

$$R = (0,73B / 1,3) \cdot 0,9 \approx 0,5B. \quad (3.19)$$

Haqiqatda, QMQ 2.05.03-97 da B40 beton sinfiga siqilishga nisbatan 20 MPa hisobiy qarshilik muvofiq keladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аскаров Б.А., Низомов Ш.Р., Кобилов Б.А. Темирбетон ва тошгишт конструкциялари. –Т.: Ўзбекистон, 1997. – 357 б.
2. Ашрабов А.А., Зайцев Ю.В. Курилиш конструкциялари. –Т.: Ўқитувчи, 1988. –302 б.
3. Ashrabov A.A., Raupov Ch.S. Foydalanishdagi transport inshootlarining ishonchliligi. 5A580603—"Ko'priklar va transport tonnellaridan foydalanish" mutaxassisligi talabalari uchun o'uv qo'llanma. Qismlar I va II. ToshTYMI, 2011. – 105 b. va – 97 b.
4. Ашрабов А. А., Раупов Ч. С. Основные определения и количественные показатели надежности строительных систем. Учебное пособие. ТашИИТ, 2005. – 83 с.
5. Ашрабов А.А., Раупов Ч.С. Методы вероятностных расчетов строительных конструкций. Учебное пособие. ТашИИТ, 2005. – 111 с.
6. Ашрабов А. А., Раупов Ч. С. Метод предельных состояний в проектировании конструкций зданий и сооружений. Учебное пособие. ТашИИТ, 2005. – 51 с.
7. Байков В.Н., Сигалов Э.Е. Железобетонные конструкции. –М.: Стройиздат, 1991. –766 с.
8. Берген Р.И. и др. «Инженерные конструкции». –М.: Высшая школа, 1983. – 410 с.
9. Бондаренко В.М. Строительные конструкции. –М.: Стройиздат. 2004. –795 с.
10. Евланов Сергей Фёдорович. Материаловедение для транспортного строительства. //Технология, прочность и долговечность строительных материалов для транспортного строительства. Научные труды ОАО ЦНИИС. Вып. 239. –М.: ОАО ЦНИИС, 2007.
11. Зайцев Ю.В., Ашрабов А.А. Строительные конструкции. –Т.: «Мехнат», 1989. –340 с.
12. ҚМК 2.03.01–97. Бетон ва темирбетон конструкциялари. –Т.: Ўзархитеккурилиш, 1996. – 79 с.
13. ҚМК 11–6–97. Юк ва таъсирлар: Лойиҳалаш меъёрлари. –Т.: Ўзархитеккурилиш, 1997. – 60 с.
14. ҚМК 3.06.04–97 «Кўприклар ва кувурлар». Ўзархитеккурилиш, 1997.
15. Raupov Ch.S., Shermuxamedov U.Z. Qurilish fanı va texnologiyalarining asosiy yo'nalishlari. O'quv qo'llanma. 5A340603 – «Ko'priklar va transport tonnellaridan foydalanish» mutaxassisligi

- talabalari uchun mo'ljallangan. ToshTYMI. 2012. – 127 b.
16. <http://www.eatu.ru/bookpub/byt/96/index.pl>. Современные добавки для получения бетонов с высокими эксплуатационными свойствами.

## Mundarija

Kirish .....	3
<b>I bob. Qurilishda ishlatiladigan beton va po'lat armaturaning fizik-mexanik tavsiflari.....</b>	<b>8</b>
1.1. Betonning fizik-mexanik xossalari va uning konstruksiyalarda qo'llanishi .....	8
1.2. Armaturalarning fizik-mexanik xossalari va ularning konstruksiyalarda qo'llanishi .....	15
1.3. Transport qurilishi uchun materialshunoslik .....	22
1.4. Temirbetonning mohiyati va uning xossalari .....	36
1.5. Oldindan zo'riqqa temirbeton konstruksiyalar, armaturani mahkamlash.....	38
<b>II bob. Temirbeton konstruksiyalarni loyihalash asoslari va ularning kuchlanganlik holati.....</b>	<b>45</b>
2.1. Egiluvchi temirbeton elementlarni loyihalashning o'ziga xos xususiyatlari .....	45
2.2. Egiladigan temirbeton elementlarning kuchlanganlik holati .....	53
2.3. Oldindan zo'riqtirilgan konstruksiya armaturasidagi kuchlanishning yo'qolishi.....	57
2.4. Oldindan zo'riqqa temirbeton elementlardagi kuchlanishlarni aniqlash .....	61
<b>III bob. Qurilish konstruksiyalarini hisoblash asoslari va usullari .....</b>	<b>66</b>
3.1. Konstruksiyalar mustahkamligini ruxsat etilgan kuchlanishlar usulida hisoblash .....	66
3.2. Konstruksiyalar mustahkamligini sindiruvchi kuch usulida hisoblash.....	67
3.3. Konstruksiyalar mustahkamligini chegaraviy holatlar usulida hisoblash .....	68
3.4. Yuklar va ta'sirlar .....	70
3.5. Vaqtinchalik yuklarning ehtimoliy tavsiflari va ularning uyg'unlashuvi. Ishonchlilik koeffitsientlari .....	71
3.6. Marka, sind va betonning siqilishga hisobiy qarshiligi orasidagi nisbat.....	82
Foydalanilgan adabiyotlar .....	85

**Choriqul Salixovich Raupov**

**TEMIRBETON KONSTRUKTSIYALARНИ LOYIHALSHNING  
ILMIY ASOSLARI**

**O'quv qo'llanma**

**Qism I**

Muharrir: Qayumova H.T.

Texnik muharrir va sahifalovchi: Tashbaeva M.X.

Nashrga ruxsat etildi 22.04.2013 y.  
Qog'oz bichimi 60×84/16. Hajmi 5,4 b.t.  
Adadi 7 nusxa. Buyurtma №8-3/2013  
ToshTYMI bosmaxonasida chop etildi  
Toshkent sh., Odilxo'jaev ko'chasi, 1-uy

Toshkent temir yo'l muhandislari instituti, 2013y.